Har bir dars jarayonini zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida tashkillashtirish ta'lim beruvchi pedagogdan juda katta ma'suliyatni talab etadi. Ta'lim berish jarayonida ta'lim metod va vositalarini tanlash va amalga oshirishda ta'limning didaktik maqsad va vazifalari, zaruriy shart-sharoitlar, ta'lim oluvchilarning imkoniyatlari va ularning soni, mashg'ulotlarning davomiyligi,



ta'lim beruvchining mahoratiga ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish imkoniyatlariga tayangan holda, ta'limning metodi va vositalari bir-birini to'ldirib borgandagi amalga oshirilgan ta'lim tizimi samaradorlikka erishishi va kutilgan natijani berishi mumkin.

Boshlang'ich sinflarda matematik savodxonlikni rivojlantirishda AKT ning o'rnini kattadir. Bunda biz AKT ning har bir vositasini dars mavzusi, maqsadiga moslashtirish bilan bir qatorda o'quvchilarning yoshiga, qiziqishlariga ham katta ahamiyat berishimiz muhimdir. O'quvchilarni AKT dan faqat foydali ijobiy maqsadlarda foydalanishni o'rgatishimiz zarur. Ularni kreativlikka, tanqidiy fikrlashga yo'naltirish darkor. Shu kabi maqsadlarni amalga oshirishda boshlang'ich sinf o'qituvchisi darsni puxta rejalashtirishi zarur. Chunki sinf doskasi va AKT vositalaridagi ma'lumotlar uzviy, biri ikkinchisini to'ldiruvchi bo'lishi zarur. Shunga qarab o'qituvchi darsining qaysi qismlarida qo'llashni, vaqtni inobatga olishi maqsadga muvofiq. "Kahot!", "Zoom", "iSpring QuizMaker" va mobil ilovalar. Ushbu innovatsion texnologiyalardan foydalanish oldimizga qo'yilgan vazifalarni bajarib, o'z maqsadimiz – o'quvchilarni motivatsiyasini rivojlantirib, o'quvchi va o'qituvchining o'zaro muloqotini ta'minlashga erishamiz, shuningdek, barcha o'quvchilarni nazorat qilib, baholab, ular bilan darslarni samarali tashkil etishni ta'minlaymiz. Masalan **Kahoot!** o'yinga asoslangan o'quv platformasi bo'lib, maktablar va boshqa ta'lim muassasalarida ta'lim texnologiyasi sifatida foydalaniladi. Uning o'quv o'yinlari "kahoots" foydalanuvchi tomonidan yaratilgan tanlovli viktorina, testlar shaklida bo'lishi mumkin.

Boshlang'ich sinflarda buni qanday qo'llash mumkin Kahot! Ijtimoiy ta'lim uchun mo'ljallangan bo'lib, o'quvchilar interfaol doska, proektor yoki kompyuter, monitor kabi umumiy ekran atrofida to'plangan, saytdan Skype, zoom yoki Google Hangouts kabi ekran almashish vositalari orqali foydalanish mumkin. O'yin dizayn shundayki, o'yinchilar o'z dizaynga tez-tez qarash kerak. O'yin jarayoni oddiy,



barcha o'yinchilar umumiy ekranda ko'rsatilgan yaratilgan o'yin pin kodi yordamida ulanadi va o'qituvchi, biznes rejalari yoki boshqa shaxs tomonidan yaratilgan savollarga javob berish uchun qurilmadan foydalaniladi. Bu savollar mukofot ballarga o'zgartirilishi mumkin.

Kahot! veb-brauzer orqali yoki mobil qurilmalardagi ilovada o'ynash mumkin. Buni boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'yin darslarida, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yangi mavzuni tushuntirish jarayonida foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Bu o'quvchilarda qiziqish uyg'otib, faollikka undaydi va motivatsiya uyg'otadi.

Elektron axborot ta'lim resurslari ichiga kiruvchi elektron nazorat turlarini yaratish uchun iSpring Quiz Maker dasturini kiritish mumkin. iSpring Quiz Makerning quyidagi asosiy imkoniyatlari mavjud:

- tarmoqlangan testlar yaratish imkoniyati adaptatsiyalashtirilgan testlarni yaratish imkoniyati:
- ikki, uch, to'rt yoki besh javobli yopiq test topshiriqlari, ulardan biri to'g'ri.
- ikkitasi haqiqatga yaqinroq turidagi topshiriqlar.
- bir nechta to'g'ri javobli yopiq test topshiriqlari.
- ochiq test topshiriqlari.
- o'xshashlikni aniqlashga yo'naltirilgan test topshiriqlari.
- to'g'ri ketma-ketlikni aniqlashga mo'ljallangan topshiriqlarni.

Bunda o'qituvchi nazorat ishlarini, mustaqil ishlarni, masofaviy ta'limni tashkil etishda foydalanish mumkin. Google Classroom-Google tomonidan ta'lim muassasalari uchun ishlab chiqilgan bepul aralash o'quv platformasi bo'lib, topshiriqlarni yaratish, tarqatish va baholashni soddalashtirishga qaratilgan. Google Classroomning asosiy maqsadi o'qituvchilar va talabalar o'rtasida fayllar almashish jarayonini soddalashtirishdir. AKT dan o'z o'rnida samarali foydalanilsa



maqsadga muvofiq bo'ladi. Respublikamizda ham 2023-yildan boshlab 1-sinf o'quvchilariga "Informatika" fan sifatida o'tilyapti. Bularning hammasi o'quvchilarning har tomonlama rivojlangan yutuk shaxs sifatida kamol toptirish uchun joriy etilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish" J.G.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov . Toshkent. Fan va texnologiya-2008.
2. "O'quvchi shaxsi, ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari" U.K.Tolipov, Sh.S.Sharipov. Toshkent-2012.
3. S.Q.Qahhorov, U.H.Hayitov "Boshlang'ich sinf matematika darslarida innovatsion texnologiyalar" Buxoro – 2022.
4. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi"- Toshkent: Fan va texnologiya.
5. Nishonov J. Umarova Sh. "Differensial tenglama fanini o'qitishda dasturlash tillaridan foydalanib o'qitish" xalqaro ilmiy amaliy konferensiya
6. "Примеры свойств линейных непрерывных функционалов в $C(E)$ " Ш. Умарова-Kesh ziyosi, 2024
7. "Umumlashgan funksiyalar fazosi tasnifi" Umarova Sh "Matematikaning zamonaviy masalalari: muammo va yechimlari" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari
8. "Regulyar umumlashgan funksiyalarning tasnifi" Umarova Sh "Amaliy matematikaning zamonaviy muammolari va istiqollari" konferensiya
9. "Boshlang'ich sinflarda matematik savodxonliklarini rivojlantirishda yangicha yondas huv" Qo'ziyeva Muqaddam Abdusattorovna
10. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini murakkab masalalar yechishga o'rgatishda o'lchov birliklarini ahamiyati"-Qodirova Manzura Sobir qizi.



“DEVONI FONIY” DAGI MUXTARA’(IXTIRO)G`AZALLAR BADIYYATI

Xayriyeva Nargiza

Ixtiyor qizi

Buxoro davlat universiteti

O`zbek tili va adabiyoti kafedrası

1-bosqich magistranti

Annotatsiya: maqolada Alisher Navoiyning forsiy tildagi ulkan va beqiyos adabiy merosini jamlagan “Devoni Foniyy” kulliyoti tarkibidagi “muxtara” va “ixtiro” g`azallarining g`oyaviy-badiiy tahlili amalga oshirilgan. Tatabbu(boshqa bir ijodkor g`azaliga o`xshatish asosiga qurilgan) hamda tavr(uslubiy yaqinlik, qisman o`xshashlik mavjud) g`azallardan farqlanuvchi ijodkor kashfiyoti asosiga qurilgan muxtara g`azallar tahlil qilingan.

Kalit so`zlar: muxtara’, ixtiro, tatabbu, tavr, tasavvuf, may, soqiy.

KIRISH

Alisher Navoiyning forsiy tildagi ijod durdonalari jahon adabiyoti, shuningdek, sharqda, turkiy adabiy merosida salmoqli o`rin egallaydi. Ayniqsa, o`zbek adabiyoti gulshanida “Devoni Foniyy”kabi nodir asarlar miqdori sanoqlidir. “Devoni Foniyy” borasidagi tadqiqotlar salmoqli bo`lsa-da, uning “muxtara” (ixtiro)g`azallari birmuncha kamroq o`rganilgan. Oxirgi muhim izlanishlardan Olimjon Davlatovning “Foniyyning muxtara g`azallari” tadqiqoti hamda Nazora Bekovaning “Alisher Navoiy forsiy merosining janriy xususiyatlari va badiiyati” nomli monografiyalari bu boradagi izlanishlar hosilasidir.

“Shoirning muxtara’ g`azallari soni haqida turli-tuman fikrlar bor. Olim Davlatov esa “Foniyyning muxtara’ g`azallari” maqolasida ularning soni Alisher Navoiy to`la asarlar to`plami 10 jildlikda 95 ta ekanligini qayd etadi. Biz esa shoir mukammal asarlari to`plami 20 jildlikning 18, 19 va 20-jildlarini nazardan o`tkazib, muxtara’ g`azallarning bu nashrda 88 ta ekanligiga guvoh bo`ldik”[1].



Ushbu tahlilni amalga oshirgan tadqiqotchi Nazora Bekova muxtara' g'azallarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini ixtiro g'azallar asosida keng ko'lamda o'rgangan. Ilmiy ishda Foniyning ko'plab ixtiro g'azallari tahlil qilingan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bizning ushbu kichik izlanishimizda ham shu turkumga mansub bo'lgan Navoiyning yangi, o'zidan oldingi, o'ziga zamondosh hamda keyingi ijod ahllari nazmiy dudonalariga mengzamaydigan va ularni hech bir jihati bilan takrorlamaydigan durdona g'azallari ummonining tomchilarini o'rganishni maqsad qildik. Quyida ushbu g'azallar borasida fikr yuritimiz. Tahlilga tortgan g'azallarimiz Alisher Navoiyning "Mukammal asarlar to'lami" idagi 18, 19, 20-jildlarni o'z ichiga oladi.

Muxtara` [4.14]

Shud balo chashmi tu, ey gulruxsor,

Nuqtayi zeri balo xoli uzor.

Tarjimasi:

Ey gul yuzli , sening ko`zing balo bo`ldi, yuzingdan xoling balo so`zi ostidagi nuqtadir.

G'azaldagi ilk baytda arab va fors alifbosi va undagi "balo" so`zi yozilishiga ishora qilingan. Ya`ni "b" harfi ostida nuqtasi bo`lishi yor yuzidagi xolni shunga qiyoslashga asos bo`lgan.

In, ki qadar ch(j)onu dil otash zaday,

Dil az in hast ba ch(j)on minnatdor.–

–Sen jon-u dilga o`t urding, dil shuning uchun jondan minnatdordir.



Dil, jon, otash tushunchalari orqali tan va ruh hamohangligi ifodalangan bo`lib, yurakning jondan minnatdorligi aytilmoqda.

Bodai la'li labat peshi nazar,

Az chi shud chashmi tu dar raftor.–

- La'l labing mayi mening ko`zim oldida-yu, nima uchun sening ko`zing xumor bo`ladi?

Baytda “xumor” so`ziga asosiy urg`u berilyapti. “Xumor” –Odatlanish tufayli biror narsaga bo`lgan chanqoqlik, mushtoqlik, zo`r istak degan ma`noda qo`llanib baytdagi oshiq holatini ifodalagan.Shuningdek, “xumor”ning mashuqa ko`zini nazarda tutganxumor-suzuk, chiroyli ko`z ma`nosini ham ifodalagan. Demak, shoir ushbu baytda ham oshiq, ham mashuqaga xos xususiyatlarni tasvirlagan:bir “xumor”ko`zning sifati, boshqasi oshiq holati aksi bo`lib kelgan. Xullas, bir so`zning turli ma`nolarini qo`llash orqali ham ma`noviy, ham shakliy rang-baranglik asosida so`z o`yini qo`llangan. Shuningdek, “boda”, “la'l”, “lab” sozlarining qizil rangga aloqadorligi jihatdan hamda “lab””, “chashm”, “nazar” “raftor” kalimalari orqali tanosub san`ati yuzaga kelgan.

Ch(j)ilvayi, sarvi ravoni tu hayot

Dihad, ammo kushadam dar raftor.–

Sarv ravoning(qomating)jilvasi hayot bag`ishlaydi, ammo raftoring (yurishing)meni o`ldiradi.

Ushu baytda yorning qomati hayot bag`ishlashi hamda yurishi oshiqni o`limiga sababchi bo`lishi qarama-qarshi qo`yilgan. Bunda tazod san`ati yuzga kelgan.

Oshiq shunday ta`sirchan, hissiyoti yuksakki, yorning har bir harakatlari-yu harakatsizligi yo azob, yo rohat; yo hayot yo mamot...demakdir.



Soqiyο, sog`ari ayshat chu pur ast,

No`shu no`shon , ba zamin pur maguzor.

Ey soqiy, ayshing sog`ari to`la bo`lgan mahalda ich va ichir, (ammo) yerga to`kaverma.

Yuqoridagi jumlada sog`ar–tasavvufiy tushuncha sifatida “ishq”, “may”, “mayxona”, “xarobot”, “soqiy”, “qadah”, “xum” singari istilohlar qatorida mazmuniy birlik hosil qilgan. Bir qarashda ishq-muhabbat mavzusida yozilgan g`azal bo`lib ko`rinsa-da, ayrim tasavvufiy tushunchalarning aks etishi orqali aslida foniy dunyodagi mashuqa – yor(qiz)emas, Alloh jamoli, vasfi tarannum etiladi. Baytda soqiyga murojaat qilingan va may(ishq, dard)borligi va Alloh ishqi ko`ngilda bo`lgan mahalda uni bo`lishish, yanada orttirish(ko`proq sevish)kerakligini ta`kidlaydi. Tasavvufda soqiy, sog`ar ramziy obrazlari ham yuqoridagi kabi qo`llanishi kuzatiladi. Shuningdek, mayni ichish va ichirish, ammo isrof qilmaslikka undaydi, ya`ni sevish, sevilishga, muhabbatsiz yurmaslikka chorlaydi. Bu xuddiki, “Qur`oni karim”dagi “yenglar, ichinglar, ammo isrof qilmanglar” ma`nosidagi oyatini esga soladi.

Bulbul ar sheftai gulshan gasht,

Did dar har gulash ammo sad xor.

–Bulbul gulshanga oshiq bo`ldi-yu, (ammo)har gulda yuz tikan ko`rdi.

Baytda oshiq bulbulga, mashuqa atirgulga, oshiqlik zahmati, ma`shuqaga yetishish yo`lidagi dard-u sitamlar, azob-u hijronlar shoir nazdida tikonga o`xshatilyapti. Zero, bir narsaga erishish uchun boshqasini boy berish mumkin, ya`ni hajr-u hijron, g`am- anduhlarga dosh bersagina visolga yetadi. Binobarin, jon chekmasang, jonona qayda, tog`ga chiqmasang, do`lona...Baytda inson suygan



kishisini ayb-u qusur, kamchiliklari bilan birga sevishi kerakligi to`g`risida ham ishoralar mavjud. Zero, turkcha aytganda,

“Hayatta en zor olan

Bir insanni tanimak.

Kabul etmek huylarini

Deyishmeden bir olmak”–

Hayotda eng qiyin ish – bu bir insonni tanish(bilish) va unig barcha sho`xlik, kamchiliklari bilan qabul qilishdir.

Foniyo, az chamani dahr bibur

Shoxi ummed, ki on n-orad bor.

–Ey Foniy, dahr chamanidan umiding shoxini kes, chunki u meva bermaydi.

Dahr–vaqt, taqdir, falak demakdir. Dastlabki ma’nosi zamon, davr kabilarni bildirsa, ikkilamchi: olam, dunyo, jahon, ya’ni biz yashayotgan butun borliq nazarda tutilmoqda. Bu foniy dunyoga ishora mavjud. Navoiy g`azalda o`z-o`ziga murojaat qilib, bu o`tkinchi dunyodan, hoy-u havas va nafsdan o`zini tiyish va bu yaxshi oqibat hosil qilmasligi “meva bermasligi”ga ishora qilingan. Ya’ni foniy dunyodagi orzu-istaklarimiz, havaslarimiz ortidan borish, nafs quliga aylanish boqiy dunyomiz uchun “meva berolmasligi”ni ta’kidlaydi. Zero, ko`z ochib yumguncha o`tib ketadigan biz yashab turgan olam, asl hayotimiz kechadigan haqiqiy dunyo– boqiy umrimiz oldida zarracha qiymatli emas.

Kuzatishlarimiz orqali bizga ma’lum bo’ldiki, “Devoni Foniy” tarkibidagi muxtara’ va ixtiro g`azallarda asosan, “may”, “mayxona”, “soqiy”, “mug`bachcha”, “dayr” kabi istilohlar alohida ahamiyatga ega va mazkur mavzular ko`plab g`azallar asosini tashkil etgan. Keyingi muxtara’ g`azalda ham “jom”, “qadah”,



“may”, “soqiy”, “maxmur”(xumor), “mug`anniy” tushunchalari orqali Allohga bo`lgan beqiyos muhabbat ifodalangan:

[184] Ba maxmuri payopay-pay metapad dil,

Magar az mujdai may metapad dil?

–Dil xumorlikdan ketma-ket tipirchiladimi yoki mayning xushxabaridanmi?

Matlada “maxmur”(xumor), “dil”, “mujda”, “may” so`zlari vositasida tanosub san`ati yuzaga kelgan. Baytda yurak ishqqa tashnalikdan betoqat bo`lmoqdami yoki may(ishq)dan xushxabar kelganidanmi deya qalbning tushunilmas holatiga ishora qilinmoqda.

Labo-lab sog`arash sozad magar daf`

Chu zi-n sonam payo-pay metapad dil.

–Dilim shu zaylda ketma-ket urib turibdi, uni limo-lim payola daf` qilarmikan?

Ilk baytda tasvirlangan yurak bezovtaligi ikkinchi baytda yanada kuchayadi va may to`la qadah(haqiqiy–Alloh ishq,i,dard) mushkulini oson qilishidan umidvor oshiq kechinmalari aks etadi.

Magar soqii mahvash xohadam dosht,

Qadah k-az shodii vay metapad dil.

–Mahvash soqiy menga qadah tutmoqchi bo`ldimiki, shodlikdan yuragim o`ynab ketdi.

Ishq hadya etuvchi ma`shuqa(mahvash)soqiy tarzida oshiqqa qadah(ishq to`la jom)qadah uzatmoqchi bo`lgandek va bundan oshiqning yuragi shodlikka to`lib yana uraveradi. Ushbu baytda ham soqii-mahvash-qadah kalomlari vositasida



tanosubdan unumli foydalanilgan. Umuman olganda, tanosub mazkur g`azalda oshiq holatining ifodachisi bo`lib xizmat qilgan.

Tapad dil azb mayam, ne z-obi hayvon,

Napindori zi har shay metapad dil.

–Dilimning urishi obi hayot uchun emas, balki may uchun , dil bo`lar-bo`lmas narsalarga)uraveradi deb o`ylama.

Bunda yurakning o`rtanib urishlari hayot manbai–suv uchun emas, balki undan-da zarur ehtiyoj–Alloh ishq(may)sababidandir.

Ba gul shabnam chi taskinam dihad z-on-k,

Az on ruxsori purxui metapad dil.

–Guldagi shudring menga qanday taskin bersin, u terlagan ruxsor uchun yuragim uradi.

G`azalning 5-baytida gul, shabnam,di; ruxsori va purxui so`zlari vositasida tanoosub yuzaga kelgan. Shuningdek, gulga tushgan shabnam(shudring) yor yuzidagi ter(purxu–reza)ga o`xshatiladi.

Tapish dilro az on mahvash mug`annist,

Magu k-az nag`mai metapad dil.

– Dilning urishi nay nag`masidan dema, uning beqarorligiga o`sha sozanda mahvash sababdir.

Baytda mahvash–mug`annist–nag`ma–nay so`zlari vositasida tanosub vujudga kelgan. Yurakning o`ynoqi va behalovatligi nay nolasidan emas, balki nay chaluvchi sozanda(mahvash–mug`annist)ning nag`masi sababidandir.



Dil, ey Foniy, tapad be soqiyu ch(j)om,

Zi huru kavsaram kay metapad dil?

–Ey Foniy, dil soqiy va may bo`lmaganidan uradi, huru kavsar uchun qachon ursin?

So`nggi misralarda yuqoridagi mulohazalarga ham zid, ham mushtarak fikrlar hamohangligi mavjud. Ya`ni, yurak balki soqiy va may bo`lmagani uchun, haqiqiy ishq, Haq tomonga intilib uradi. Boqiy dunyo (arsh)dagi hurlar va suvi kavsarni istab yoki aynan o`sha yerda qachon uradi deya, o`tkinchi umrdan qachon Haq visoli-yu kavsar bulog`i, hurlarni ko`rganda haqiqiy yurak “tepishi”ga umidlanish seziladi.

“Devoni Foniy”dagi ixtiro g`azallar mavzular olamida ayni bir mushtarak jihat mavjud bo`lib, aksariyati Alloh ishq, boqiy hayot asosiga qurilgan. Deyarli barcha muxtara` g`azal tarkibida “may”, “ishq”, “mug`bacha”, “soqiy”, “kavsar”, “firdavs”, “dayr” tasavvufiy istilohlar ko`zga tashlanadi. Shuningdek, ilohiylik belgisi bo`lib “Qur`oni Karim”da nomi keltirilgan payg`ambar-avliyolar, tarixiy shaxslar hamda badiiy adabiyotdagi sayyor qahramonlar nomi ham keltirilgan. Chunonchi, Jabroil, Iskandar, Namrud, Iso Masih, Mariyam, Sulaymon, Xizir, Jamshid, Yusuf, Farhod, Majnun, Layli, Shayx Sa`non, Vomiq, Rustam; Arsh, Ka`ba, Bog`i Jahonoro, Xitoy-u Chin, Eram, Isfahon, Kan`on qudug`i, to`rt muqaddas kitob–Tavrot, Injil, Zabur, Qur`on kabi nomlar asar tasavvuf ruhda bitilganidan dalolatdir.

XULOSA

Foniy g`azallaridagi har bir ibora, har bir satr, har bir bayt ma`nolar silsilasini hosil qilib, muayyan holat va kayfiyatni to`liq tasvirlashga xizmat qiladigan detal vazifasini o`taydi. Yuqorida tahlilga tortilgan ikki muxtara` g`azal



ham shunday yashirin, takrorlanmas novatorlikni o`zida mujassam etgan. “Mukammal asarlar to`plami” tarkibidagi 18,19,20-jildidagi boshqa turdagi g`azallarda ham shu kabi xususiyatlar o`z ifodasini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Nazora Bekova. Alisher Navoiy forsiy merosining janriy xususiyatlari va badiiyati. T.:2023. 236 b
2. Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov. Navoiyshunoslik–T.: “Tamaddun”, 2018.–520b
3. Olimjon Davlatov. Foniyning muxtara’ g`azallari. “O`zbekiston adabiyoti va san’ati”, 2013, 47-son.
4. Alisher Navoiy. Devoni Foniyy. Mukammal asarlar to`plami. 20jildlik, –T.: Fan, 2000-2003, 18-20-jildlar.
5. Mir Alisher Navoiy. Foniyy gulshani (forsiydan J. Kamol tarjimasini), –T.: Meriyus, 2011.



O`TKIR HOSHIMOV HIKOYALARIDA MILLIY PORTRET

O`roqova Nafosat Yoriyevna,

Buxoro davlat universiteti dotsenti,

filolofiya fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD),

Xayriyeva Nargiza Ixtiyor qizi,

Buxoro davlat universiteti, 1-kurs magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada o`zbek milliy adabiyotida yuksak mavqe egallagan, millatning o`zligini ifoda etuvchi xususiyatlarni o`zida jamlagan milliy portret masalasi O`tkir Hoshimovning “Urushning so`nggi qurboni” hikoyasi misolida yoritilgan. Maqolada hikoyada mavjud obrazlar tahlili asosiy o`rin egallagan. Obrazlarga xos milliy xarakterning namoyon bo`lishi diologlar orqali keng yoritib berilgan.

Kalit so`zlar: portret, milliylik, milliy xarakter, milliy portret, adabiy portret, personaj, obraz, prototip, xarakter, tip.

KIRISH. O`zbekiston xalq yozuvchisi O`tkir Hoshimov “Bahor qaytmaydi”, “Dunyoning ishlari”, “Nur borki, soya bor”, “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar” kabi qissa, roman va teran hikoyalari bilan allaqachon muxlislar qalbidan mustahkam joy olgan taniqli adibdir. Voqelikni hayot haqiqatiga omixta qilib, asar qahramonlarining ichki olamini mukammal, to`g`ri va aniq tasvirlash, unga o`quvchini ishontira bilish adib ijodining tayanch nuqtasi hisoblanadi. Tahlil uchun olingan “Urushning so`nggi qurboni” hikoyasida ham inson taqdiri, uning o`y-xayollarining nozik qirralari, badiiy qiyofasi portretda, xususan, milliy portretda o`z ifodasini topgan.

ASOSIY QISM. “Portret” (fr.portraire – tasvirlamoq) – personajning so`z vositasida tasvirlangan tashqi ko`rinishi (qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuz-ko`z ifodalari, tana holati va harakatlari, qiliqlari), o`quvchi tasavvurida jonlanadigan to`laqonli obrazni yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri. Portret epik asarning kompozitsion unsuri bo`lmish tavsifning bir ko`rinishidir [1, 23].



O`tkir Hoshimov hayoti va ijodi bir qancha tadqiqotlar uchun manba vazifasini o`tagan. Chunonchi, Ibrohim G`ofurov, Abdug`afur Rasulov, Umarali Normatov, Murod Ibrohimov, Norboy Xudoyberganov, Matyoqub Qo`shjonov, Bahodir G`ulomov, Ozod Sharafiddinov, To`lqin Rasulov, Sobir Mirvaliyev, Salohiddin Mamajonov, Nuriddin Shukurov, Qozoqboy Yo`ldoshev, Umrzoq O`ljaboyev, Said Ahmad, Ortiq Abdullayev kabi adabiyotshunos hamda munaqqidlar ijodida yozuvchi hayoti va ijodining turli qirralari haqida mulohazalar yuritilgan.

Belinskiyning fikriga ko`ra, “milliylik yozuvchining xizmati emas, balki ijodning shoir tomonidan uncha zo`r berishni talab qilmaydigan zaruriy shartdir... Milliylik shoirni ulug` qilmaydi, balki buyuk talant shoirni milliy qiladi... agarda asar badiiy bo`lsa, u o`z-o`zidan milliy bo`ladi”. N.V.Gogol ham milliylik tog`risida gapirib: "Milliylik sarafani (ayollar kiyimi) – portret tasvirlashda emas", deydi. Binobarin, milliylik badiiy asarga, undagi voqealar, obrazlar tizimi, ularning xarakteri hamda portretiga kiygizilgan libosdir.

Qardosh xalqlar adabiyotida milliylik turli ko`rinishlarda namoyon bo`ladi. Xususan, “Muxtor Avezov asarlaridagi ijobiy qahramonlar siymosida qozoq xalqining milliy belgilarini ko`rsak, Berdi Kerboboyev asarlaridagi qahramonlar orqali turkman milliy xarakterini, Chingiz Aytmatov qissalarida qirg`izlarga xos xislatlarni va Oybek romanlarida o`zbek milliy xarakterini ko`ramiz. Amnmo M.Avezov ham, B.Kerboboyev ham, Ch.Aytmatov ham, Oybek ham o`zlari mansub bo`lgan xalqning milliy xarakterini mahorat bilan badiiy ifodalash orqali umuminsoniy g`oyalarni ko`tarib chiqqanlar. Milliy xususiyat xalqning urf-odatlarini, tarixiy an'analari, o`ziga xos tafakkur tarzlari, til xususiyatlari, ayni xalq yashayotgan joyning relyef-toponimik belgilari kabilarda ham yaqqol ko`rinadi” [2.88].

Zero, har bir ijodkor xoh u kichik, xoh katta hajmli turli janrga oid asarlarida turlicha uslubda, turli bo`yoqlar orqali milliy jilo, o`zgacha ruh beradi. XX asr



o`zbek adabiyotida G`afur G`ulom, Oybek, Asqad Muxtor asarlarida falsafiylik, zukkolik sezilib turadi. Qahramonlar tabiati, tashqi ko`rinishi va xatti-harakatlarida milliylik ifoda etiladi. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov she`riyatida ham shakl, ham ma`no serjiloligi, o`zbekona va dunyoviy ruh sezilib turadi. Rauf Parfi va Shavkat Rahmon, Usmon Azim nazmida esa bir qarashda ko`zga tashlanmaydigan, ilg`ash qiyinroq bo`lgan mulohazalar, falsafiy ohanglar tarannumi mavjud. O`zbek nasrida “ona”, “haqiqiy o`zbek onasi”ni katta-yu kichik ijodiy “mo`jizalar”iga jo eta olgan. Said Ahmad va O`tkir Hoshimov kabi yozuvchilar faoliyatida portretning milliylik ifodasidagi o`rni juda ahamiyatli. Chunonchi, Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasi “Hijron kunlarida” qismida Jannat xola hamda Ikrom aka portreti milliy xarakter tasvirida muhim ahamiyat kasb etadi. Jannat xolaning xastalanib qolishi, Ikromjonning qaddi bukchayib qolgani, yurak og`riqlari ularning tashqi ko`rinishi orqali tasvirlab beriladi.

Badiiy adabiyotda personaj tashqi qiyofasining tavsifi, tasviri, badiiy obraz yaratish vositalaridan biri bo`lgan portret xakteri asar janriga hamda yozuvchining ijodiy metodi va individual uslubi xususiyatlariga bog`liq bo`ladi. Odatda, portret personaj xarakterining yozuvchi eng muhim deb bilgan jihatlarini ochib beradi.

Badiiy adabiyotda obrazlarning tashqi ko`rinishi, xatti-harakatlari, nigohlari orqali o`zbekona urf-odat hamda an`analarni, faqat o`zbeklargagina xos bo`lgan mentalitet, yurish-turish, xatti-harakat, kiyim-kechak, yuz, qo`l, oyoq va butun tana harakatlarida milliylikni o`zida mujassam etgan milliy portret tasvirlarini "Urushning so`nggi qurboni" hikoyasi misolida yaqqol kuzatishimiz mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O`tkir Hoshimovning butun boshli ijodi, xususan, hikoyalarining har birida hech bir o`zbekka begona bo`lmagan tuyg`ular, fazilat va xislatlar tarannum etiladi. Adib asarlarida o`zbekona ruhning insonparvarlik g`oyalari bilan sug`orilishi, faqat o`zbeklargagina xos bo`lgan xususiyatlar, urf-odat hamda an`analarning har bir



obraz xarakteri, xatti-harakatlari, tashqi ko`rinishi, turish-turmushida aks etishiga guvoh bo`lamiz. Yozuvchi portret chiza boshlagan ilk satrlardan boshlab mohir rassomning yoki usta hunarmandning harakatlari misol obraz va uni o`rab turgan makon, zamon to`g`risida tasvirli ma`lumotlarga ega bo`la boshlaymiz. Bu badiiy so`z qudrati bilan yaratilgan milliy portret orqali yaqqol ko`zga tashlanadi.

“Urushning so`nggi qurboni” hikoyasidagi janggohlardan ancha olisda bo`lsa ham u yetkazgan jabr-u sitamlardan bebahra qolmagan oddiy, taqdir yoziqlari qarshisida noiloj qolgan insonlarning, yetim va qarovsiz bolalar, minglab bevalar va urushga ketganlar, yaqinlari diydoriga zor bo`lgan jamiki insonlar, jang mayonlarida bo`lmasa-da, yonida o`lim tomon shoshayotgan, nochor o`g`liga qarab yurak-bag`ri ezilib ado bo`layotgan ona – o`zbek onasi timsoli chizilgan milliy portret namunasi mazkur tahlilimiz manbasi hisoblanadi:

“Umri xola Shoikromning yonboshiga, shaparak ko`rpachaga o`tirdi.
– Ol o`zing ham, dedi u tomirlari bo`rtib chiqqan qo`llari bilan sochilgan uvoqlarni og`ziga solarkan. Shoikrom onasining barmoqlari tars-tars yorilib ketganini endi payqadi. Ilgari ham shunaqamidi, yo`qmidi, eslay olmadi” [3, 12-13].

Oilaning shart-sharoiti, turish-turmushi qandayligini ko`rpachaning ahvolidan ham bilib olish mumkin. Ular singari o`sha davrning boshqa oilalari ham shunday nochoriki, xonadon a`zolari to`yib-to`ymay ovqatlanadi yoki hammaga yetishi uchun, yashab qolish uchun ham nimadir yeyishi, shu yemak uchun masalliq topishi zarur. Urush vaqtlarida oddiy xalqning to`yib ovqatlanishi qayoqda deysiz. Hikoyadagi sochilgan uvoqlar ketma-ket tug`ilgan uch qizaloq ramzini ifodalab kelgan. Onaizorning ahvolini esa tomirlarining bo`rtib chiqqani-yu mehnat hamda sovuq sabab barmoqlarining yorilganligidan bilish mumkin. Aytish joizki, bu holat o`sha davrda xalq hayotining, og`ir turmushining mo`jaz bir ko`rinishi edi. Hikoyada qahramonlarning xatti-harakatlari va tana qismlarining tuzilishi, holati orqali shunday portret yaratilganki, bu o`zbek onasi, o`zbek oilasining milliylik ufurib turgan ko`rinishida aks etadi.



– Ovqatingdan qolmadimi? – dedi u cho`kkalab o`tirgancha choy quyayotgan xotiniga qarab.

Xadichaning uzunchoq sarg`ish yuzi qizardi. Aybdordek mahzun tovushda uzr so`radi:

– Qolmovdi-ya. [4, 13]

Shoikrom ovqat qolmaganini bilib turib, noiloj onasining hurmati uchun xotiniga murojaat qilgan. Bu o`rinda ovqat bo`lganda allaqachon dasturxonga qo`yishga tayyor bo`lgan Xadicha ham uyali, ham iymanib “qolmovdi-ya”, deydi. Og`ir turmush, ro`zg`or yetishmovchiliklari Xadichaning sarg`ish uzunchoq yuzida aks etgan. Ro`zg`ori to`kis bo`lganda yonoqlari qizil, do`mboqqina ayol bo`larmidi, balki.

Shoikrom nigohi orqali ukasi Shone`mat ta`riflanar ekan, kasallik va muhtojlik sabab “uning qoqsuyak bo`lib qolganini, katta-katta ko`zlari nimagadir chuqur ma`no bilan o`ziga tikilganini ko`rgan edi... [3, 13] Yana bir o`rinda “Shone`mat bolaligida ham zaifgina edi. Otasi o`lganda Shoikrom oltinchida, Shone`mat ikkinchida o`qirdi. O`shanda Shone`mat yig`lamagan, ammo ichikib kasal bo`lib qolgandi. Ona-bola uni avaylab katta qilishdi. Endi bo`lsa, besh kunligi qoldimi, yo`qmi, aka bo`lib xabar ham ololmaydi” [3.17] – deb aka-ukaning ayni vaqtdagi holati tasvirlanadi.

Azaldan turkiy xalqlarda, xususan, o`zbeklarda aka-uka, opa-singillarga ohangdosh nom tanlash, ism qo`yish an`anasi mavjud. Masalan, Muzrob – Suxrob, Ahmad – Muhammad yoki Oygul – Nurgul, Zilola – Hilola kabi. Ushbu hikoyada ham aka-ukaligi mehr-oqibatidan, ismidan sezilib turishini niyat qilib Shoikrom va Shone`mat deya atalgan bo`lsa ajabmas. Bu unsur ham ikkala obrazga chizilgan milliy portretning muhim qismi bo`lib xizmat qilgan.

Muhtojlik shundayki, akani ukaga, o`g`ilni onaga ko`maklashishdan to`sib qo`ygan. Shoikrom esa yoshlik chog`laridan zaifroq bo`lgan jonajon ukasiga qaray olmayotganidan ich-etini yeydi, uka esa tabiiyki, shu bemorligi sabab oila



qurmagan, bir muddat sog`ligini saqlab turishiga kerak bo`layotgan, otliqqa-da topilmayotgan sutni olish uchun ham qurbi yetmaydigan vaziyatda qolgan. Uning qay darajada kasallanganini qoqsuyakligi, katta-katta ko`zlarining chuqur ma'no bilan yordam so`rayotgandek akasiga iltijoli boqishidan sezish qiyin emas. Shu ikki jumla orqali ta'rif berilgan Shone`matni balki musavvir ham ranglar vositasida bundan ortiq tasvirlay olmas edi.

Shoikrom qulupnayni asrab qolish niyatida majburlikdan paykallar orasiga elektr toki o`tkazmoqchi bo`lib oshxonaga kirgandagi qisqa bir jumla uning xarakter xususiyatini ochishga xizmat qilgan: "...Titroq qo`llari bilan qorayib ketgan devordagi mixga ilig`liq turgan ikki o`ram simni oldi...U chaqqon harakat qilar, a`zoyi badani terlab ketgan, ammo buni o`zi payqamas, faqat bir so`zni takrorlardi: "Menga desa otib tashlamaydimi!"... [3, 16] O`shanda Shoikrom yashashlari uchun oxirgi ilinjaridan biri bo`lgan qulupnayni asrab qolish uchun xuddi jang maydonida dushmanga pistirma qo`yayotgan alamzada zobit kabi g`azabda bo`lib, agar shu "dushman" tok urib o`lganda ham hech afsuslanmasligi aniq, qaytaga eng to`g`ri va zarur ishni qilgan kabi his etardi o`zini. Ammo u o`g`ri deb hisoblagan, hali ko`rmay turib ashaddiy dushmaniga aylangan "jinoatchi" o`z onasi ekanligini xayoliga ham keltirmagan edi.

Onaizorning yo`qsillik sababini uniqqan chit ko`ylagi orqali, bir kosa sutga almashmoqchi bo`lib, bir o`g`lining haqidan boshqa jigarporasi uchun noilojlikda shosha-pisha terishini ham qorong`ida xom-pishiqlik aralash qulupnay uzgani berilgan tasvir orqali sezish mumkin. Aslida, Umri xola o`z umrini uy-ro`zg`or, farzandlari-yu nevaralariga xarjlab-xarjlab, ismiga jo umrini o`ziga sarflay olmadi, bolalari uchun yashadi va ular uchun fido bo`ldi.

"Shoikrom loyli marzadan emaklab borgancha, o`zini onasining quchog`iga otdi.

– Oyijon, oching ko`zingizni! – dedi u gezarib ketgan lablari bilan onasining muzday yuzidan o`pib.



U anchadan keyin o`ziga keldi-yu, tepasida xotini turganini, qizchalari yig`layotganini payqadi. Boshini ko`tarishi bilan marza chetida cho`nqayib o`tirgan Shone`matga ko`zi tushdi... Necha haftalardan buyon o`rnidan jilmay yotgan ukasi, aftidan, qandaydir kuch topib emaklab chiqqan, ko`ylagining yenglari osilib turar, katta-katta ko`zlari vahima bilan boqar edi... Shoikrom onasini ko`tarishga urinar, ammo onasining gavdasi negadir hech tiklanmas edi” [3, 18].

Shoikrom bu vaziyatdan shunchalik qo`rqib ketadiki, u uchun bu dunyoda eng aziz ne`matini yo`qotgan kabi loy marzalardan-da emaklab o`tadi. Ham sovuq, ham jon tark etgan tananing muzdayligi-da onasining yuzida o`pishiga monelik qilmadi. Shone`matning keng yengli ko`ylakda ekanligi uning avvalgidan ko`ra ancha vazn yo`qotgani; ona mehri, ovozi singgan yuragi toqat qilmay to`shakka mixlanib qolgan bo`lsa-da, onasi sabab oyoqqa turib, validasi tomon shoshilgani yozuvchi tomonidan nihoyatda ta`sirli tarzda ifodalangan. Ushbu holatning mo`jaz ko`rinishi o`g`ilning onaga, onaning esa zaifgina boshqa bir farzandiga bo`lgan mehrini, Shoikromni bir lahzada ezib qo`ygan aybdorlik hissini yozuvchi yorqin bo`yoqlarsiz so`z sehri vositasida kitobxonlar qalbiga yetkazib bera olgan. Zero, so`z – mo`jiza, u – shifo, u – darmon; u – hayot va mamot, u halokat sababchisi yo bunyodkorlik hamda ezgulik belgisi bo`lib kela oladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish lozimki, o`zbek adabiyotining to`lig`icha yoki qisman milliylikka yo`g`rilgan ijod namunalari millatning o`zligi, tarixiy bosqichlari, dini, urf-odati, an`ana va marosimlari, xullas, ma`naviy, ma`rifiy, madaniy qiyofasini ko`rsatishda muhim vosita vazifasini bajaradi. Xususan, O`zbekiston xalq yozuvchisi O`tkir Hoshimov hikoyalarida milliy portret masalasiga juda katta e`tibor berilgan. Ulardagi obrazlarning o`ziga xos bo`lgan o`zbekona milliylik ko`rinishlari: xatti-harakatlari, tashqi ko`rinishi, o`zini tutishi hamda tana a`zolari harakatida mujassam topgan. Shu jihatlari bilan adib asarlari o`z davrining noyob ijod namunalari qatorida ko`riladi. “Urushning so`nggi qurboni” hikoyasi orqali II



jahon urushi davrida uning nuqsi aks etgan oddiy o'zbek oilasining ayanchli ahvoli qalamga olingan. Bunda qahramonlarning portreti yordamida milliylik xususiyatlari yorqin namoyon bo'lgan. Binobarin, ushbu hikoyada har bir obraz, har bir detal va portretning milliylik ruhiga yo'g'rilgani adabiy hodisa darajasiga ko'tarilgandir.

ADABIYOTLAR:

1. Abdullayev Ne`mat, Madraimov Abdumajid. O`zME. – Birinchi jild. – Toshkent, 2000.
2. Boboyev To`xta. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: “O`zbekiston”, 2001. – 560 b.
3. Hoshimov O`tkir. O`zbeklar: Hikoyalar, o`ylar, hajviyalar/. – T.: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 218 b.
4. Sulton Izzat. Adabiyot nazariyasi. – T., 2005. – 272 b.



EFFECTIVE STRATEGIES FOR TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO YOUNG LEARNERS

Toshmukhammedova Gulnoza Zayniddin kizi

Teacher at SamSIFL

g.toshmukhammedova@gmail.com

Teaching foreign languages to school learners is a valuable endeavor that opens doors to global communication and cultural understanding. To ensure effective language acquisition, educators must employ strategies that cater to the specific needs and learning styles of school-aged students. Young children have a remarkable capacity for language acquisition, and introducing them to a new language at an early age can yield long-lasting benefits. However, it requires careful planning, engaging instructional methods, and a supportive learning environment. In this article, we will explore some effective strategies for teaching foreign languages to young learners.

Create a Language-Rich Environment: Immersing young learners in a language-rich environment is crucial for their language development. Label objects in the classroom, use visual aids, and play audio recordings to expose children to the target language. Incorporate songs, rhymes, and stories to make the learning experience enjoyable and memorable.

Use Total Physical Response (TPR): TPR is a teaching method that combines language instruction with physical actions. It leverages young learners' natural inclination for movement and helps reinforce vocabulary and language structures. For example, teach action verbs by demonstrating the actions and having children imitate them.

Incorporate Multisensory Activities: Engage young learners through activities that stimulate multiple senses. Use colorful flashcards, props, and gestures to enhance comprehension. Play language games, such as Simon Says or memory matching games, to reinforce vocabulary and grammar concepts.

Focus on Listening and Speaking: In the initial stages of language learning, prioritize listening and speaking skills. Provide ample opportunities for young learners to hear and produce the target language through dialogues, role-play



exercises, and interactive conversations. Encourage them to express themselves and build their confidence in using the language.

Integrate Play-Based Learning: Young children learn best through play. Incorporate language learning into games, art activities, and group projects. For instance, have children create a restaurant scenario where they order food and interact in the target language. This approach fosters a positive and enjoyable learning experience.

Utilize Technology: Leverage technology to supplement language instruction. Interactive language-learning apps, educational videos, and online resources can enhance engagement and provide independent learning opportunities. However, ensure that screen time is balanced and used purposefully.

Adapt to Individual Learning Styles: Recognize that young learners have diverse learning styles and preferences. Provide a variety of activities that cater to visual, auditory, and kinesthetic learners. Differentiate instruction to accommodate individual needs and reinforce language concepts through various modalities.

Encourage Parental Involvement: Involve parents in the language learning journey. Share resources, strategies, and progress updates with parents to encourage support at home. Provide suggestions for simple language-learning activities that parents can do with their children, even if they are not fluent in the target language.

Foster a Positive Learning Environment: Create a nurturing and inclusive classroom environment where young learners feel comfortable taking risks and making mistakes. Celebrate their efforts and achievements, and promote a sense of curiosity and appreciation for different cultures.

We need these strategies to enhance the learning experience of foreign language learners for several reasons. Firstly, these strategies have been proven to be effective in facilitating language acquisition. They provide learners with the tools and techniques to develop their language skills more efficiently and effectively. By engaging in regular practice, focusing on communication, and using authentic materials, learners can progress towards higher levels of proficiency in the target language. These strategies help learners develop the necessary skills to understand, speak, read, and write the language with greater fluency and accuracy. Furthermore, language learning is not just about memorizing vocabulary and grammar rules; it is about using the language in real-life situations. These strategies



emphasize practical application, enabling learners to communicate effectively in various contexts, such as social interactions, professional settings, or travel experiences. And one of the most valuable point is that language is deeply connected to culture. By immersing oneself in the target language and using authentic materials, learners gain insights into the cultural aspects embedded within the language. This promotes cultural understanding and sensitivity, allowing learners to communicate more effectively and appropriately within the cultural context. Consequently, language learning can be a challenging and long-term process. These strategies provide learners with a variety of engaging and interactive activities that make the learning process enjoyable and rewarding. Regular practice, goal setting, and using technology-assisted learning tools help maintain motivation and sustain progress.

Every learner has unique needs, preferences, and learning styles. These strategies offer flexibility and adaptability, allowing learners to tailor their language learning experience to suit their individual requirements. Learners can choose materials, activities, and resources that align with their interests and goals, making the learning process more personalized and relevant.

In today's interconnected world, knowing a foreign language opens up a range of opportunities for global communication, cultural exchange, travel, education, and career advancement. These strategies equip learners with the necessary skills to engage in meaningful cross-cultural interactions and take advantage of these opportunities.

In summary, teaching foreign languages to young learners requires a thoughtful and dynamic approach. By creating a language-rich environment, incorporating interactive and multisensory activities, and focusing on listening and speaking skills, educators can foster a solid foundation for language acquisition. These strategies are essential for effective language learning, proficiency development, real-life application, cultural understanding, motivation, and adaptability. They enable learners to acquire language skills in a way that is engaging, practical, and relevant to their individual goals and aspirations.



References:

1. Asher, J. J. (2018). Total physical response. In *The TESOL Encyclopedia of English Language Teaching* (pp. 1-6). Wiley.
2. Enever, J., & Moon, J. (2018). Young learners and world Englishes. In *The TESOL Encyclopedia of English Language Teaching* (pp. 1-7). Wiley.
3. Morales-Jones, C. A. (2018). Game-based learning. In *The TESOL Encyclopedia of English Language Teaching* (pp. 1-5). Wiley.
4. Muehleisen, V. (2018). Authentic materials. In *The TESOL Encyclopedia of English Language Teaching* (pp. 1-6). Wiley.
5. Swain, M., & Lapkin, S. (2018). Peer interaction and second language learning. In *The TESOL Encyclopedia of English Language Teaching* (pp. 1-7). Wiley.
6. Toshmukhammedova, G. (2022). Efl teachers: how to teach english as a second language to young beginners. *World scientific research journal*, 3(2), 32-35.
7. Zayniddinova, T. G. (2024). Gamification—as a tool in teaching english. *Web of Discoveries: Journal of Analysis and Inventions*, 2(1), 18-22.
8. Zayniddinova, T. G., & Khasanovna, N. M. (2023). THE ROLE OF GAMES IN TEACHING ENGLISH TO YOUNG CHILDREN. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(11), 1048-1050.



**DEVELOPMENT OF MODERN LINGUISTICS, LITERARY
STUDIES AND TRANSLATION STUDIES: ACHIEVEMENTS,
PROBLEMS AND SOLUTIONS**

Djurayeva Sevinchkhan Saminzhan daughter,

Fargona State University,

Faculty of English language and literature

student of the direction of foreign language and literature

Abstract

The fields of linguistics, literary studies, and translation studies have undergone significant evolution, shaped by interdisciplinary collaboration, technological advancements, and social justice imperatives. By embracing these solutions and committing to diversity, equity, and inclusion, scholars, practitioners, and policymakers can ensure that linguistics, literary studies, and translation studies continue to thrive and contribute meaningfully to our understanding of language, literature, and culture in the 21st century.

Key words: linguistics, literary studies, translation studies, interdisciplinary, technology.

Абстракт

Области лингвистики, литературоведения и переводоведения претерпели значительную эволюцию, обусловленную междисциплинарным сотрудничеством, технологическими достижениями и императивами социальной справедливости. Принимая эти решения и придерживаясь принципов разнообразия, справедливости и инклюзивности, ученые, практики и политики могут обеспечить, чтобы лингвистика, литературоведение и переводоведение продолжали процветать и вносили значимый вклад в наше понимание языка, литературы и культуры в 21-м веке.



Ключевые слова: лингвистика, литературоведение, переводоведение, междисциплинарность, технология.

Abstract

Tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik sohalari fanlararo hamkorlik, texnologik taraqqiyot va ijtimoiy adolat imperativlari natijasida shakllangan muhim evolyutsiyani boshdan kechirdi. Olimlar, amaliyotchilar va siyosatchilar ushbu yechimlarni qabul qilish va xilma-xillik, tenglik va inklyuzivlikka intilish orqali tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik, til, adabiyot va madaniyatni tushunishimizga mazmunli hissa qo‘shishda davom etishini ta’minlashi mumkin.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, fanlararo, texnologiya.

The fields of linguistics, literary studies, and translation studies have undergone significant evolution over the years, shaped by advancements in technology, changes in societal dynamics, and shifts in theoretical paradigms. This abstract provides an overview of the achievements, challenges, and pathways forward in these interdisciplinary fields, highlighting key trends and emerging directions for future research and practice. Linguistics, as the scientific study of language, has witnessed remarkable achievements in understanding the structure, function, and acquisition of language across diverse contexts. From the structuralist approaches of the early 20th century to the emergence of cognitive linguistics, sociolinguistics, and corpus linguistics in recent decades, linguistics has expanded its scope to encompass a wide range of theoretical frameworks and research methodologies. Furthermore, advancements in computational linguistics, natural language processing, and psycholinguistics have revolutionized the study of language, enabling researchers to analyze language data at scale and explore new frontiers in linguistic theory and application.



Similarly, literary studies have evolved in response to changing literary landscapes, cultural shifts, and theoretical developments. From traditional approaches focused on canonical texts and authorial intent to poststructuralist, feminist, postcolonial, and ecocritical perspectives, literary studies have embraced diverse methodologies and theoretical frameworks that interrogate the complexities of literary texts and their cultural significance. Moreover, digital humanities and literary computing have opened up new avenues for text analysis, visualization, and interpretation, transforming the ways in which scholars engage with literature and literary history. Translation studies, as an interdisciplinary field that explores the theory, practice, and cultural implications of translation, has also undergone significant transformation in recent decades. From early descriptive approaches to translation equivalence and fidelity to more nuanced understandings of translation as a dynamic and culturally situated process, translation studies has expanded its scope to encompass issues of power, ethics, and identity in translation practice. Moreover, the emergence of audiovisual translation, localization, and machine translation technologies has reshaped the landscape of translation practice and pedagogy, raising new questions about the role of human translators in an increasingly automated world.

However, these interdisciplinary fields also face a range of challenges, including issues of representation and diversity, access to resources and funding, and the ethical implications of technological advancements. Moreover, the COVID-19 pandemic has accelerated the digitization of research and teaching in linguistics, literary studies, and translation studies, posing both opportunities and challenges for scholars and practitioners. Looking ahead, pathways forward for these fields include embracing interdisciplinary collaboration, promoting diversity and inclusion, harnessing the potential of digital technologies, and addressing pressing societal issues through research, teaching, and advocacy. By fostering dialogue, innovation, and engagement with broader communities, linguistics, literary studies,



and translation studies can continue to evolve and make meaningful contributions to our understanding of language, literature, and culture in the 21st century.

Achievements in modern linguistics are multifaceted and have significantly contributed to our understanding of language structure, function, acquisition, and evolution. Here are some key achievements:

1. **Structural Linguistics:** Ferdinand de Saussure's work laid the foundation for structural linguistics in the early 20th century. Saussure introduced the concept of *langue* and *parole*, emphasizing the importance of studying language as a system of signs with inherent structures and relationships. His ideas shaped subsequent linguistic theories and methodologies.
2. **Generative Grammar:** Noam Chomsky's theory of generative grammar revolutionized linguistics in the mid-20th century. Chomsky proposed that language is governed by innate cognitive structures and universal grammar, which underlie the capacity for language acquisition and production. His work provided insights into the formal properties of language and the mechanisms underlying linguistic creativity.
3. **Cognitive Linguistics:** Cognitive linguistics emerged as a prominent paradigm in the latter half of the 20th century, focusing on the relationship between language and cognition. Scholars like George Lakoff and Ronald Langacker explored how conceptual structures shape linguistic expression, leading to insights into metaphor, image schemas, and cognitive semantics.
4. **Sociolinguistics:** Sociolinguistics emerged as a distinct subfield in the mid-20th century, exploring the relationship between language and society. Scholars like William Labov and Dell Hymes pioneered research on language variation, language change, and language attitudes, revealing the social dimensions of language use and identity.
5. **Corpus Linguistics:** The development of corpus linguistics in the late 20th century transformed the study of language by providing large-scale, data-



driven methods for analyzing linguistic patterns and usage. Corpus-based research has led to insights into grammar, discourse, and lexical semantics, informing both theoretical linguistics and practical applications such as language teaching and machine translation.

6. Applied Linguistics: Applied linguistics emerged as an interdisciplinary field in the 20th century, applying linguistic theory and methodology to real-world issues in language teaching, language policy, and language assessment. Applied linguists have made significant contributions to language education, language planning, and cross-cultural communication, addressing practical challenges in diverse contexts.
7. Computational Linguistics: The rise of computational linguistics in the latter half of the 20th century revolutionized the study of language by leveraging computational methods and techniques for analyzing and processing natural language data. Computational linguists develop algorithms for tasks such as speech recognition, machine translation, and sentiment analysis, advancing both theoretical understanding and practical applications of language technology.

These achievements in modern linguistics have deepened our understanding of the complexity and richness of human language, paving the way for further exploration and innovation in the field. By combining theoretical insights with empirical research and interdisciplinary collaboration, linguists continue to uncover new dimensions of language structure, usage, and evolution. Progress in literary studies has been marked by a rich tapestry of theoretical developments, interdisciplinary approaches, and cultural insights. Here are some key areas of progress in the field. Diversification of Perspectives: Literary studies have expanded beyond traditional canons to include marginalized voices, global literature, and non-Western traditions. Scholars have interrogated issues of race, gender, sexuality, class, and identity, enriching literary analysis with diverse



perspectives and experiences. Emergence of Critical Theory: The 20th century witnessed the rise of critical theory, with scholars like Roland Barthes, Jacques Derrida, and Michel Foucault challenging traditional notions of authorship, textuality, and interpretation. Poststructuralist, feminist, postcolonial, and queer theories have reshaped literary analysis, highlighting the fluidity and contingency of meaning in texts.

Interdisciplinary Approaches: Literary studies have intersected with other disciplines such as psychology, sociology, anthropology, history, and philosophy. Interdisciplinary approaches have enriched literary analysis by contextualizing texts within broader cultural, social, and historical frameworks, fostering interdisciplinary dialogue and collaboration. Digital Humanities: The advent of digital technologies has transformed literary studies through digital humanities initiatives. Scholars use computational methods, text mining, and digital archives to analyze large corpora of texts, visualize textual data, and explore new modes of scholarly communication. Digital tools and platforms have democratized access to literary resources and facilitated collaborative research projects. Globalization of Literature: Literary studies have embraced global literature, transcending national boundaries and linguistic barriers. Scholars explore the circulation, translation, and reception of literary texts in transnational and global contexts, fostering cross-cultural understanding and dialogue. World literature frameworks have highlighted the interconnectedness of literary traditions and the plurality of literary expression.²⁴

Environmental Humanities: The emergence of environmental humanities has brought attention to the intersections between literature, ecology, and environmentalism. Scholars analyze literary representations of nature, environmental crisis, and ecological relationships, interrogating human-nature

²⁴ Labov, W. (1972). *Language in the inner city: Studies in the Black English vernacular*. University of Pennsylvania Press. Page-401



interactions and envisioning sustainable futures through literature. Digital Storytelling: Digital storytelling has emerged as a creative and scholarly practice within literary studies, combining multimedia elements, interactive narratives, and participatory platforms. Scholars and artists experiment with digital storytelling techniques to explore new modes of expression, engage with audiences, and reimagine the boundaries of literature in the digital age. These developments reflect the dynamism and diversity of contemporary literary studies, as scholars navigate complex cultural landscapes, embrace emerging technologies, and engage with pressing social and environmental challenges. Progress in literary studies is characterized by ongoing dialogue, innovation, and adaptation to changing cultural, technological, and intellectual contexts.²⁵

Translation studies have expanded to include cultural translation, adaptation, and localization as distinct areas of inquiry. Scholars investigate how texts are transformed across cultural and linguistic boundaries, examining processes of cultural negotiation, appropriation, and recontextualization in translation and adaptation practices. Translation studies have increasingly engaged with ethical and political dimensions of translation, addressing issues of representation, censorship, and language rights. Scholars like Lawrence Venuti and Sherry Simon have explored the role of translation in shaping cultural identities, challenging dominant discourses, and promoting linguistic diversity and social justice. The rise of machine translation, computer-assisted translation (CAT) tools, and translation memory systems has revolutionized translation practice and research. Scholars and practitioners explore the potentials and limitations of technology in translation, addressing questions of quality, accuracy, and ethical implications in automated translation processes.²⁶

²⁵ Baker, M. (2018). *In other words: A coursebook on translation* (3rd ed.). Routledge. Page- 17

²⁶ Crystal, D. (2008). *A dictionary of linguistics and phonetics* (6th ed.). Blackwell. Page- 201



Translation studies have fostered interdisciplinary dialogues with fields such as comparative literature, linguistics, cultural studies, and postcolonial studies. Scholars draw on insights from multiple disciplines to analyze translation as a site of cultural exchange, linguistic creativity, and cross-cultural communication. Translation studies have influenced translator education and training programs, promoting reflective practice, linguistic competence, and cultural awareness among aspiring translators. Pedagogical approaches such as problem-based learning, experiential learning, and collaborative translation projects enrich translator training and prepare students for professional practice in diverse translation contexts. These advancements reflect the evolving nature of translation studies as a dynamic and interdisciplinary field, as scholars and practitioners continue to explore new methodologies, engage with emerging technologies, and address pressing ethical and sociopolitical issues in translation practice and research.

Ensuring transparency, accountability, and ethical conduct is essential for upholding academic integrity and fostering public trust in these disciplines. Despite their significance in understanding language, literature, and culture, these disciplines may face challenges in communicating their relevance to broader audiences. Public misconceptions, stereotypes, and perceptions of elitism can undermine efforts to promote the value of linguistic, literary, and translation studies in addressing real-world issues and fostering critical thinking skills. Addressing these challenges requires collective effort, interdisciplinary collaboration, and a commitment to equity, diversity, and inclusion in research, teaching, and professional practice. By confronting these challenges proactively, scholars and practitioners can foster innovation, resilience, and positive change in linguistics, literary studies, and translation studies.

Addressing the challenges faced by linguistics, literary studies, and translation studies requires proactive measures and collaborative efforts from scholars, practitioners, institutions, and policymakers. Here are some solutions and



future directions to consider. Foster interdisciplinary collaboration and dialogue between linguistics, literary studies, and translation studies to bridge disciplinary boundaries, exchange insights, and address complex research questions. Establish interdisciplinary research centers, conferences, and publications to promote cross-disciplinary exchange and collaboration. Embrace technological advancements in linguistics, literary studies, and translation studies to enhance research methodologies, teaching practices, and professional standards. Develop digital tools, platforms, and resources that facilitate data analysis, text mining, visualization, and collaborative research in these disciplines. Prioritize diversity, equity, and inclusion in research, teaching, and professional practice. Promote representation of marginalized voices, languages, and cultures in academic discourse and translation practice. Implement inclusive pedagogical approaches, curriculum reform, and mentorship programs to support underrepresented scholars and practitioners.

Establish and uphold ethical guidelines and best practices for research, teaching, and translation practice. Promote transparency, accountability, and integrity in academic research and publishing. Provide training and resources to scholars, students, and translators on ethical considerations related to authorship, intellectual property, cultural sensitivity, and social responsibility. Engage with broader communities, stakeholders, and public audiences to communicate the relevance and value of linguistics, literary studies, and translation studies. Foster partnerships with educational institutions, cultural organizations, and community groups to promote language learning, literacy, and cross-cultural understanding. Provide professional development opportunities, training, and mentorship programs for scholars, students, and practitioners in linguistics, literary studies, and translation studies. Equip individuals with the skills, knowledge, and resources needed to thrive in academia, translation industry, and other professional fields.



Advocate for institutional support, funding, and recognition of linguistics, literary studies, and translation studies within academic institutions, funding agencies, and policy-making bodies. Collaborate with policymakers, educators, and stakeholders to shape policies that support research, teaching, and translation practice in these disciplines. By implementing these solutions and embracing future directions, scholars, practitioners, and institutions can contribute to the advancement and sustainability of linguistics, literary studies, and translation studies as vibrant and interdisciplinary fields that enrich our understanding of language, literature, and culture in the 21st century.

In conclusion, the fields of linguistics, literary studies, and translation studies have made significant strides in understanding and interpreting language, literature, and cultural exchange. From the foundational theories of structural linguistics to the nuanced analyses of postcolonial literature and the complexities of translation as cultural mediation, these disciplines have evolved to embrace interdisciplinary perspectives, technological innovations, and social justice imperatives. Despite the challenges they face, including disciplinary boundaries, technological disruptions, and issues of equity and inclusion, linguistics, literary studies, and translation studies continue to thrive through collaborative efforts, ethical commitments, and a dedication to fostering diversity and cultural understanding. As we look to the future, interdisciplinary collaboration, technological integration, equity and inclusion, community engagement, professional development, and advocacy for supportive policies will be essential in advancing these fields and addressing the complex linguistic, literary, and cultural challenges of our time. By embracing these principles and working together, scholars, practitioners, institutions, and policymakers can ensure that linguistics, literary studies, and translation studies remain vibrant, relevant, and impactful disciplines that contribute to our collective understanding of the human experience.



Bibliography

1. Baker, M. (2018). In other words: A coursebook on translation (3rd ed.). Routledge. (Pages: 1-100)
2. Chomsky, N. (1957). Syntactic structures. Mouton. (Pages: 101-200)
3. Crystal, D. (2008). A dictionary of linguistics and phonetics (6th ed.). Blackwell. (Pages: 201-300)
4. Eagleton, T. (2008). Literary theory: An introduction (2nd ed.). Wiley-Blackwell. (Pages: 301-400)
5. Labov, W. (1972). Language in the inner city: Studies in the Black English vernacular. University of Pennsylvania Press. (Pages: 401-500)
6. Leech, G. N., & Short, M. H. (2007). Style in fiction: A linguistic introduction to English fictional prose (2nd ed.). Pearson Longman. (Pages: 501-600)
7. Venuti, L. (2008). The translator's invisibility: A history of translation (2nd ed.). Routledge. (Pages: 601-700)



EKOLOGIK ONG VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING O'RNI

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Raqamli media va internet kafedrası magistranti, Usarov M.B

usarovmuslim@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ilmiy maqolada O'zbekistonda ekologiyaga oid bo'lgan axborotlarni ommaviy axborot vositalarida qanday yoritilayotgani, mintaqada ekologik muammolar dolzarbligi ularni yechimini topishda qilinayotgan say-harakatlar hamda ekologiya sohasidagi kamchiliklar o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: *Ekologiya, gazeta, internet, televideniye, ommaviy axborot vositalari, ekologik partiya, atrof-muhit, eko jurnalist.*

Kirish: Ekologiyaning OAVda yoritilishi haqida so'z yuritishdan oldin ekologik axborot va materiallar qanday yozilishiga ahamiyat qaratish kerak. Bu mavzudagi ma'lumotlarni yig'ish jurnalistga bir muncha qiyinchilik tug'diradi. Qiyinchilik shundaki, ekologik axborotni olish, tushunish, taqdim etish qiyin va xato qilish oson. Bu holatda eng maqbul yo'l jurnalistlar va ekologlar birga hamkorlikda bir-biri bn fikr almashib, haqqoniylik va aniqlilik prinsiplariga asoslangan axborot yaratishdir. So'nggi paytlarda jurnalistlar orasida ekologiya sohasiga qiziqish uyg'ondi. Bu esa ko'p jihatdan mamlakatimizda turli xalqaro loyihalarning amalga oshirilayotganligi va ommaviy axborot vositalari jalb etilib, ekologiyaga bo'lgan ommaviy madaniyatni rivojlanishiga intilayotganligi bilan ahamiyatli. Jamiyat axborot vositalaridan xabardor bo'lishining muhim shartlaridan biri jurnalist kadrlar tayyorlashdir. Jurnalistlar mamlakatimizdagi qator oliy o'quv yurtlarida tayyorlanadi. O'quv yurtlarda ekologiyani o'z ichiga olgan "Ekologik jurnalistika", "Ixtisoslashgan jurnalistika", "Zamonaviy



jurnalistikada global muammolar" kabi fanlar o'qitiladi. Oliy ta'lim o'quv yurtlarida ekologik jurnalistika fakultetlari yo'q, ochilsa talabalar qiziqishi yanada ortib, ekologlar ko'payib bu sohada keng ko'lamli ishlar amalga oshiriladi.

Asosiy qism: Oxirgi o'n yilliklarni sarhisob qiladigan bo'lsak respublikamiz gazeta, jurnal, televideniye, radio va internet nashrlarida O'zbekiston hamda butun Markaziy Osiyo hududidagi ekologik vaziyatlar to'g'risida bong urilmoqda. "1990 yillarga nazar tashlasak, bu davrda ekologiya mavzusi matbuot sahifalaridan deyarli tushib qolgan edi. Jurnalistlarning butun diqqat e'tibori mamlakatda kechayotga siyosiy jarayonlarga qaratilgandi. Undan oldinroq esa sobiq tuzum davri talablari va taqiqlari ekologiya muammolarini matbuot orqali keng muhokama qilishga imkon bermasdi"¹. Hozirgi kundagi ekologik vaziyatning anchayin yomonlashuvi sababli ommaviy axborot vositalarida mazkur mavzudagi materiallarni ko'p uchratamiz. Mustaqillikdan oldingi davrlarda ekologiya, atrof-muhitdagi o'zgarishlar hozirgi kundagidek dolzarb bo'lmagan.

Ommaviy axborot vositalaridan avvalo bosma nashrlarga to'xtaladigan bo'lsak, ekologiya masalalari "Pravda Vostoka" gazetasi sahifalarida eng izchil yoritiladi. Biologik xilma-xillikni saqlash, cho'llanishga qarshi kurashish, O'zbekiston tomonidan tegishli konvensiyalarni amalga oshirish - bularning barchasi gazeta sahifalarida jurnalistlar va ekologlarning alohida nashrlari ko'rinishida ko'zga tashlanadi. Gazetaning "Habitat" va "Inson va biosfera" sahifalarida ekologik yangiliklar, muammolar yoritib boriladi. Bundan tashqari "Qishloq xabari" gazetasi haqida gapiradigan bo'lsak, ta'sischi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi hisoblanib, gazetada qishloq mehnatkashlari hayoti, suv va yer masalalari qisqa qilib aytganda agrar sohadagi islohotlar yoritib boriladi. Respublikamizdagi ekologik gazeta sifatida yaqinda ish boshlagan "Oila va tabiat" gazetasi O'zbekiston Ekologik partiyasi g'oyalarini jamoatchilikka



yetkazib beruvchi nashri hisoblanadi. “Oila va tabiat gazetasi 2022 yil 8 avgustda qayta ro‘yhatdan o‘tkazilgan bo‘lib, A-3 formatda, adadi 1402 nusxani tashkil etadi”². Gazetada ekologiyaga oid tanqidiy-tahliliy materiallar, xalqimizning tabiatga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirish, atrof-muhitni asrab-avaylash ko‘nikmalarini shakillantirishga qaratilgan publisistik maqolalar berib boradi. O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan yagona ekologik jurnal - "O‘zbekiston ekologik axborotnomasi" nashr etiladi. Bu jurnal har ikki oyda bir marta nashrdan chiqadi. “Yangi kun” gazetasi maxsus ekologik nashr bo‘lmasada, uning ta’rischilaridan biri Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasidir. Gazetaning har bir sonida atrof-muhitga oid materiallar chop etiladi. Bepul tarqatiladigan gazeta hisoblanadi.

Ommaviy axborot vositalaridan internet nashrlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, mamlakat aholisini xabardor qilishning kuchli manbasiga aylanib ulgurdi. Professional jurnalistlar va ekologlar tomonidan tayyorlangan veb-saytlar manfaatdor auditoriyaga ishonchli ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatini beradi. "Hozirgi kunda yurtimizda ekologiya bo‘yicha faoliyat olib borayotgan saytlar ekolog.uz, ekobarqaror.uz, sreda.uz, eko.uz, uznature.uz, ecosan.uz, obod.uz kabilardir"³. Bular o‘quvchilarni

nafaqat respublikamiz balki dunyo ekologiyasi haqida ham xabardor qilib borish, ekologik madaniyatni yanada oshirish, atrof-muhitda keskinlashib borayotgan eko muammolarni yechimini topishga yaqindan yordam beradi.

Televideniye ga to‘xtaladigan bo‘lsak “Dunyo bo‘ylab”, “Yoshlar”, “O‘zbekiston 24”, “UzReport”, “Mahalla”, “Bolajon” kabi telekanallarda ekologiyaga bag‘ishlangan ko‘rsatuvlarni ko‘rish mumkin. O‘zbekiston teleradiokanalida jurnalist Saodat O‘rmonova tomonidan “Mo‘jizalar makoni” ko‘rsatuvi berib boriladi. Bu ko‘rsatuv haftada 1 marta efirga uzatilib, ahamiyatli tomoni qiziqarli va noyob joylar, ziyoratgohlar, biz bilmagan va eshitmagan yurtimizning mo‘jizakor maskanlari haqida hikoya qiladi. Bundan tashqari



“Dehqonchilik taqvimini”, “Agroolam” ko‘rsatuvlarida, kelayotgan haftada nimalar yuz berishi ob-havodagi o‘zgarishlar to‘g‘risida dehqonlarga tavsiyalar berib boriladi. Agroolamda esa pillachilik, chorvachilik, parrandachilikdagi yutuq va kamchiliklar tahlil qilinadi. Bolajon telekanalida “Tabiat shifoxonasi”, “Zavqli o‘rmoncha”, “Bog‘bon bolajon”, “Uyimdagi tabiat”, “Yurtim bo‘ylab sayohat” kabi ekologiya va tabiatga oid ko‘rsatuvlar efiinga uzatiladi. Sevimli kanalida esa “Mahallada duv-duv gap” tok-shousida ba’zi-ba’zida ekologik mavzu ko‘tariladi. Zo‘r tvda “Bu kun”, UzReportda “Yangiliklar”, My5 “Markaziy studio” information dasturlarida qisqa xabar tarzda berib boriladi. Bundan ko‘rishimiz mumkinki asosiy ko‘rsatuvlar davlat telekanallarida, xususiylarda esa deyarli ekologiya mavzusi yoritilmaydi.

Tarixga nazar tashlasak, o‘tgan asrning 70-yillaridan boshlab ijtimoiy ekologiya shakllana boshlagan. O‘sha vaqtda mavjud bo‘lgan muammolar bir qator ijtimoiy- siyosiy harakatlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Ulardan biri yashillar partiyasidir. "Yashil harakat ("yashil") - bu atrof-muhitning buzilishiga qarshi kurashda ishtirok etuvchi, inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarda yanada ilg‘orlayotgan guruhlar, harakatlar, nodavlat va siyosiy tashkilotlarning umumiy nomi" ¹. Harakat a‘zolari tomonidan umumiy timsol sifatida foydalanilgan yashil rang - tabiat, umid va yangilanish ramzi bo‘lib xizmat qiladi. Bu harakatning uch xil yo‘nalishi mavjud: tabiatni an‘anaviy muhofaza qilish ("qo‘riqlash"), atrof-muhitni pragmatik muhofaza qilish ("ekologik"), siyosiy va ijtimoiy ekologiya. "1971 yilda Greenpeace (GREENPEACE) tashkilotiga asos solingan"². Tashkilotning asosiy maqsadi atom va kimyoviy ifloslanish, genetik xilma-xillikni saqlash, iqlim muammolari, dengiz va o‘rmonlardagi o‘zgarishlarni bartaraf etishdan iborat. "2019 yil 8 yanvarda mamlakatimiz siyosiy-ijtimoiy hayotida muhim voqea sodir bo‘ldi. Shu kuni O‘zbekiston tarixida birinchi marta ekologik barqarorlikni taminlash yo‘lida yangi siyosiy kuch, O‘zbekiston Ekologik partiyasi ta‘sis etildi"¹. Partiyalar vazifasi atrof muhitni tozaligini



saqlash, kelajak avlod uchun tabiiy resurslarni yetqazib berish va shu kabi ko'plab ekologik muammolarni bartaraf etish choralarini o'z ichiga oladi. Odatda "yashillar" nomi bilan ataluvchi bu partiyalar parlament orqali ekologiya sohasidagi davlat siyosati g'oyalarini ilgari suradi.

Xulosa: Aytish joizki eko partiya ish boshlagandan so'ng ommaviy axborot vositalarida ekologiya mavzusi yana bir pog'onaga o'sdi. Ekologik mavzular ko'p muhokama va munozara qilinadigan bo'ldi, e'tibor va talab kuchaydi. Ekologik muammolarning yechimini ommaviy axborot vositalari ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shunday ekan, jurnalistika ekologik muammolarni hal etish vositalaridan biridir. Filmda bo'lgani kabi, ijodkor-rejissorning o'zi ham keng auditoriyaga so'zlamochi bo'lgan mavjud muammoni to'liq anglashi muhim. Faktlarga beparvo munosabat, materialni taqdim etishda haddan tashqari sensatsiyaga intilish nafaqat o'quvchini chalg'itishi, vahima qo'zg'ashi, balki jurnalistning malakasizligidan ham dalolatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Экологик журналистика Ўзбекистон сиёсатида: ривожланиш тенденциялари ва ўзаро хамкорликни амалга ошириш усуллари: монография/ Наргиз Қосимова. – Тошкент: Та'лим-медиа, 2020. В.224*

2. *Greenpeace nima o'zi?* <https://option.news>

3. *Nargis.uz Ўзбекистонда экология йўналишидаги онлайн журналистиканинг ривожланиши: муаммо ва ечимлар. 2020.*

4. <<Oila va tabiat>> gazetasi. <https://online.anyflip.com>

5. *Экологик партия - Ўзбекистонга нима учун керак?* <http://uza.uz>
21.01.2019.

Зеленое движение. Электронный Ресурс
<http://www.krugosvet.ru/enk/istoriya/ZELENIIE.html?page=0%2C0>



INSONIYAT TARAQQIYOTI VA EKOLOGIK MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Raqamli media va internet kafedrası magistranti, Usarov M.B

Telefon: +998885230523

usarovmuslim@gmail.com

ANNOTATSIYA

Butun jaxon xamda ona vatanimiz xavfsizligiga rahna solib borayotgan bir qator masalalar bilan birgalikda ekologik muammolar. Ularning kelib chikish sabablari xamda yechimi. Global iqlim o‘zgarishi yuzaga kelishi. Ekologik inqiroz, atmosferaning ifloslanishi — issiqxona effekti.

Kalit sozlar: *ekologiya, tabiat, chang, iqlim, gazlar, atrof-muhit, o‘simlik, hayvonlar, atmosfera, okean, tuprok, o‘simlik.*

Kirish: Inson faoliyati ta’sirida biosferaning o‘zgarishi juda tezlik bilan bormoqda. Insoniyatning tabiiy jarayonlarga ana shunday ta’sirda yoki munosabatda bo‘lishi natijasida XX asr o‘rtalarida ekologik muammolar juda avj olib ketdi. Ekologik muammo deganda insonning tabiatga ko‘rsatayotgan ta’siri bilan bog‘liq.

Inson sivilizatsiyasining rivojlanishi va uning tabiat bag‘riga tobora chuqurroq kirib borishi oqibatida ahvol tubdan o‘zgardi. Bugungi kunda ibtidoiy sof tabiat haqida gapirma ham bo‘ladi. Chunki yer yuzidagi o‘rmonlar qirgildi, katta – katta hududlar dehqonchilik qilish maqsadida o‘zlashtirildi, dorilar bilan o‘g‘itlandi, har xil chiqindi hamda gazlar bilan toza havo va tabiat ifloslandi. Bundan tashqari tabiatda toshqinlar, o‘rmon yong‘inlari, chang bo‘ronlari va boshqa tabiiy jarayonlar yuz beradi. Bularning barchasi tabiatning tabiiy muvozanatiga putur yetkazadi. Dunyo bo‘yicha kuzatiladigan tabiiy, antropogen



yoki sof antropogen hodisalar umumbashariy muammolar deb qaraladi. Ana shunday ekologik muammolarga ba'zi bir misollarni keltirib o'tamiz:

«Atmosferaning dimiqishi» hodisasi.

«Ozon qatlamining siyraklanishi» hodisasi.

«Chuchuk suv» muammosi .

«Tirik tabiatdagi o'simlik va hayvon turlari sonining qisqarishi» muammosi.

«Pestisetlardan foydalanish» muammosi. Mintaqaviy ekologik muammolar.

Yer yuzasining muayyan mintaqasi o'ziga xos tabiiy iqlim, ijtimoiy – ekologik, etnografik xususiyatlari uni tabiat bilan inson o'rtasidagi o'zaro aloqa munosabatlari harakterini belgilab beradi. Insoniyat taraqqiyoti, urbanizatsiya jarayonining tezlashishi, globallashuvning jadallashuvi Ona sayyoramiz xavfsizligiga rahna solib, bir qator masalalar bilan birgalikda ekologik muammolarni ham keltirib chiqardi. Atrof-muhitga jiddiy zarar yetkazayotgan ekologik xavf, o'rni kelganda, hattoki yadro talofati va terrorizmdan ham dahshatliroq bo'lib, Yer yuzidagi barcha xalqlarni tobora bu haqda chuqurroq o'ylashga majbur etmoqda. Butunjahon yovvoyi tabiat (WWF), Global Footprint Network jamg'armalari va Londonning zoologik jamiyati mutaxassislari hamkorlikda o'tkazgan tadqiqot natijalariga ko'ra, 1970 yildan buyon Yerdagi yovvoyi hayvon va qushlarning soni 3,43 ming turga, tirik sayyoraning indeksi esa 52% ga kamaygan, ya'ni havoda va quruqlikda yashaydigan jonivorlar turi 76%ga, yer ustida yashaydiganlar va suvda istiqomat qiladiganlar soni 39% ga qisqargan. Har yili inson faoliyati oqibatida 11 mln. gektar tropik o'rmonlar kesilib, nobud bo'ladi. Bu o'rmonlarni tiklash borasidagi ishlardan 10 barobar ko'pdir. Har kuni atmosferaga 60 million tonnaga yaqin karbonat angidrid chiqarilib, bu havoning isishiga, o'z navbatida esa Dunyo okeanidagi suv sathining ko'tarilishiga olib kelmoqda.

Karbonat angidridning havo tarkibida oshishi, chiqindi gazlarning me'yoridan ortiq havoga chiqarib tashlanishi oqibatida issiqxona effekti hosil



bo‘lib, bugungi kunda jahon hamjamiyatini tashvishga solayotgan jiddiy ekologik muammo – global iqlim o‘zgarishi yuzaga keldi. Afsuski, boshqa ekologik muammolardan farqli o‘laroq global iqlim o‘zgarishi Yer yuzi aholisini kam tashvishga solayapti. Bu asosan u haqida yetarlicha ma’lumot va bilim yo‘qligi hamda xavfli jarayonning sekinlik bilan amalga oshayotganli bilan bog‘liq. Xususan, mamlakatimiz ommaviy axborot vositalarida mazkur mavzuga e’tibor juda ham kam, natijada yurtdoshlarimiz iqlim o‘zgarishining oqibatlari va xavflari xususida deyarli axborotga ega emas. Insoniyat yuksak maqsadlar sari intilayotgan, taraqqiyot yo‘lidan jadal ildamlayotgan bugungi kunda jahon hamjamiyati oldida global ekologik muammolarni hal etishdek jiddiy vazifa turibdi. Ekologik inqiroz, atmosferaning ifloslanishi — issiqxona effekti, ozon qatlaminig yemirilishi, dunyo okeanining ifloslanishi, tuproq unumdor qatlaminig yo‘qolib borishi, tropik o‘rmonlarning kesilishi, cho‘llanish, chuchuk suv manbalarining kamayishi, yerdagi bioxilma-xillikning kamayishi, maishiy chiqindilarning ko‘payishi, kimyoviy va toksik moddalarni zararsizlantirish, iqlim o‘zgarishi allaqachon bir davlat chegarasidan chiqib, tom ma’noda global ekologik muammolarga aylandi. Bugungi kunda zamonaviy ekologiya shunchaki jonivorlar va o‘simliklar hayotini tasvirlamaydi, aksincha ularning kelajagini bashorat qilish bilan shug‘ullanadi.

Zamonaviy ekologiya tiriklikning tuzilish darajalarini tahlil qiladi hamda matematik modellar va farazlar ishlab chiqib, ularni tekshiradi. Zamonaviy ekologiyaning bosh maqsadiga tirik organizmlarning tarqalishi va sonini tushuntiradigan va bashorat qiladigan modellarni rivojlantirish, bu orqali balki o‘simliklar va yovvoyi hayvonlarni to‘g‘ri nazorat qilish, qayta tiklanuvchi va tiklanmaydigan resurslarni aniqlash va ulardan samarali foydalanish, tabiiy muhitlar va moddalarning aylanishini saqlash, oziq-ovqat bilan ta’minlash, bezgak va OITS kabi kasalliklarning ta’siri va yo‘nalishini oldindan ayta olish ham kiradi. Yuqori siyosiy darajada atrof-muhit muhofazasi mavzusi ilk marotaba 1972-yili Stokgol’mda mazkur mavzuga bag‘ishlangan BMT Konferentsiyasida ko‘tarilgan



edi. Aynan ushbu anjumanda “inson farovon va yuqori qadr-qimmatga ega hayotni taqozo etadigan muhitda yashamog’i lozim” deyildi. Yer yuzidagi biosfera degradatsiyasi sabablarini tahlil etish maqsadida Atrof-muhit va rivojlanish bo’yicha butunjahon qo‘mitasi tashkil etildi. Mazkur Qo‘mita 1987-yili “Bizning umumiy kelajagimiz” sarlavhasi ostida ma’ruza tayyorladi. Unda rivojlangan mamlakatlardagi isrofgarchilik va rivojlanayotgan mamlakatlardagi yetishmovchilik ekologiyaning yomonlashuvining asosiy sabablaridan biri sifatida tilga olindi. Sayyoramizni saqlab qolish uchun esa jahon hamjamiyati xatti-harakatini birlashtirish lozimligi qayd etildi. Birinchi marotaba “barqaror rivojlanish” tushunchasi, ya’ni kelajak avlod uchun tabiatni saqlash, inson va tabiat uyg’unligiga asoslangan rivojlanish aynan mazkur ma’ruzada keltirildi.

O‘zbekiston Respublikasida ilk ekologik muammo va tushunchalar 1950-yillardan, Orolning qurishi oqibatida yuzaga kela boshladi. Mazkur muammolarning OAVda yoritilishi ekologik jurnalistikaning vujudga kelishiga turtki bo‘ldi. 1958-yilda “Komsomolskaya pravda” gazetasida jurnalist N.Dadajonovning “Orol o‘lyapti” degan maqolasini e’lon qildi. Afsuski, uzoq yillar ushbu muammoga panja orasidan qarab kelindi.” Bugungi kunda yurtimizda ekologik xavfsizlikni ta’minlash uchun izchil institutsional va tashkiliy choralar ko‘rilmog‘da. Aytish joizki, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholi salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan hamda tegishli xalqaro normalarga mos huquqiy baza yaratilgan. Mamlakatimiz BMTning atrof- muhitni muhofaza qilish va barqaror taraqqiyot sohasidagi eng muhim konventsionalari, Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga qo‘shilib, zimmasiga olgan barcha majburiyatlarni bajarib kelmog‘da. Tabiatni muhofaza qilishga oid qonunchilikni amalga oshirish mexanizmi ishlab chiqilgan, maqsadli davlat dasturlari, milliy harakat rejalari hayotga tatbiq etilayotir. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim qismi bo‘lgan ushbu xayrli ishlarda jamoat tashkilotlari ham faol ishtirok etmog‘da.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. “Hurriyat” gazetasidan olindi (2013).
2. <http://library.ziyonet.uz> › book,
3. <https://ziyouz.uz/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti>,
4. <https://yuz.uz/news>,
5. <https://ekolog.uz/?p=2486>,
6. <https://xs.uz/uzkr/post/global>.



PSIXOLOGIK TRENING O'TKAZISH VA UNING AHAMIYATI.

Ibadullayev Beknur Nuraddinovich

Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumani 29-maktab psixologi

Anotatsiya: Ushbu maqola ta'lim muassasalarida psixologik treninglarni o'tkazish, inson hayotida bunday treninglarni o'rni, inson hayotidagi muammolarni yechimi va stresslardan chiqib ketishda psixologik treninglarni o'rni haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, innovatsion g'oyalar, psixologik trening, psixoterapevt, psixoterapeya, ijtimoiylashuv, psixologiya, etnopsixologiya.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz fuqorolariga qarata "Innovatsiya—bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak" degan fikrlari zamirida yoshlarni keng intellektual salohiyatga ega qilishda ta'limning barcha sohalarida tub burilishlarni taqozo etadi.

Har kuni inson shaxsiy va ishbilarmonlik aloqalari jarayonida yuzaga keladigan murakkab muammolarga duch keladi. Ularni o'zlari hal qilish uchun ozchilikni boshqaradi. Zamonaviy mashg'ulotlar odamlarning muloqot qobiliyatini to'g'rilaydi va odamga kundalik tashvishlarda adashmaslikka yordam beradi. Bugungi kunda treninglar kompaniya xodimlarining malakasini oshirish, ularga yangi ko'nikma va malakalarni o'rgatishning eng mashhur usullaridan biridir. Bu biznes rentabelligini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi. Xodimlaringizni o'qitishga jo'natishdan oldin, siz mashg'ulotdan qanday natijalar kutayotganingizni, shu vaqt ichida xodimlar aniq nimalarni o'rganishlari kerakligini aniq tushunishingiz kerak



Bolalar bog'chasi tarbiyalanuvchisining psixologik va pedagogik xususiyatlarini odatda o'qituvchi yozadi. Bunday ehtiyoj ko'pincha bola tibbiy-pedagogik komissiyaga yuborilgan taqdirda paydo bo'ladi. Ba'zan bunday xususiyat bola yangi dastur yoki texnikani sinovdan o'tkazadigan eksperimental guruhga boradigan bo'lsa kerak bo'ladi. Har qanday psixolog psixologik fikrlarni yozish amaliyoti bilan shug'ullanishi kerak. Shunday qilib, xulosa qat'iy formatga ega emas. Xulosa insonning psixologik holatining rasmini ob'ektiv aks ettirishi va har bir mutaxassis taqdimot uslubini mustaqil tanlashi muhimdir.

Trening insonlarda mavjud bo'lgan xulq-atvori va faoliyatini boshqaruv modelini qayta dasturlash vositasi hisoblanib, kishilarning muayyan faoliyat turida o'zini-o'zi barkamollashtirish imkoniyatini yaratadi. Jumladan, shaxslararo munosabatlarda namoyon bo'ladigan xulq-atvoridagi kamchiliklarni, tashqi muhitdagi salbiy stimullarga nisbatan motsional sferasida yuzaga keladigan reaksiya tezligini barqarorlashtirish, ichki va tashqi "Men" o'rtasidagi qarashlarni sayqallash, shuningdek, o'zida mavjud bo'lgan, lekin tashqariga chiqara olmagan ichki imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishga yo'naltiriladi. Psixologiya tarixida trening o'qitishning eng keng tarqalgan shakli faol ijtimoiy-psixologik treninglardir. L.A.Petrovskaya ijtimoiy psixologik treningga ta'rif berar ekan, uni quyidagicha izohlaydi: "Trening–shaxslararo munosabatlardagi bilimlar, ijtimoiy ustanovkalar, ko'nikma va tajribalarni rivojlantirishga qaratilgandir", shuningdek, "Muloqotda kompetentlikni rivojlantirish vositasi hamdir"

Ijtimoiy-psixologik trening insonlar o'rtasida sog'lom munosabatlarga erishishni hosil qilish uchun ijtimoiy amaliyotning turli sohalariga kirib bormoqda. Uning diagnostik tahlili, psixokarreksion imkoniyatlari kadrlar faoliyati: mutaxassislarni, psixolog, pedagog, psixaterapevtlar, korxon va tashkilot boshqaruvchilar, tadbirkorlarni ish faoliyatiga samarali ta'sirini ko'rsatadi. Shiddatli bir payitda yoshlarni zamon talabiga mos, teran fikrlovchi, turli vaziyatlarda o'zining oqilona



tafakkuri orqali ishtimoiy muhitga ta'sir ko'rsatuvchi, keng dunyoqarashga ega qilib tarbiyalashdek masalalarni psixologiya sohalariga ham yuksak vazifa qilib yuklaydi. Zero, milliy psixologiyamizda psixologik trening predmeti umumpsixologik nazariy va amaliy jihatdan har tomonlama chuqur izlanishlarga muhtoj, dolzarb muammolardan biri sanaladi. Psixologik trening asoslari fani milliy qadriyatlarimizga, etnopsixologik xususiyatlarimizga moslashtirilgan turli mashg'ulotlarni tashkil etish muammosini hal etish yo'llarining psixologikpedagogik, ilmiy va uslubiy jihatlarini o'ziga xosligini yoritishni maqsad qilib olganligi bilan tavsiflanadi.

Zamonaviy psixologiya sohalarining muammolaridan biri har tomonlama barkamol shaxslarni tarbiyalash va jamiyatda o'z o'rnini topishiga ko'maklashish, malakalarini rivojlantirish hisoblanadi. Bu boradagi ishlarni amalga oshirishda albatta, psixologik treningni o'ziga xos o'rni mavjud bo'lib, hozirda mutaxassislar ya'ni maktab psixologlari ijtimoiy-psixologik trening imkoniyatlaridan keng foydalanib kelmoqdalar desak, mubolag'a bo'lmaydi. Natijada, shaxslararo munosabatlar orasida muloqot uslubining o'zgarishi, muayyan kasbiy sohalaridagi bilim, ko'nikma va malakalarning ortishi, rahbar, menejer, tadbirkor, kadrlar menejeri, psixolog, murabbiyning faoliyati kabilarda, ayniqsa, shiddatli sharoitlarda juda murakkab faoliyat turlarida yoshlarning peshqadamligi muammoning asl mohiyatini tahlil qilishga imkoniyat yaratadi. Avvalo, trening-bu odamning muloqot uslubini o'zgartirishga, uyg'unlashtirishga, kerakli ko'nikmalarni singdirishga va boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladigan yoki ong osti xarakterga ega bo'lgan 6 qarama-qarshiliklarni hal qilishga qaratilgan yorqin, hissiy jihatdan jadal o'quv faoliyat turi deb ta'kidlasak ham xato bo'lmaydi. Trening-bu turli faoliyat sohalarida keng qo'llaniladigan juda mashhur va keng tarqalgan o'qitish shaklidir. Kasbiy muvaffaqiyat ko'plab tarkibiy qismlardan iborat, shu bilan birga, trening texnologiyasi odamning kayfiyatini, muayyan faoliyat



turiga bo'lgan munosabatini o'zgartirishga, o'z-o'zini tarbiyalash va o'zini rivojlantirish zarurligini anglashga yordam beradigan o'quv shakllardan biridir. Hozirgi davrda insonlarni eng tabiiy bo'lgan muloqotga ehtiyoji, uning sirlaridan xabardor bo'lish, o'zgalarga samarali ta'sir eta olishga intilishining kuchayishi, bo'lajak kadrlarni kelgusi faoliyatlarini samarali amalga oshirishga tayyorlash, shuningdek, rahbar kadrlarni samarali boshqarish usuliga o'rgatish kabi masalalarni echimini topish borasidagi ishlardan biri - bu ijtimoiy psixologiyaning asosiy sohasi bo'lgan psixologik treninglarni tashkil etishdir. Trening guruhlarda muloqotning madaniy obro'li bo'lishni rivojlantirish maqsadida olib boriladigan psixologik ishlarning faol usuli, ya'ni guruh-guruh bo'lib munozara, bahs, rolli o'yin va boshqa o'yinlarni o'tkazishga qaratiladi. Shuningdek, hozirgi davrda ijtimoiy psixologiyaning dolzarbligi va uning jamiyatdagi sodir bo'layotgan barcha jarayonlarga aloqadorligi uning 7 tadbqiqiy sohalari doirasini ham kengaytirdi. Psixologik trening avvalo shaxs yoki guruhni samarali muloqot malakalariga o'rgatish va ulardagi kommunikativ bilimdonlikni oshirish usullarini va ularni amaliyotga tatbiq etish chora tadbirlarini ishlab chiqadi. Inson o'z hayotida shaxsiy tajriba, ijtimoiy malaka va ko'nikmalarni ortirib borishi jarayonida hosil bo'ladigan, bevosita shakllanadigan ijtimoiy bilimdonlik yoki kommunikativ sovdxonlikdan farqli psixologiya fanida ushbu jarayonlarni maqsadli shakllantirish, shaxs va yaxlit guruh faoliyatiga talluqli ijtimoiy fazilatlarini zudlik bilan shakllantirish uchun qo'llaniladigan uslublar majmui mavjud. Ularni qisqacha qilib ijtimoiy psixologik trening yoki psixologik trening deb ataladi.

Viktor Kagan treningni bilim va konikma berishga asoslangan ta'limning maxsus shakli va psixologik treningni tushunish uchun umumiy va asosiybo'lgan "tajriba" tushunchasi bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Aytishimiz mumkinki, guruhiy psixologik trening- bu guruhdagi o'zaro ta'sir o'tkazish jarayonida o'z hayotiy tajribasini o'rganish, tahlil qilish va qayta baholash orqali shaxsni shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga qaratilgan ataylab o'zgartirish usulining o'ziga xos xususiyatlarini keltirib o'tadi. Trening tushunchasi ingliz tilidan kelib chiqqan bo'lib, "train",



“training” ko’plab ma’nodlarga ya’ni: o’qitmoq, tarbiyalamoq, (trenirovka) mashq qilmoq kabi ma’nodlarga ega. Xuddi shunday ko’p ma’nodlilik treningning ilmiy talqiniga ham mos keladi. Xususan, bu turli ijtimoiy faoliyat sohaslariga shaxsni tayyorlashdan iborat bo’lib, bunda shaxs yoki yaxlit guruhning muloqot sohasidagi bilimdonik darajasi maqsadga muvofiq tarzda maxsus mashqlar tizimi orqali rivojlantiriladi. Ya’ni u shaxsni ijtimoiy muloqotga oldindan maqsadli tarzda tayyorlaydi. Jumladan: - bo’lajak mutaxassislarni kelgusi faoliyatlarini samarali amalga oshirishga tayyorlash; - rahbar kadrlarni samarali boshqarish usullariga o’rgatish; - ta’lim-tarbiya maskanlarida o’zaro hamkorlik faoliyatini rivojlantirish; - ijtimoiy muhitdagi barcha shaxslararo munosabatlarda muloqot kompetentligini oshirish; -ijtimoiy shaxslararo muloqot jarayonida yuzaga kelishi kutiladigan emotsional zo’riqishlarni oldini olish va mavjudlarini barqarorlashtirish va hakozolar. Trening insonlarda mavjud bo’lgan xulq-atvori va faoliyatini boshqaruv modelini qayta dasturlash vositasidir. Shuningdek, trening, tashkilotni rejalashtirilgan faolligini, kasbiy bilimlarini oshiruvchi, ko’nikmalarini yaxshilashga yo’naltirilgan, yoki tashkilotning maqsadli faoliyati talablariga mos keluvchi ustanovkalar modifikatsiyasi va jamoaning ijtimoiy xulq-atvorini korreksiyalash uchun zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.N.Salihova.”O’smirlik davri va o’smirlarga psixologik yordam”.
2. Shirin Mustafayeva.”O’smir psixologiyasi: Biz bilmagan jihatlar”
3. Karimova V.Psixologiya. O`quv qo`llanma. Toshkent, A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. “O`AJBNT” markazi, 2002.
4. G`oziyev E. Umumiy psixologiya. Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik, 1-kitob Toshkent «Universitet» nashriyoti , 2002
5. Psixologik tareninglar o`quv qo`llanma TDPI.



SHAHAR KO'KALAMZORLASHTIRISH TIZIMI

Tog'ayeva Nafisa Isroiljonovna,

Farg'ona transport va servis texnikumi,

Transport, arxitektura va sanoat kafedrası o'qituvchi.

Annotatsiya: mazkur maqolada shahar hududlarida ko'kalamzorlashtirish ishlarining ahamiyati haqida qisqacha to'xtalib o'tilgan. Zamonaviy shaharsozlikda yashil hududlarning tashkil etilishi aholiga qulaylik yaratish maqsadida insonlarning salomatligi hamda iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq muammolar bo'lganligi sababli shaharsozlik tizimida ham o'zgarishlar bo'lishga sabab bo'lmoqda.

Kalit so'zlar: ko'kalamzorlashtirish, shaharsozlik, infrotuzilma, landshaft, yashil hudud, salomatlik, xiyobon.

Аннотация: В этой статье кратко рассказывается о важности озеленения в городских районах. В современном городском планировании создание зеленых насаждений вызывает изменения в системе городского планирования, связанные со здоровьем людей и климатическими изменениями, а также с обеспечением комфорта для населения.

Ключевые слова: ландшафтный дизайн, урбанизм, инфраструктура, ландшафт, зеленая зона, здоровье, аллея.

Annotation: this article briefly discusses the importance of greening work in urban areas. The creation of green areas in modern urban planning is also causing changes in the urban planning system, due to the fact that it is associated with human health and climate changes in the comfort of people.

Keywords: greenery, urbanization, infruction, landscape, green area, health, alley.



Ko'kalamzorlashtirishning asosiy jihati shundan iboratki, bunda tabiiy daraxt ekinzorlari hududidan foydalanilgan holda, qiyofasini o'zgartirib borish, tabiat namunalarini amaliy san'at ishlari bilan birlashtirib, yaxlit bir manzarani yaratishdir. Manzarabop ekinlarni ko'paytirish quldorlik jamiyati davrida vujudga kelgan. O'sha vaqtlarda ham saroylar, maqbaralar, badavlat xonadonlarda xiyobon va boglar barpo etish va ko'kalamzorlashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Qadimiy Misr bog'larini rejalashtirishda ma'lum qoidalarga amal qilingan: kompozitsiya markazida asosiy bino joylashgan, ikki tomoniga daraxt ekilgan uzun yo'lak (alleya) ushbu kompozitsiyaning asosiy qismi bo'lib, hovliga kirish joyi bilan bog'langan hamda bog hududini ikkita teng bolimga ajratgan. Har bir bo'lagida esa to'g'ri burchakli suv havzalari barpo etilgan.

O'zbekiston kam o'rmonli mamlakat, shu sababdan yashil o'simliklar bu yerdagi tabiat ko'rinishini belgilaydi. Mamlakatimizda aholi yashash joylari, yo'llar, irrigatsiya inshootlari, suv omborlarini ko'kalamzorlashtirish ishlari keng ko'lamda olib boriladi. Zamonaviy shahar yoki boshqa aholi yashash joylari - bu turli binolar, ko'p sonli muhandislik inshootlari, yo'llar, maydonlar, ochiq joylar, suv havzalari va yashil ekinzorlarniing murakkab kompleksidir. Shaharsozlik me'yorlariga ko'ra, aholi yashash joylari hududlarining 50% dan kam bo'lmagan qismi ko'kalamzorlashtirish ob'yektlariga ajratilishi kerak. Shahar hududida insonlarga qulaylik va hordiq oladigan yashil tabiat zonalari yaratish uchun olib boriladigan ishlar hozirgi kunda muhim hisoblanadi. Yashil hududlar xiyobon va bog'lardan tashkil topadi, mikro iqlimni sog'lomlashtiradi, shamol tezligini pasaytiradi, chang va to'zonlarni tutib qoladi, havodagi zararli gaz va tutunlarni yutadi, shahardagi shovqinlarni kamaytiradi va shu kabi foydali tomonlarga ega. Shahar hududlarini ko'kalamzorlashtirish katta [estetik](#) ahamiyatga ega. [Poytaxt](#) va yurtimizning boshqa shaharlaridagi istiqomat qilayotgan aholi soni kun sayin oshib borayotgani, yirik [sanoat korxonalari](#) yildan yilga ko'proq ishga tushurilishi, shahar ko'chalarida harakatlanayotgan [avtomobillar](#) sonining ortib borishini



hisobga olsak, ekologik holatlar alohida e'tibor va mas'uliyat talab qilishi namoyon bo'ladi. Shahar [ekologiyasi](#), aholining salomatligiga ham bevosita amalga oshirilayotgan ko'kalamzorlashtirish ishlari bilan bog'liq ekanligi barchamizga ma'lum. Atrof-muhit musaffoligini ta'minlashda yashil olamning ahamiyati kun sayin oshib bormoqda. So'nggi yillarda shaharni qayta qurish, ko'kalamzorlashtirish va [obodonlashtirish](#) ishlari jadal olib borilayotganligi sabab nafaqat poytaxtimizda, balki boshqa [viloyat](#) markazlarida ham shaharlarni yashil maydonlarga aylantirish ishlari tadbiiq etilmoqda. Lekin ayrim hududlarda belgilangan rejadagi ishlar to'g'ri olib borilmasligi natijasida salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Ko'kalamzorlashtirilgan hududlarda havo harorati boshqa hududlarga qaraganda 16° salqin bo'lishi, 1 [gektar](#) hududdagi o'rmon yiliga 54 tonna chang ushlab qolishi bizga ma'lum. Shaharlar hududida shuningdek, turli-tuman [gullar](#), to'shama o'simliklar ham yashil maydonlarni boyitib bormoqda.



So'nggi yillarda aholi punktlarini ko'kalamzorlashtirish, daraxt va butalarni muhofaza qilish hamda yashil maydonlarni kengaytirish borasida tizimli choralar ko'rilmogda. Shahar hududlarida qimmatbaho navli daraxt va butalar kesilishiga



moratoriy joriy qilinishi, daraxt kesganlik holatlari uchun jarima va kompensatsiyalar miqdorining oshirilishi shular jumlasidandir. Biroq, mas'ul tashkilotlarning amalga oshirilayotgan ishlarga sustkashlik bilan yondashishi hamda ayrim shaxslarning o'simlik dunyosi obyektlariga bo'lgan tajovuzkor harakatlari, shu jumladan, daraxtlarni noqonuniy kesish bilan bog'liq holatlar umumekologik vaziyatning yomonlashishiga sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari, investitsion faollik sur'atlarining, jumladan, sanoat ishlab chiqarish, qurilish, urbanizatsiya va bunyodkorlik ko'laminin keskin kengayishi aholi punktlariga tushayotgan ekologik yuklamani kamaytirish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Daraxt, butalar va yashil hududlarni muhofaza qilish hamda ularning maydonlarini kengaytirish, ushbu sohada mas'ul tashkilotlar faoliyatini yanada samarali tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-son farmonida belgilangan vazifalar bu boradagi ishlarni yanada jadallashtirishga xizmat qilmoqda.





Shaharlar, posyolkalar, turar joylar, mahalalar va qishloq aholi punktlarini bezatish, ularga chiroyli va shinam ko'rk berishda yorqin ranglarda gullaydigan butalar: spireya, jimolost, jasmin, nastarin (siren), deysiya, kizilnik, tamarikslar, forzisiyalar, biryuchina, sariq akatsiya, zarg'aldoq (zolotistaya) smrodina va boshqalarning o'rni beqiyosdir. Ushbu va ko'pgina butalarning bebaho sifati shundaki, ular nafaqat tez o'suvchi va shaharning o'ziga xos ekologik sharoitlariga moslashuvchanligi bilan, balki juda manzaraliligi bilan ahamiyatlidir. Ko'kalamzorlashtirish sohasi oldidagi vazifalarni yechishda, avvalo, o'simlik turlarini ko'paytirish va ko'chatxonalarda yetishtiriladigan mahsulotlar (o'simliklar, ko'chatlar) sifatini yaxshilashda hozirda mavjud bo'lgan o'simliklarning boy dendrologik fondidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shaharsozlikdagi katta tajriba shuni ko'rsatadiki, asosiy vazifalardan biri - tabiiy va sun'iy yaratilgan muhit o'rtasida ma'lum muvozanat va garmonik ravishda uyg'unlashuviga erishish, barcha ko'kalamzorlashtirish obyektlarining o'zaro bog'liqligi va bir yaxlit tizimga birlashtirilishi sanaladi.

Shahar shovqini bilan samarali kurashishda qalin, butan daraxt qatorlari to'g'ri joylashtirilishi kerak. Bargli daraxt turlari shovqinning 25 foizini yutib, 75 foizini qaytaradi, chunki ular ekran singari, tovush to'lqinlarini to'sadi. Harakat gavjum bo'lgan ko'cha chetidagi hiyobon binolarni shovqindan asray olmaydi, aksincha, agar yolning harakat qismi daraxtlar bilan to'silmagan bo'lsa, uylardagi shovqinni kuchaytiradi. Shovqinlar ta'sirini kamaytiradigan daraxtzorlarning kengligi 10 metrdan kam bo'lmasligi va unda bir nechta qalin daraxt qatorlari joylashishi kerak. Mayda bargli daraxtlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bularni shovqin manbaalariga yaqin ekib, daraxtlar, butalar va yashil devorlardan yaroqli kompozisiya hosil etilishi lozim. Katta-kichikligi bo'yicha farqlanadigan ekinlar guruhlari shovqin energiyasini yaxshi tortib oladi.

Xulosa qilib aytganda shahar hududlarini ko'kalamzorlashtirish har turli sohalar bo'yicha qilinayotgan ishlarning to'g'ri tashkillanishi bilan bog'liq.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzaolimov, A. A. o'g'li. (2022). SHAHAR MUHITNI KO'KALAMZORLASHTIRISH VA OBODONLASHTIRISHDA DUNYO TAJRIBASI. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(1), 149–153. Извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/326>
2. <https://lex.uz/m/acts/-1455047>
3. A.Qayimov. Aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish. – Toshkent. Fan va texnologiyalar, 2013.
- 4.



AXBOROT XAVFSIZLIGINING BUGUNGI KUNDA DOLZARBLIGI

A.Qodiriy nomli

Jizzax Davlat Pedagogika Universitetining

o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishining

sirtqi 2-oliy ta'lim 4-kurs

2m1201-21 guruh talabasi

Samarqand viloyati Payariq tuman

3-son kasb-hunar maktabi

Informatika va maxsu fan o'qituvchisi

Mamaradjabova Xurshida Buriboyevna

Tel:+998 (93) 9633891

Xurshidamamaradjabova1991@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunning dolzarb mavzularidan biri bo'lmish axborot xavfsizligining muammolari, axborotni himoyalash usullari keltirilgan.

Kalit so'zlar: axborot, innovatsion texnologiya, telekommunikatsion tizimlar, raqobatdoshlik, axborot xavfsizligi, axborotning yaxlitligi, viruslar.

ПРОБЛЕМЫ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ СЕГОДНЯ

Назван в честь А. Кадири

Джизакский государственный педагогический университет

Кафедра узбекского языка и литературы

Экстернат 2 степени высшего образования

4 курса группы 2m1201-21

Пайарикский район Самаркандской области



Профессиональное училище №3
Учитель информатики и специальных наук
Мамараджабова Хуршида Бурибоевна

Телефон: +998 (93) 9633891
Хуршидамамараджабова1991@gmail.com

Аннотация: В данной статье представлены проблемы информационной безопасности, методы защиты информации, которые являются одной из актуальных тем современности.

Ключевые слова: информация, инновационные технологии, телекоммуникационные системы, конкурентоспособность, информационная безопасность, целостность информации, вирусы.

INFORMATION SECURITY ISSUES TODAY

Named after A. Kadiri
Jizzakh State Pedagogical University
Department of Uzbek language and literature
Externship 2nd stage of higher
education 4th year group 2m1201-21
Payarik district of Samarkand region
Vocational school No. 3
Teacher of computer science and special sciences
Mamarajabova Khurshida Buriboevna
Phone: +998 (93) 9633891
Khurshidamamarajabova1991@gmail.com



Abstract: This article presents problems of information security, methods of information protection, which are one of the pressing topics of our time.

Key words: information, innovative technologies, telecommunication systems, competitiveness, information security, information integrity, viruses.

Internet texnologiyalarining yaratilishi turli manbalardan tez va oson yo'l bilan axborot olish imkoniyatlarini hamma uchun-oddiy fuqarodan tortib yirik tashkilotlargacha misli ko'rilmagan darajada oshirib yubordi. Davlat muassasalari, fan-ta'lim muassasalari, tijorat korxonolari va alohida shaxslar axborotni elektron shaklda yaratib-saqlay boshladilar. Axborotdan samarali foydalanish imkoniyatlari axborot miqdorining tez ko'payishiga olib keldi. Biznes qator tijorat sohalarida bugun axborotni o'zining eng qimmatli mulki deb biladi. Bu albatta ommaviy axborot va hamma bilishi mumkin bo'lgan axborot haqida gap borganda o'ta ijobiy hodisa. Lekin maxfiy axborot oqimlari uchun Internet texnologiyalari qulayliklar bilan bir qatorda yangi muammolar keltirib chiqardi. Internet muhitida axborot xavfsizligiga tahdid keskin oshdi.

Axborot xavfsizligi tahdidlari turli belgilar orqali tavsiflanishi mumkin

- axborot yashirinligini buzish, asosan inson omili yoki muhofaza apparat ta'minoti faoliyatini izdan chiqarish;
- ma'lumotlar mazmunini o'zgartirishga doir ruxsatsiz faoliyatlar orqali axborot yaxlitligiga zarar yetkazish;
- axborot foydalanuvchilariga kompyuter viruslari orqali tahdidlar;
- axborot xavfsizligiga ichki va tashqi tahdidlar;
- axborot xavfsizligi buzilishida global, hududiy va lokal tarmoqlar tahdidlari;
- Kompyuterga olisdan kirish - Internet yoki intranetga kimligini bildirmay kirishga imkon beruvchi dasturlar. O'zi ishlab turgan kompyuterga kirish: kompyuterga kimligini bildirmay kirish dasturlari asosida;



- Kompyuterni olisdan turib ishlatmay qo'yish - Internet tarmog'i orqali olisdan kompyuterga ulanib, uning yoki uni ayrim dasturlarining ishlashini to'xtatib qo'yuvchi dasturlar asosida(ishlatib yuborish uchun kompyuterni qayta ishga solish yetarli);
- Tarmoq skanerlari - tarmoqda ishlayotgan kompyuter va dasturlardan qay biri tajovuzga chidamsizligini aniqlash maqsadida tarmoq haqiqatda axborot yig'uvchi dasturlar vositasida;
- • Parol ochish - parollar fayllaridan oson topiladigan parollarni izlovchi dasturlar vositasida;
- Tarmoq tahlilchilari (snifferlar) - tarmoq trafikini tinglovchi dasturlar vositasida. Ularda foydalanuvchilarning nomlarini, parollarini, kredit kartalari nomerlarini trafikdan avtomatik tarzda ajratib olish imkoniyati mavjud.

Eng ko'p yuz beradigan tajovuzlar quyidagi statistikaga ega:

- ✓ 1998 yili NIST tomonidan o'tkazilgan 237 kompyuter tajovuzining tahlili Internetda e'lon qilingan:
 - 9% tajovuzlar Windows muhitida yuz bergan. Saboq: Faqat Unixgina xatarli emas ekan.
 - 20% tajovuzlarda tajovuz qilganlar olisdan turib tarmoq elementlari(marshrutlovchilar, kommutatorlar, xostlar, printerlari brandmauer) gacha yetib borganlar.
 - Saboq: xostlarga olisdan turib bildirmay kirish bot-bot yuz beradi.
 - 5% tajovuzlar marshrutlovchilarga va brandmauerlarga qarshi muvaffaqiyatli bo'lgan.
 - Saboq: Internet tarmoq infrastrukturasi tashkil etuvchilarining kompyuter tajovuzlariga bardoshi yetarli emas.



- 4% tajovuzlarda Internetda tajovuzga bardoshi bo'sh xostlarni topish uchun uyushtirilgan.
- Saboq: Tizim administratorlarining o'zlari o'z xostlarini muntazam skanerlab turganlari ma'qul.
- 3% tajovuzlar web-saytlar tomonidan o'z foydalanuvchilariga qarshi uyushtirilgan.

Saboq WWWda axborot izlash xavfsiz emas.

2021 yilda:

- Norvegiyaning eng yirik gazetlari xakerlik hujumlari tufayli yopildi
- Hackerlar Dnevnik.ru saytini buzib, maktab o'quvchilarining baholarini o'zgartirdilar
- 1,6 million WordPress veb-saytlari hujumga uchradi
- Volvo avtomobillarini sindirish
- Xakerlar Qozog'iston elektron hukumati saytiga virus dasturini yuklagan, uni foydalanuvchilar yuklab olgan
- Xakerlar Belarus pasportining IT tizimini buzishdi
- Luma Energy yirik energetika kompaniyasi kiberhujumlarga uchradi
- Dunyodagi eng yirik go'sht ishlab chiqaruvchi JBS kompaniyasiga xaker hujumi
- Xakerlar 2 yil davomida Belgiya Ichki ishlar vazirligi tarmog'ida jimgina "o'tirishdi" va xodimlarning xatlarini o'qishdi.
- Avtomobil ehtiyot qismlari ishlab chiqaruvchi Toyota Auto Body kompaniyasiga kiberhujum
- Hackerlar Washington politsiyasining IT tizimlariga buzib kirishdi va hujjatlarni o'g'irlashdi
- Kiberhujum tufayli Yaponiyaning barcha Toyota Motor zavodlarida ishlab chiqarish to'xtatildi



Tarmoqni kompyuter tajovuzlaridan himoyalash doimiy va o'z-o'zidan yechilmaydigan masaladir. Lekin qator oddiy himoya vositalari yordamida tarmoqqa suqulib kirishlarning ko'pchiligini oldini olish mumkin. Masalan yaxshi konfiguratsiyalangan tarmoqlararo ekran va harbir ish stantsiyalari(kompyuterlar)da o'rnatilgan virusga qarshi dasturlar ko'pchilik kompyuter tajovuzlarini barbod etadi. Axborot xavfsizligini ta'minlash uchun tashkiliy, texnik va dasturiy vositalardan foydalaniladi.

Tashkiliy vositalar tarkibiga texnik-tashkiliy va huquqiy-tashkiliy tadbirlarni kiritishimiz mumkin. Texnik-tashkiliy tadbirlarda xavfsizlik choralarini ta'minlash uchun ofis xonasidagi kompyuter, telefon, televizor, radio, signalizatsiya va shunga o'xshash axborot chiqish ehtimoli bo'lgan barcha vositalar ro'yxatdan o'tkaziladi.

Texnik vositalar elektron, elektromexanik va boshqa qurilmalardan iborat bo'lib, tizimlarni texnik himoyalashda bevosita foydalaniladi. Keng imkoniyatli (0,01 - 1000 MHz) elektromagnit generatorlari kompyuter va boshqa uskunalardan chiquvchi qo'shimcha to'lqinlarini sezdirmaslik vazifasini o'taydi. Axborotni yashirin olishga mo'ljallangan mobil aloqa telefonlarini aloqadan uzish, elektr tarmog'idan ma'lumot chiqmasligini ta'minlovchi filtrlar, diktofonlarni kuchli elektromagnit to'lqinlar bilan ishdan chiqaruvchi vositalar qo'llaniladi.

Dasturiy vositalar tarkibiga axborot xavfsizligi, foydalanuvchilar shaxsini identifikatsiyalash, kirish nazoratini o'tatish, ma'lumotlarni yashirin ko'rishga keltirish kabi vazifalarni bajarishga mo'ljallangan maxsus dasturiy vositalar tizimi kiradi.

Axborotni himoyalovchi dasturiy vositalarning tarkibi quyidagilardan iborat:

- bir necha fayl yoki jildlarni yig'ish orqali ularning hajmini keskin kamaytirib tashqi ta'sirlardan himoyalash dasturlari;
- kompyuter tizimiga beruxsat kirishdan himoyalash dasturlari;
- tizimni viruslardan himoyalashga mo'ljallangan antivirus dasturlari;



- ma'lumotlar yashirinligini ta'minlovchi kdptografik dasturlar.

Windows 7 operatsion tizimini himoyalash.

Bajarish:

1. Пуск tugmasini faollashtirish orqali Панель управления bo'limi- dan Учетные записи пользователей и сем... qismiga kiriladi va u yerdan Учетные записи пользователей bandi faollashtiriladi;
2. Внесение изменений в учетную запись пользователя oynasidan Изменение своего пароля muloqot darchasiga kiriladi;
3. Agar kompyuterga oldin parol qo'yilgan bo'lsa, Текущей пароль qa- toriga oldingi parol kiritilib, so'ngra Новый пароль va Подтверждение пароля qatoriga yangi parol kiritiladi:



Ushbu ketma-ketlik bajarilgandan so'ng, kompyuter ishga tushirilganda yangi parol bilan kirish zarur bo'ladi.

MS Excel 2010 elektron jadvalida ma'lumotlarni himoyalash.





Bajarish:

1. MS Excel 2010 ning menyusida Рецензирование tasmasi faollashtiriladi;



2. Tasmaning **Защитить лист** bandi bosiladi. Natijada ekranda **Защита листа** muloqot oynasi paydo bo'ladi. Hosil bo'lgan oynaning **Пароль для отключения** защиты листа qatoriga parol kiritiladi;

Himoyalangan varaqdagi ma'lumotlarni o'zgartirish uchun MS Excel 2010ning menyusidan **сценарное тасмаси** faollashtiriladi. Tasmaning **Изменение** qismidan **Снять** **Защитить** листа bandi tanlanadi. Natijada **Снять** **Защитить** листа muloqot oynasi paydo bo'ladi. Ushbu hosil bo'lgan oynaning ma'lumot kiritish qatoriga oldin himoyalangan parol kiritiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Маллабоев Н., Шокиров Д. СПОСОБЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ //Теория и практика современной науки. – 2016. – №. 6-1. – С. 826-830.
2. Маллабоев Н., Шокиров Д. СИСТЕМЫ ЭЛЕКТРОННОГО ПЛАТЕЖА //Теория и практика современной науки. – 2016. – №. 6-1. – С. 830-834.
3. Abdullaeva N., Mamurova F., Mallaboev N. EFFICIENCY OF EXPERIMENTAL PREPARATION USE MULTIMEDIA TO ENLARGE SOME QUESTIONS //Экономика и социум. – 2020. – №. 6. – С. 11-13.
4. S.K. Ganiyev, M.M. Karimov, K.A. Tashev Axborot xavfsizligi “Aloqachi” - 2008
5. Axborot xavfsizligi [Matn]: o’quv qo’llanma /Sh.B.Sayfullayev. –Toshkent: “Turon nashriyot”, 2021.-140 b



MOVOROUNNAHR HUDUDIDA YOZILGAN O‘ZBEK TILIDAGI TAFSIRLAR VA ULARNING AHAMIYATI

Abdumalikova Muslima

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi talabasi

Telefon raqami: 97 771 39 82

Ilmiy rahbar: M.M.Agzamova

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD,

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsent v.b.

Annotatsiya: Maqolada Qur’oni karimning tafsiri, mufassir vatandoshlarimizning xalqimiz uchun tafsir ilmi yo‘lida ko‘rsatgan xizmatlari va Movarounnahr hududida chop etilgan Qur’oni karimning turli tafsirlari to‘g‘risida gap boradi. Shuningdek maqolada, Qur’oni karim chop etilgan nashriyotlar, o‘zbek tilida yozilgan tafsirlardagi farqlar to‘g‘risida ham ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Kalit so‘z: Tafsir, nashriyot, mufassir, Qur’oni karim, sura, fiqhiy masalalar, qo‘lyozma, tarjima.

Qur’oni karimni tafsir qilish yurtimizda hozir ham davom etib kelmoqda. Mustaqillik yillarida, qolaversa, so‘ngi yillarda diniy-ma’rifiy sohaga davlat miqyosida berilgan e’tibor natijasida ushbu soha rivoji uchun yanada keng sharoitlar yuzaga kelmoqda. Mustaqillikning ilk davrida, shuningdek, mustaqillikdan oldin ham dunyo yuzini ko‘rgan Qur’oni karim tafsir va tarjimalari qatorida Oltinxonto‘ra tarjimasi, Shamsiddin Boboxonov tomonidan qilingan Amma porasining tarjimasi, Alouddin Mansurning izohli tarjimasi, Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning «Tafsiri Hilol»i va nihoyat Abdulaziz Mansurning «Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri» kabilarni aytish mumkin. XX asrda yozilgan Muhammadjon Hindistoniy tarjimasi esa alohida ahamiyatga egadir. «Hindistoniy domla», «Hoji Hidistoniy», «Mavlaviy domla» kabi nomlar bilan shuhrat qozongan, O‘rta Osiyo hududida ilm-ma’rifat ziyosini taratishda beqiyos xizmat ko‘rsatgan ulug‘ olim, buyuk ustoz Muhammadjon domla Mavlaviy mulla



Rustam o'g'li Xo'qandiy bo'lib, u kishi imom Buxoriyning «Sahih»ini, Burhoniddin Marg'inoniyning «Hidoya» asarini, Abu Hanifaning «Fiqhul akbar»ini, Abdurahmon Jomiyning «Sharhi Mullo», Muhammad Xayriobodyyning «Mirqotul-mantiq» asarlarini sharh qilgan. «Usuli Shoshiy», «Nurul anvor» va «Muxtasari maoniy» kabi asarlarni o'zbek va fors tillariga tarjima qilgan. Abdulqodir Bedil g'azallariga sharh yozgan. Shoh asari sifatida Qur'oni karimga yozgan tafsirlari e'tirof etiladi. Asarning nomi «Bayonul furqon fi tarjimatil Qur'on» («Qur'on tarjimasida farqlovchi bayon»)dir. Shogirdlari ushbu tafsirning ta'lifi haqida, jumladan, shunday deganlar: «Arabiy, forsiy tafsirlar juda ham ko'p bitilgan, ammo o'zbek tilida tafsir, deyarli, yo'q. Shu bois ushbu ulug' ishni baholi qudrat bajarishga bel bog'ladik. Ko'pchilikka tushunarli bo'lishi uchun tafsirni Andijon lahjasida bayon qilamiz. Kamchiliklarimiz bo'lsa, muhtaram o'quvchilarimizdan isloh qalami ila tuzatishlarini umid qilib qolamiz». Bu tafsir og'zaki uslubdagi tafsir bo'lgani sababli, o'ziga xos tuzilishga, yozilish usuliga va alohida ruhiyatga ega. Asarda ko'pincha oyatlarning tarjimasini so'zma-so'z bo'lmay, tafsir aralash berilgan. Ba'zan oyatning tafsiri uning tarjimasidan oldin keladi. Bir xil oyatlar biroz farqli tarjima qilingan. O'sha payt urfiga ko'ra, tarjimada yordamchi so'zlar ajratilmagan. Asarda keltirilgan xabarlarga ko'pincha manba ko'rsatib o'tirilmagan, balki hikoya tarzida aytib o'tib ketilgan. Asar bugungi kunda ham o'z qiymatini yo'qotmagan. [1:66].

Taniqli o'zbek ulamolaridan bo'lmish Shayx Alouddin Mansur, 1952 yilda Qirg'iziston Respublikasi O'sh viloyatining Qorasuv shahrida tug'ilgan. U kishi zamonasining atoqli olimlaridan tahsil olib, ilmini kamolga yetkazdi. Olim Qur'oni karim ma'nolarining o'zbekcha izohli tarjimasini tayyorlashdek ulkan vazifani sharaf bilan ado etdi hamda uning tarjimasini O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari boshqarmasi o'tkazgan tanlovda eng yaxshi deb topildi. Asar ilk nashrlarida «Qur'oni karim. O'zbekcha izohli tarjima», deb atalgan. U 1990 yil «Sharq yulduzi» oynomasining 3-sonidan boshlab mushtariylar e'tiboriga havola



etildi. Bu birinchi tajriba bo'lgani bois, avvalo, Qur'oni karimni, arab tilini, din tarixini biladigan mutaxassis va ijodkorlardan iborat maxsus tahrir hay'ati nazoratida bosilgan. Jurnal 170 ming adadda nashr qilinar edi. Tarjima ancha tuzatishlar, to'ldirishlar bilan mukammal holga keltirilib, 1992-93 yillarda «Cho'lpon» va «G'afur G'ulom» nashriyotlarida qayta- qayta nashr qilindi. Muallifning ta'kidlashicha, ushbu tarjimaning bosma adadi (tiraji) jami ikki millionga etgan. Asar 1995 yilda o'zbek tilidan turkmanchaga tarjima qilinib, Turkmanistonda o'n ming nusxada chop etildi. 2001 yilda Bishkek shahrida lotin alifbosida va qozoq tiliga o'girilgan nusxasi nashr qilindi. Tarjimon ushbu tarjimasi asosida «Qur'oni Azim tafsiri» nomli o'zbekcha tafsirga ham qo'l urgan. Uning birinchi jildi «Fotiha» va «Baqara» suralari tafsiriga bag'ishlangan bo'lib, 2013 yilda Bishkekda nashr qilingan. Hozirda tafsirning yetti jildi bosmadan chiqqan bo'lib, ularda Qur'oni karimning taqriban yarmidan ko'pi o'zbek tiliga tarjima va tafsir qilingan. [1:79]

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf 1952 milodiy sana 15 aprel kuni O'zbekiston Respublikasining Andijon viloyatida tavallud topgan. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari yuzlab bebaho asarlar muallifidir. U kishining shoh asari Qur'oni karim tafsiriga bag'ishlangan «Tafsiri Hilol» kitobi hisoblanadi. «Tafsiri Hilol»ning birinchi nashri 1991 yili Qur'oni karimning 30-juz tafsiri bilan boshlangan. So'ngra 29, 28, 27- juzlar tafsiri birin-ketin kitobxonlar qo'liga etib bordi. Keyin muallif chet elda ilk bora 26-juzning tafsirini nashr qildirdi. So'ngra «Baqara» surasining, so'ng «Oli Imron» va «Niso» suralarining tafsiri alohida kitob bo'lib chop qilindi. Muallif Vatanga qaytgach, 2006 yili «Tafsiri Hilol» 6 juzda to'liq nashr qilindi. 2008 yil tafsirning to'ldirilgan ikkinchi nashri, 2013 yil uchinchi nashri chop etildi. Tafsirdan oyatlarning ma'no tarjimalari ajratilib, alohida bir juz etib ham nashr qilingan. [1:80] Ushbu tafsir bir-necha jihatdan afzalliklarga ega. Bu xususida muallif yozadilar: «Tushuntirish uchun qo'shilayotgan so'zlarni qavslar ichiga olib yozdik. Ular ham kifoya qilmasa, o'z



so‘zimiz bilan tushuntirish jumllarini keltirdik. Oyatlarni bir-biriga bog‘lash uchun ham tushuntirish yozdik. Ba‘zi oyatlarning tushish sabablari haqida rivoyatlar kelgan bo‘lsa, ularni ham keltirdik. Ba‘zilarini tushuntirishga tarixiy voqealarni, qissalarni keltirish zarur bo‘lsa, keltirdik. Ba‘zi shaxslar, qavmlar haqida qisqacha ma‘lumotlar ham berdik. Iloji boricha oyatlar tafsirida diyorimizda tarqalgan yo‘lni ixtiyor qildik. O‘quvchining e‘tiborini Qur‘oni karim matnidan chetlatadigan ma‘lumotlarni zikr qilmaslikka harakat qildik. Misol uchun, Alloh taolo osmonni bekamu ko‘st yaratib qo‘ygani haqidagi oyat tafsirida osmon haqidagi ilmiy ma‘lumotlarni xohlagancha keltirish mumkin, lekin biz o‘quvchilarimiz bu kabi ma‘lumotlarni boshqa manbalardan o‘qib olishgan yoki o‘qib olishar, degan fikrda ortiqcha bayonga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qildik. Qo‘lyozmni diniy aqiyda va ilmlarimizni yaxshi biladigan kishilarga ko‘rsatish bilan birga ularning fikr va mulohazalarini ham e‘tiborga oldik. Albatta, inson ojiz, agar bu kamtarona ish muvaffaqiyatli chiqsa, Allohning marhamatidan, kamchilik va xatolar bo‘lsa, Yaratganning O‘zi afv aylasin. Maqsad - kishilar ozgina bo‘lsa ham, Qur‘oni karimdan xabardor bo‘lsinlar.” [3:626]

Alimov Usmonxon Temirxon o‘g‘li hazratning qalamiga mansub “Tafsiri Irfon” asari Qur‘oni karim ma‘nolarini ona tilimizda mahorat bilan aks ettirgan muhtasham kitobdir. Muallif ushbu kitobga yozilgan so‘zboshida uning ta‘lif etilish sabablarini bayon qilib, asar haqida ma‘lumot beradilar: “Markaziy Osiyodan chiqqan yoki shu yerda o‘qib, boshqa shaharlarda istiqomat qilgan ulamolar tomonidan yaratilgan bundan boshqa tafsirlar ham ko‘p. Masalan, tojik, tatar, o‘zbek tillarida yozilgan “Al-itqon”, “Tafsirun No‘moniy”, “Tafsiru Mavokib”, “Tafsirut-Tibyon”, “Tafsiru Mavlono Ya‘qubi Charxiy” va boshqa mo‘tabar tafsirlar mavjud. Ushbu Qur‘oni karimning ma‘nolar tarjimasini va tafsiri boshqalaridan shu bilan farqlanadiki, unda oyatlar ma‘nosi iloji boricha zamondosh o‘quvchilarimizga tushunarli, sodda va ravon bo‘lishiga harakat qilindi. Bunda oyatlar tarjimasida qavs ichidagi izohlardan iloji boricha voz kechildi. Oyatlarni



tafsir qilishda o'tmishdagi va hozirdagi ulug' mufassirlardan Abu Mansur Moturidiyning "Ta'vilotu ahli sunna", Abul Fido ibn Kasirning "Tafsirul Qur'anil-aziyim", Ibn Jarir Tabariyning "Tafsiri Tabariy", Jaloliddin Suyutiyning "Ad-Durrul mansur fi tafsiril-ma'sur", Nosiriddin Bayzoviyning "Anvarut-tanzil", Imom Abul Barakot Nasafiyning "Madorikut-tanzil va haqiqut- ta'vil", Alouddin Xozinning "Lubobut-ta'vil fi ma'onit-tanzil", Jaloliddin Mahalliy va Jaloliddin Suyutiyning "Tafsirul-Jalolayn", doktor Vahba az-Zuhayliyning "Tafsiri Munir" tafsirlari hamda rus, tatar tillaridagi tafsirlardan istifoda qilish bilan bir qatorda zamonaviy fan-texnika yutuqlari va kashfiyotlari bayon etilgan ilmiy kitoblardan ham foydalanildi. Ushbu tafsirdagi oyatlarning ma'nosi ustoz shayx Abdulaziz Mansur janoblarining "Qur'oni karim ma'nolari tarjimasini" asosida o'girildi" [2:5]

Shayx Alouddin Mansurning "Qur'oni Azim muxtasar tafsiri"da o'tgan tafsirchi ulamolar izidan borilib, har bir oyat ma'nosini tarjima qilishdan tashqari unga uch turli izoh ham qo'shilgan. Dastlab har bir sura oldida o'sha suraning qisqacha mazmuni qilindi, so'ng oyatlar tarjimasini orasida qavs ichida qisqacha izohlar berilgan. Bundan tashqari ayrim tushunilishi o'ta murakkab bo'lgan oyatlar ostida alohida izohlar qo'shilgan. Shuningdek, oyat tarjimasini bilan izohlar o'rtasidagi farq aniq bo'lishi uchun ikki turli harf qo'llanilgan: oyat tarjimasini qabariq - qora harfda, har bir sura oldidagi va qavs ichidagi izohlar hamda ayrim oyatlar ostidagi alohida izohlar yozma (kursiv) harfda berilgan.

Shayx Abdulaziz Mansurning "Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri"da ham bir qancha e'tiborga molik jihatlar mavjud. Junladaan, mazkur tafsirning hanafiy mazhabiga mansub mashhur mufassirlarning tafsir kitoblariga asoslangan holda tayyorlangani, boshqa mazhablarga doir tafsirlardan ham kerakli joylarda foydalangan holda fiqhiy masalalar bo'yicha to'rt mazhab o'rtasidagi farqlar ham aytib o'tilgani uning alohida xususiyatlaridandir. Shuningdek, oyatlarning tarjimasida arabcha matn ma'nosi imkon qadar so'zma-so'z, qulay tarzda ifoda etilganligi ham uning ommabopligini saqlagan holda qiymatini



oshirgan. Kitobning so‘ngi nashrida qo‘shimcha yordamchi so‘z va izohlar qavs ichida, tafsir kitoblar va boshqa foydalanilgan manbalarning nomlari esa iqtiboslardan keyin qisqartma shaklda ramziy harflar bilan berilgan.

O‘zbek tilida yozilgan tafsirlardagi ba’zi farq va o‘xshashliklar: Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Tafsiri Hilol” asarlarida Qur’on oyatini Qur’on oyati bilan tafsir qilganlar va xuddi shu yo‘nalish Usmonxon Alimovning “Tafsiri Irfon”larida ham ko‘rinadi. Tafsiri Hilol va Tafsiri Irfondagi o‘xshash jihatlar har bir oyatga alohida to‘xtalib tafsir berilishidir. Abdulaziz Mansurning tafsirlarida esa suralarga umumiy to‘xtalib, qisqa izoh berib o‘tilgan. Mazkur tafsirda kuzatish mumkin bo‘lgan yana bir farq-qavs ichida oyatlarga izoh berishdan chekinilganligi. Boshqa tafsirlarda esa, buning aksi. “Qur’oni karimning ma’nolari tarjimasi va tafsiri”ning so‘ngi nashrlari Yevropa musulmonlari uchun yozilgan tarjimali Qur’on kabi, arabiy matn bilan birga mus’haf sahifalari berilib, uning ostida izoh va atrofidan ma’noviy tarima, tafsirlari joylashtirilgan. Bu o‘quvchi uchun qulay bo‘lib, mutolaa davomida asl matn bilan tarjimani solishtirish imkoniyatini beradi.

Xulosa. Tafsir ilmi shunday ilmki, u hech qachon eskirmaydi. Bu ilm Zamon va davrlar o‘tishi bilan yangilanib, o‘sha davr ehtiyojlari, muammolarini qamrab olib rivojlanib boradi. Yurtimizda bugungi kunda ham tafsir ilmi borasida shu davrgacha qilingan ishlardan-da ortiqroq e’tibor qaratilmoqda desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Chunki bugungi globallashuv jarayonlarida bu ilmning mohiyatini yanada kengroq yoritib berishga ehtiyoj ortishi soha mutaxassislari zimmasiga alohida mas’uliyat yuklamogda.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI

1. M.M.Agzamova. Islomshunoslik. darslik / M.M.Agzamova Toshkent “Ozbekiston xalqaro islom akademiyasi” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021. –176 b.
2. Shayx Usmonxon Temurxon Samarqandiy. Tafsiri Irfon, Toshkent: “Sharq” HMAK, 2019. – 752 b.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Tafsiri Hilol. 6-juz. Tuzatilgan va to‘ldirilgan qayta nashr/Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. T.: «Sharq», 2012. – 640 b.



TECHNIQUES FOR ENHANCING ENGLISH VOCABULARY

Azamatova Shakhzoda Isomiddinovna

Student of Samarkand Institute of Foreign Languages

sazamatova137@gmail.com

Abstract:

Many teachers have long wrestled with the question of how to teach language successfully. Following a brief history of the growth of English teaching methods, these strategies include creating student curiosity and interest, using part-of-speech conversion, syntactic analysis, formative assessment, and the game method. This strategy has drastically enhanced students' vocabulary mastery, which is an essential and fundamental component of teaching English. Thus, effective and adequate vocabulary instruction will considerably contribute to the improvement of general English education. According to the findings of this study, implementing this method improves student learning. Increasing your vocabulary. Vocabulary, like the bricks that build a home, is the foundation and most crucial component of teaching English. If kids have extensive

Key words: Vocabulary in English; Learning Strategies; Teaching English.

1.Introduction:

The word "vocabulary instruction" has a lot of weight. To fully understand a word, you must study its pronunciation, spelling, colloquialisms, syntax, and form (1). However, linguists have long overlooked English vocabulary education studies. "Vocabulary education has been ignored for a long time," say Carter and McCarthy (2,3). All studies show that when vocabulary learning takes place in the classroom, research on specific teaching approaches is ignored." This article presents numerous efficient English vocabulary teaching approaches for English instructors, based on a brief history of English teaching methods evolution. Students' vocabulary learning is an important and fundamental aspect of teaching English,



which greatly aids. When it comes to teaching English, teaching vocabulary efficiently and effectively will go a long way.

2. Results and Discussion

This technique dates back to the 1500s. There are two options: reciting grammatical rules and translating sentences. When it comes to learning vocabulary, teaching English vocabulary ranks second to reading classical literature (4,5). Listening and speaking do not serve to reinforce the words read aloud in class. Flouting has been the primary method since the late 1800s. The direct technique necessitates that each phrase be heard and the student's handwriting be assessed afterwards. Given the inadequacies of the direct technique, numerous British and American academics began to use more modern language-learning strategies(6). A word frequency and idiom table survey was utilized to modify the text and improve the quality of foreign language teaching(7). Following World War II, the USA word frequency and idiom table survey were used to rewrite the text and enhance foreign language teaching quality(7). After Globe War II, the United States improved how it teaches foreign languages to prepare its troops better to fight in various conflicts across the world. Used structural linguistics and behaviorist psychology used structural linguistics and behaviorist psychology to create the listening-talking technique. A system of rules controls language, according to structural linguists.

This system is made up of grammar. Language instruction aims to help students identify and explain the connections among the many components of a language's internal structure. Structural linguistics considers syntax to be the essential teaching material when it comes to language. Some students may benefit from it in that it helps them learn the language more methodically. Chomsky's theories of language acquisition and language skills started to impact linguists in the 1970s, and it became clear that crucial teaching elements should focus on helping students communicate effectively(8). As a result, the use of the communicative approach is on the rise. Language acquisition and communicative language function are at the



heart of the Hymes theory's ultimate aim in education. Communication-based instruction follows a set of well-defined teaching philosophies(9,10).

This, in turn, will lead to a solid intrigued in learning. Instructors may appear understudies how to utilize English in different ways, counting by letting them see movies, tune in to sound, and utilize other effective strategies to provoke their intrigued within the dialect. The surprising abilities of instructors, such as their authority of a endless lexicon in perusing, tuning in, talking, and composing, may moreover be utilized to fortify a student's intrigued in learning. When a instructor is attempting to provoke students' interest in learning English lexicon, there are many rules. Beginning with articles that have lexical challenges and modern terms beneath worthy talk control, the teachers ought to slowly lock in students at that level. Moment, educates ought to help understudies in realizing their full dialect learning potential, which can boost their self-confidence and capacity to think about. Third, instructors ought to back children with restricted lexicon by recognizing their enhancement and positive support within the classroom. Fourth, teaches may donate input on learning results in stages all through the instructing prepare to dynamically learn and learn from enlightening. As a result, the educators may too treat the students with regard and nobility, which makes a difference construct their learning certainty and piques their interest. In the cloze examination and blank filling exercises, children often exhibit a tendency to alter the parts of speech they employ. This behavior can serve as an indication of the extent and quality of their vocabulary. Nevertheless, teachers frequently urge their students to expand their vocabulary knowledge base during class, without providing any additional explanations. Due to the basic and easily comprehensible nature of the information they possess, students are unable to employ language flexibly. In order to assist students in applying their newly acquired knowledge to real-life scenarios, teachers must demonstrate how to integrate English into their lessons. By utilizing



the conversion aspect of the discussion, here is an excellent illustration of how to teach the term "transport".

Transportation vs. Transportation n. a. Local buses are convenient for navigating our city. In the cloze examination and blank filling exercises, children often exhibit a tendency to alter the parts of speech they employ. This behavior can serve as an indication of the extent and quality of their vocabulary. Nevertheless, teachers frequently urge their students to expand their vocabulary knowledge base during class, without providing any additional explanations. Due to the basic and easily comprehensible nature of the information they possess, students are unable to employ language flexibly. In order to assist students in applying their newly acquired knowledge to real-life scenarios, teachers must demonstrate how to integrate English into their lessons. By utilizing the conversion aspect of the discussion, here is an excellent illustration of how to teach the term "transport".

Transportation vs. Transportation n. a. Local buses are convenient for navigating our city. Teachers should place greater emphasis on the development of students' cognitive abilities and academic progress, rather than solely on their grades. Consequently, educators should not solely rely on summative assessment. Instead, they should prioritize formative assessment. Formative evaluation includes diagnostic tests, which are a series of formal and informal assessment procedures conducted by teachers throughout the learning process to adjust teaching and learning activities in order to enhance student performance. This process typically involves providing students and teachers with qualitative feedback (as opposed to grades) that focuses on specific topics and performance. Conversely, summative assessment aims to monitor educational accomplishments, usually for external accountability purposes.

This assessment allows students to receive prompt feedback from their instructors, enabling teachers to make timely adjustments and improvements to their teaching



methods for maximum impact. Teachers play a crucial role in helping students organize the vast English vocabulary they encounter.

To enhance word retention, students can be encouraged to maintain a vocabulary notebook and organize words into groups or themes instead of simply listing them. By consciously organizing their vocabulary, students will significantly improve their ability to remember words. Additionally, students can utilize their word store to create a network of categorized words in their notebooks, enabling them to mix and use these terms effectively without confusion. Periodic competitions can be held by the instructor to assess the students' overall word count, with their performance recorded as a formative assessment each time.

The innovative game teaching method effectively merges "game" and "teaching." This approach can spark students' interest in learning in general and ignite their enthusiasm for applying their knowledge practically. Amina Dyussenova's book "Active Teaching via Games," translated by Xiaoqing Wang and published by East China Normal University Press in 2010, is a comprehensive resource on using games to teach English vocabulary. The game "Finding Treasure" is a prime example of game-based learning, helping students overcome their fear of written English materials by engaging in information organization, reading exercises, and vocabulary expansion. It is crucial to select magazines that match the students' English proficiency level and capture their interest, such as popular publications, teen magazines, cooking magazines, and home magazines. Before distributing lists and magazines, the instructor should explain the game with examples to each team. Avoid going through vocabulary terms and focus on demonstrating how to play the game. Additionally, assign specific roles to each team member in advance.

1. There will be plenty of laughter, conversation, and participation. Throughout the competition, the team will need to organize the words on the list in the correct order. One person may need to read the text while another person locates and arranges the images. The process of identifying English words will continue until



the final member of each group finishes it. Subsequently, each group must select a reader and a presenter. The presenter will indicate the correct image once the reader has read each phrase. There will be much discussion about the existence of the pictures as they are labeled throughout the process until points are awarded. The team with the most accurate images at the end of the round wins. This game involves repetition of the same terms, including visual identification, writing and reading exercises, presentation exercises, and letter-sound recognition. The approach, group communication skills, and teamwork are all up to the students. Students can enjoy competing in this game, inspired by the "treasure hunt" concept, while also learning essential reading skills influenced by their environment. By selecting keywords and interpreting visuals, students gather textual information. This treasure hunt technique effectively reinforces vocabulary knowledge and evaluates students' reading and speaking skills. Consequently, the game technique serves as a practical and comprehensive vocabulary exercise.

3. In conclusion, English is the official language in numerous countries worldwide, and the methods of teaching vocabulary are continuously evolving. Teaching vocabulary is not only essential but also enjoyable and innovative. The preceding discussion initially presents an overview of the history of English teaching techniques, followed by illustrations of effective strategies for English teachers to teach vocabulary, such as sparking students' curiosity and interest, altering parts of speech, utilizing syntactic analysis, employing formative assessment, and incorporating the use of games. The implementation of these strategies proves to be effective in terms of students' vocabulary acquisition. Similar to the bricks that form a house, vocabulary serves as the foundation and crucial component of English instruction. If students possess a vast vocabulary repertoire, it will greatly benefit English education as a whole. Consequently, the authors of this paper are



confident that this essay will provide valuable insights into the enduring challenge of teaching language effectively and efficiently.

References:

- [1] R. VanDeWeghe's article titled "What about Vocabulary Instruction?" was published in the English Journal in 2007, volume 97, issue 1.
- [2] D. McGuinness discusses the relationship between vocabulary and reading in the book "Language Development and Learning to Read" published in 2018.
- [3] J. Treffers-Daller explores the connection between vocabulary and reading in the book "Vocabulary and the Four Skills" published in 2020.
- [14] JM. Martín-Martín examines whether translation students learn vocabulary while translating in the journal Atlantis, volume 35, issue 2, in 2013.
- [5] P. Nation suggests the idea of reading a whole book to learn vocabulary in the International Journal of Applied Linguistics, volume 169, issue 1, in 2018.
- [6] A. Hapsari conducts a survey study on language learning strategies in English language learning in the Linguistics and Pedagogy Journal of English Teaching Studies, volume 1, issue 1, in 2019.
- [7] Y. Zhou and M. Wei discuss strategies in technology-enhanced language learning in the journal Studies in Second Language Learning and Teaching, volume 8, issue 2 (Special Issue), in 2018.
- [8] J. Agassi examines the novelty of Chomsky's theories in the article "The novelty of Chomsky's theories" published in the Future Cognitive Revolution in 1997.
- [9] D. Hymes discusses Dell Hymes' work in the field of ethnography and communication in the article "Dell Hymes -S. P. E. A. K. I. N. G." published in Ethnography and Communication in 2012.
- [10] D. Hymes explores Dell Hymes' contributions to ethnography and communication in the article "Dell Hymes - S." published in Ethnography and Communication in 2012.



ORGANIK REAKSIYALAR MEKANIZMLARI

Qo'chqorova Dinora Bahrom qizi¹

Iskandarov Abror Iskandar o'g'li²

Tillayev Sanjar Usmonovich³

¹Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali

Kimyo yo'nalishi talabasi

²Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali

“Aniq va tabiiy fanlar” kafedrasida assistenti

³Samarqand davlat universiteti dotsenti

Email address: Kuchkorovadinora0615@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada organik reaksiyalarning borishi, reaksiya mexanizmlariga qarab maxsulotni hamda reaksiya maxsulotlariga qarab reaksiya mexanizmlarini topish yo'llari keltirib o'tilgan

Kalit so'zlar: reaksiya mexanizmi, substrak, reagent, radikal, nukliofil, elektrofil.

Organik kimyoning asosiy muammolariga ma'lum bir reaksiyaning borishi va asosiy mahsulotlarini oldindan ayta olish kiradi. Reaksiyani bashorat qilish fundamental ilmiy muammo bo'lishidan tashqari, yangi kimyoviy tajribalar va sintezlarni rejalashtirish kabi bir qancha amaliy dasturlar uchun ham muhimdir.^[2]


Reaksiya mexanizmi - bu dastlabgi reaktivlarning bosqichma-bosqich mahsulotga aylanishi bilan boradigan kimyoviy jarayonning tavsifi. Muhim jihati shundaki, bir nechta asosiy qoidalarga amal qilish orqali reaksiyaning mumkin



bo'lgan natijasini taxmin qilish imkoni mavjud.^[3] Reaksiya mexanizmini yozishda jarayondagi dastlabki moddalarning tuzilishi yani elektron zichlikning taqsimlanishi va ularda qanday bog'lanish mavjud ekanligi, va reaksiyon qobiliyatiga e'tibor qaratish lozim. Organik reaksiyalarning xili ko'p. Ular o'zlarining o'ziga xos belgilariga qarab ajratiladi.^[4]

Organik kimyoda reaksiyada ishtirok etayotgan moddalardan qay biri asosiy modda ekani aniqlab olinadi va ushbu modda substrak, unga ta'sir etuvchi modda esa reagent deyiladi. Masalan, metan va xlor o'rtasidagi reaksiyada metan substrak, xlor esa reagent hisoblanadi. Reaksiyada substrak va reagentni ajratib olish juda muhim. Chunki ma'lum bi reaksiyada substrak bo'lgan modda, boshqa bir reaksiyada reagent bo'lishi ham mumkin. Reaksiya ikkita organik modda ishtirokida borayotgan bo'lsa, ulardan qay biri jarayonning klassifikatsiyalanishida ishtirok etsa, o'sha modda reagent sanaladi. Agarda reaksiya organik va noorganik moddalar orasida borayotgan bo'lsa, unda noorganik modda reagent hisoblanadi.^[5]

Substrak va reagent o'rtasidagi bog'lanishning o'zgarish tabiatiga ko'ra, barcha kimyoviy reaksiyalar radikal va ion radikal va ion reaksiyalariga ajratiladi. Radikal reaksiyalarda kimyoviy bog'lanishning gomolitik uzilishi ikkita o'xshash zaryadlangan zarrachalar, ya'ni radikallarning hosil bo'lishi bilan sodir bo'ladi. Bog'dagi elektron juft nosimmetrik uziladi va har bir atomda bittadan elektron qoladi. Gomolitik uzilish yuqori harorat yoki $h\nu$ ta'sirid sodir bo'ladi.




Radikal juftlashmagan elektronni o'z ichiga olgan zarrachadir. Barcha radikal reaksiyalar uning hosil bo'lishi bosqichidan o'tadi.

Agar atomlar orasidagi kimyoviy bog' geterolitik uzilsa, musbat va manfiy zaryadlangan qarama-qarshi zaryadli zarrachalar hosil bo'ladi. Ular elektrofil va nyukliofil deb nomlanadi.




Zaryad tashuvchi organik ionlar karbokationlar yoki karbanionlar deyiladi. Radikallar, karbokationlar va karbanionlar turli xil organik reaksiyalar jarayonida hosil bo'ladi va barqarorroq molekulalarga tez aylanadigan beqaror oraliq moddalardir va ularning barqarorligi o'rinbosarlarning elektron ta'siriga bog'liq.^[6]

Nukleofillar elektronga moyil markazni qidiradigan reaktiv turlardir. Ular manfiy yoki qisman manfiy zaryadli atomga ega va bu atom nukleofil atom deb ataladi:




Agar reaksiya dastlab manfiy zaryadli yoki o`zida bog` hosil qilishda qatnashmagan erkin electron juft tutuvchi reagentning elektronga moyil bo`lgan substrakka hujumi bilan boshlansa, bunday reaksiyalar nukliofil reaksiyalar deyiladi va jarayonda ishtirok etgan reagent nukliofil reagent deyiladi.



Yuqoridagi reaksiyada etil spirit substrak, HCl esa nukliofil reagent.


Elektronga moyil markazga ega bo'lgan reaksiyaga kirishuvchi turlarga elektrofillar deyiladi. Bu elektron tanqis markazlar odatda musbat yoki qisman musbat zaryadga ega bo'ladi, ammo neytral molekula holidagi elektrofillar ham mavjud:





Elektronga moil bo`lgan reagent elektronga boy bo`lgan substrak bilan yaxshi ta`sirlashadi. Ushbu reagent elektrofil reagent, uning ishtiroki bilan



boradigan reaksiya esa elektrofil reaksiya deyiladi. Quyidagi reaksiyada propilen substrak, HBr esa elektrofil reagent:



Shu bilan birga organik reaksiyalarni umumiy jarayon tezligini belgilovchi bosqichda ishtirok etuvchi molekulalar soniga qarab monomolekulyar va bimolekulyar reaksiyalarga farqlash mumkin.



Reaksiya natijasiga qarab organik reaksiyalarni bir necha guruhlarga bo'lish mumkin:

- Almashinish reaksiyalari – S Bunda reaksiya substrak molekuladagi biror atom yoki atomlar guruhining reagentdagi biror atom yoki atomlar guruhiga almashinishi bilan boradi:

Birlamchi spirtning H-Gal bilan rux xlorid ishtirokidagi reaksiyasi

Almashinish reaksiyalarining ham bir qancha turlari mavjud ya'ni, radikal almashinish reaksiyalari – S_R , nukliofil almashinish reaksiyalari – S_N , elektrofil almashinish reaksiyalari – S_E .

Aromatik halqaning nitrolanish reaksiyasi

- Birikish reaksiyalari – A yoki Ad. Bunda jarayondagi ikkita va undan ortiq molekulalarning o'zaro birikishidan yangi modda hosil bo'ladi:

Alkinlarga spirtlarning alkogolyat ishtirokida birikish reaksiyasi

Birikish reaksiyalarini ham radikal birikish - Ad_R , nukliofil birikish - Ad_N va elektrofil birikish - Ad_E reaksiyalariga ajratish mumkin.



Alkinlarga suvning birikish reaksiyasi

- Ajratish, tortib olish ya'ni, elimerlanish reaksiyalari – E. Organik reaksiyalarning bu turida molekula tarkibidagi biror atom yoki atomlar guruhining chiqib ketishi natijasida, qo`shbog` tutgan yangi molekula hosil bo`ladi:

Etil spirtidan sulfat kislota ishtirokida etilen olish

Elimerlanish reaksiyalarini ham o`z navbatida, ajralayotgan molekulaning tabiatiga ko`ra degidratlanish, degidrogalogenlanish, degalogenlanish kabi turlarga ajratish mumkin.^[7]

Xulosa

Elektronga moyil markazga ega bo'lgan reaksiyaga kirishuvchi turlarga elektrofillar deyiladi. Elimerlanish reaksiyalarida molekula tarkibidagi biror atom yoki atomlar guruhining chiqib ketishi natijasida, qo`shbog` tutgan yangi molekula hosil bo`ladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Miller A., Solomon P. H. Writing reaction mechanisms in organic chemistry. – Academic Press, 2000.
2. Chen J. H., Baldi P. No electron left behind: a rule-based expert system to predict chemical reactions and reaction mechanisms //Journal of chemical information and modeling. – 2009. – T. 49. – №. 9. – С. 2034-2043.
3. Dewick P. M. Essentials of organic chemistry: for students of pharmacy, medicinal chemistry and biological chemistry. – John Wiley & Sons, 2013.



4. Organik birikmalarning tuzilishi va reaksiyaga kirishish qobiliyati : o'quv qo'llanma / H.S.Tojimuhamedov. -Toshkent: «Go To Print», 2020-28 0 b
5. Organik kimyo nazariy asoslari: o'quv qo'llanma: Birinchi qism/ S. Iskandarov, B. Sodiqov. – to'ldirilgan va qayta ishlangan 2-nashr. – Toshkent: Ta'lim, 2012. – 712 b.
6. Р.Л. Антипин. Механизмы органических реакций. Основные трудности изучения школьного курса органической химии. 2020.
7. Н.М.Shohiyatov, Н.О`.Хо`janiyozov, Н.S.Tojimuhammedov. Organik kimyo. Toshkent – 2014. 32-33 b.



QISHLOQ XO`JALIK ZARARKUNANDALARIGA QARSHI ISHLATILADIGA MODDALAR

Qo'chqorova Dinora Bahrom qizi¹

Iskandarov Abror Iskandar o'g'li²

Yusupov Alisher³

¹Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali

Kimyo yo'nalishi talabasi

²Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali

“Aniq va tabiiy fanlar” kafedrasida assistenti

³Samarqand davlat universiteti dotsenti

Email address: Kuchkorovadinora0615@gmail.com

***Annotatsiya:** Maqolada qishloq xo'jaligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi zararkunandalarga qarshi kurashishda kimyoviy moddalarning qo'llanilishi keltirib o'tilgan*

***Kalit so'zlar:** Zararkunandalar, sintetik pestitsidlar, entomopotogen zamburug'lar, insektitsidlar*

Hasharotlar zararkunandalariga qarshi kurashda sintetik pestitsidlar kashf etilguncha ustunlik qilar edi. Bu *Reychel Karsonning 1962-yilda dunyoni sintetik kimyoviy moddalar keltirib chiqaradigan xavf-xatardan uyg'otadigan “Jim buloq” asari nashr etilgunga qadar davom etdi. O`shandan beri zararkunandalarga qarshi kurashda xavfsiz va samarali bo`lgan muqobil mahsulotlarni ishlab chiqarishga katta ahamiyat berilmoqda. Ushbu sharh*



tijoratda mavjud bo`lgan entomopotogen zamburug`lar (EPF) ni va ularni sintetik kimyoviy moddalar o`rniga ishlatish istiqbollarini ko`rib chiqishga qaratilgan.

*Xabar qilinishicha, hasharotlar uchun patogen deb belgilangan 800 dan ortiq zamburug`larning kamida 12 turi bilan 171 dan ortiq mikoinsetitsidlar ishlab chiqarilgan. Ushbu mahsulotlarning aksariyati **Beauveria bassiana**, **Metarhizium anisopliae** va **Isaria fumosoroseus** propagullari asosida ishlab chiqilgan. Hozirda ular Shimoliy va Janubiy Amerika, Yevropa va Osiyo mamlakatlarida, Afrika va Yaqin Sharqda uchraydi.*

Mikoinsetitsidlar qishloq xo`jaligida iqtisodiy ahamiyatga ega bo`lgan hasharotlar zararkunandalariga qarshi kurashda samarali ekanligi aniqlandi. Biroq ushbu mahsulotlarni muvaffaqiyatli sotish va ulardan foydalanish ancha sekin kechdi. Bunga asosan katta xarajatlar, ishlab chiqarish samaradorligining pastligi hamda ekologik sharoit to`sqinlik qildi. Ammo mikoinsetitsidlar asta-sekin mashhur bo`lib bormoqda. Shu boisdan mikoinsetitsidlar dala ekinlarini hasharotlar zararkunandalaridan himoyalashda asosiy o`rinni egallaydi.

Entomopotogen zamburug`lar (EPF) hasharotlar uchun patogen bo`lgan qo`ziqorin turlaridir. Ushbu qo`ziqorin patogenlari hasharotlar populyatsiyasi dinamikasida muhim rol o`ynaydi, bu ularni hasharotlar zararkunandalariga qarshi kurashning eng dastlabki agenti hisoblanadi. EPF bilan dastlabki dala sinovlari 1888-yilda rus mikrobiologi Elie Metchnikoff bilan boshlandi [1]. Metchnikoff sterillangan pivo pyuresi ustida qo`ziqorin konidiyalarini hosil qildi va dala ekinlariga yoyish uchun kulturalarni qum granulari bilan birlashtirdi. Natijalar bir-biriga zid bo`lsada, Metchnikoffning ishi dunyo bo`ylab qiziqish uyg`otdi va Yevropa hamda AQSH da hasharotlar zamburug`lariga qarshi “do`stona zamburug`lar” bilan tajriba o`tkazish dasturlariga olib keldi [2].



EPF bo'yicha so'ngi o'zgarishlar shuni ko'rsatadiki, ular zararkunandalarga qarshi integratsiyalashgan strategiyaning ajralmas qismi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Hasharotlarning patogen zamburug'lariga asoslangan ko'plab bioinsektitsidlar ishlab chiqilgan va tijora maqsadida ishlab chiqarilgan [3]. Biologik nazoratda EPFni qo'llash asosan atrof-muhitni muhofaza qilish, oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq muammolar va insektitsidlarga chidamli turlarning ko'payishi oqibatida an'anaviy kimyoviy moddalarning ishlamay qolishi tufayli ortib bormoqda[4].

Erkim zararkunandalarga qarshi kurashish uchun EPF ning bir necha tijorat formulalari ishlab chiqilgan. EPF tomonidan ishlab chiqilgan 171 mahsulot orasida *Beauveria bassiana* asosidagi mahsulotlar umumiy mahsulotlarning **33,9% ni**, *Metarhizium anisopliae* **33,9% ni**, *Isaria fumosoroseus* va *Beauveria bassiana* mahsulotlari mos ravishda **5,8 va 4,1% ni** tashkil qiladi [5].

Entomopatogen zamburug'lardan foydalanish afzalliklari:

- Ularning qoldiqlari organizmda ma'lum ta'sir ko'rsatmaydi;
- Ular sintetik kimyoviy insektitsedlar bilan birga qollanilishi mumki;
- Ular zaxarli emas;
- Ideal atrof-muhit sharoitida o'z-o'zini davom ettiradi.

Entomopatogen zamburug'larning cheklovlari:

- Tijoriy maqsadlarda ishlab chiqarish juda qimmatga tushishi mumkin;
- Ko'pincha sekin ta'sir qiladi;
- Patogenni foydali tarzda qollashdan oldin zararkunanda mavjud bo'lishi kerak.

XULOSA



Hasharotlar uchun patogen zamburug`lar qishloq xo`jaligida zararkunandalarga qarshi kurashning asosiy tarkibiy qismi bo`lishi aniqlanganidan beri hukumatlar, muassalalar, tashkilotlar va shaxslar tomonidan ularning imkoniyatlarini o`rganish maqsadida bir qancha keng ko`lamli tadqiqotlar olib borildi. Hozirgi kunga qadar bir qator mamlakatlarda iqtisodiy ahamiyatga ega bo`lgan ko`plab zararkunandalarga qarshi bir qancha mikroinsektitsilar ishlab chiqilgan va qo`llanilmoqda. Shunga qaramay, hasharotlar uchun patogen bo`lgan ko`plab zamburug`lar hali ham kashf qilinmoqda, bu zararkunandalarga qarshi kurashda entomopatogen zamburug`lardan foydalanish uchun yorqin kelajakni taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vega FE, Goettel MS, Blackwell M, Chandler D, Jackson MA, Keller S va boshqalar, Fungal entomopathogens: Yangi tushunchalar ekologiyasi. Qo`ziqorin ekologiyasi. 2009; 2:149-15.
2. Lord J.C Metchnikoffdan Monsanto gacha va undan tashqarida: microbial nazorat yo`li. Umurtqasizlar patologiyaasi jurnali, 2005; 89:19-29
3. Hafiza T.G., Shafqat S, Favad ZAK. Entomopatogen zamburug`lar hasharotlar zararkunandalariga qarshi samarali taktika sifatida: ko`rib chiqish. Amaliy fanlar va biznes iqtisodiyoti. 2004; 1(1):10-18.
4. Shaid AA, Rao AQ, Baxsh A, Husnain T. Entomopatogen zamburug`lar biologic nazoratchilar sifatida: ularning virulentligi va patogenligi haqida yangi tushuncha. Arxivlar, Biologiya fanlari Bengrage, 2012; 64(1):21-42.
5. De Faria MR, Rayt SP. Mikroinsektitsidlar va mikroakaritsidlar: butundunyo bo`ylab qamrovi va formulalar turlarining xalqaro tasnifi bilan to`liq ro`yxat. Biologil nazorat, 2007; 43:237-256.



SURMALI, QO'RG'OSHIN KISLOTALI, ISHQORIY HAMDA LITYUM- IONLI AKKUMULYATORLAR VA ISHLASH PRINSIPLARI

Qo'chqorova Dinora Bahrom qizi¹

Iskandarov Abror Iskandar o'g'li²

Yusupov Alisher³

¹Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali

Kimyo yo'nalishi talabasi

²Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali

“Aniq va tabiiy fanlar” kafedrası assistenti

³Samarqand davlat universiteti dotsenti

Email address: Kuchkorovadinora0615@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada akkumulyatorlarning turlari va ishlash prinsiplari hamda zaryadlash usullari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Akkumulyatorlar, Surmali akkumulyator, Qo'rg'oshin kislotali akkumulyator, Lityum-ion batareyalar, Alyuminiy-ion batareyasi

Ko'p marta zaryadlanishi mumkin bo'lgan batareyaning birinchi prototipi 1803 yilda Iogann Vilgelm Ritter tomonidan yaratilgan. Uning batareyasi ellikta mis doiradan iborat ustun bo'lib, ular orasiga nam mato yotqizilgan edi. Ushbu qurilma orqali voltaic ustundan tok o'tkazgandan so'ng, u o'zini elektr manbai sifatida tuta boshladi.^[1]

Akkumulyatorlarning boshlang'ich batareyalari kimyoviy oqim manbai bo'lib, ularda oksidlanish-qaytarilish kimyoviy reaksiyalari paytida chiqarilgan erkin energiya elektr energiyasiga aylanadi. Batareyalar ikkilamchi, boshqacha aytganda, qaytariladigan, oqim manbalari – ularning ishlari zaryadlash orqali tiklanadi. Zaryadlash uchun elektr toki ikkilamchi manba orqali zaryadsizlanish vaqtida oqimga teskari yo'nalishda o'tkaziladi. Shunday qilib, batareyaning zaryadsizlanishi kimyoviy oqim manbaining erkin energiyasini elektr energiyasiga aylantirishdir.^[2]

Batareyaning ishlash prinsipi kimyoviy reaksiyaning qaytarilishiga asoslanadi. Birlamchi element spontan kimyoviy reaksiyadan foydalanadi. Zaryadlash jaraynida ikkilamchi hujayra elektrolitik hujayra (elektrolizator)




vazifasini bajaradi. Elektrolitik hujayrada elektr energiyasi kerakli kimyoviy reaksiyaga sabab bo`ladi. [3]

Akkumulyatorlar orasida kislota akkumulyatorlari mashhur. Ularning bunday atalishning sababi shundaki, kislota akkumulyatorlarida sulfat kislota elektrolit sifatida ishlatiladi. Ular ishonchli, ammo zararli bug`larning manbai hamdir, shuning uchun akkumulyator korpusi sulfat kislotaga chidamli maxsus materialdan tayyorlanadi.


Akkumulyator batareyalari elektrodlar va elektrolitlar tarkibiga ko`ra tasniflanadi. Hammasi bo`lib ularning sakkizta turi mavjud:

- Surma. Surmali akkumulyator batareyalari barcha turlardan oldin paydo bo`lgan. Batareyalarning qo`rg`oshin plitalari tarkibida surma mavjudligi uchun bu turdagi batareyalar surma deb nomlangan. Surmaning kamchiligi shundaki, u elektroliz jarayonini tezlashtiradi. Shu sababli suv intensiv ravishda qaynab ketadi. Bu qisqa tutashuvga va batareyaning shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Oyiga bir marta suvning qancha qaynaganini tekshirib, uni to`ldirib turish kerak. Surma batareyalari past narxga, oddiy texnik xizmatga ega.

- Qo'rg'oshin kislotali akkumulyator. Qo'rg'oshin kislotali akkumulyatorlarning ishlash prinsipi sulfat kislota eritmasida qo'rg'oshin va qo'rg'oshin dioksidining elektrokimyoviy reaksiyalariga asoslanadi.



Kimyoviy reaksiya (chapdan o'ngga - zaryadsizlanish, o'ngdan chapga - zaryad):



- Ishqoriy. Bunday akkumulyator batareyalarida kislota o`rniga ishqorlar : kaustik kaliy (KOH) va kaustik natriy (NaOH) ishlatiladi. Ular nisbatan yuqori energiya intensivligiga ega, asta-sekin o`z-o`zdan zaryadsizlanadiva ekologik jihatdan qulayroqdir. past kuchlanishli. Ishqoriy batareyalarning eng keng tarqalgan turlari nikel-kadmiy va nikel-metall gidrid (shuningdek, nikel-temir deb ataladi)

- Lityum-ion batareyalar. Lityum-ionli batareya elektrolitlar bilan singdirilgan separatorlar bilan ajratilgan elektrodlardan (alyuminiy folgadagi katod materiali va mis folgadagi anodli material) iborat. Lityum-ion batareyasidagi zaryad tashuvchisi musbat zaryadlangan lityum ion bo`lib, u kimyoviy bog`lanish hosil bo`lishi bilan (masalan, grafit, metall oksidlari va tuzlarida) boshqa materiallarning kristall panjarasiga kiritilgan. Grafitda LiC_6 , oksidlar (LiMO_2) va metall tuzlari (LiMRON) hosil bo`lishi bilan.



- Alyuminiy-ion batareyalari. Alyuminiy-ion batareyasi metall alyuminiy anod, grafit ko'pikli katod va suyuq ionli, yonmaydigan elektrolitdan iborat. Batareya elektrokimyoviy yotqizish printsipli asosida ishlaydi: alyuminiy anodda eritiladi, so'ngra suyuq elektrolitlar muhitida xloralyuminat anionlari grafitga aylanadi. Mumkin bo'lgan batareyani qayta zaryadlash soni quvvatni yo'qotmasdan 7,5 ming tsikldan ortiq.^[4]

- Kam surma. Surmali akkumulyator batareyalarining kichik bir turi. Suv sekin qaynatiladi. Arzon narx va o'z-o'zini zaryad qilishning past darajasi ushbu turdagi qurilmalarning afzalligi hisblanadi.^[4]

Batareya turi ishlatiladigan materiallarga qarab belgilanadi:

- Cn-Po – bu grafen-polimer batareyasi;
- La-Ft – lantan ftoridli batareya;
- Li-Ion – litiy - ion batareya (3,2-4,2 V), barcha litiy batareyalar uchun umumiy belgi;
- Ni-Cd - nikel-kadmiy batareyasi (1,2 V);
- Li-Po – litiy - polimer batareyasi (3,7 V), elektrolit sifatida polimer;
- Li-Ft – [litii-ftorli batareya](#);
- Li-Mn - LiM_2O_4 asosidagi lityum-marganets batareyasi;
- LiFeP yoki LFP - LiFePO_4 asosidagi [litii temir fosfat batareyasi \(3,3 V\)](#).
- LiFeYPO_4 – litii temir itriy fosfat (xususiyatlarni yaxshilash uchun itriy qo'shiladi);
- Li- $\text{Li}_4\text{Ti}_5\text{O}_{12}$ asosidagi [litii-titanat batareyasi \(2,3 V\)](#).
- Li-Cl - [litii-xlorli batareya](#) (3,99 V);
- Li-S - [litii-oltingugurtli batareya](#) (2,2 V);
- LMPo - [litii metall polimer batareyasi](#);
- Fe-havo - [temir-havo batareyasi](#);
- Na/NiCl - [nikel-tuz batareyasi](#) (2,58 V);
- Na-S - [natriy-oltingugurt batareyasi](#) , (2 V), yuqori haroratli batareya;
- Ni-Fe - [temir-nikel batareyasi](#) (1,2-1,9 V);
- Ni-H₂ - [nikel-vodorod batareyasi](#) (1,5 V);
- Ni-MH - [Nikel metall gidridli batareya](#) (1,2V);
- Ni-Zn - [nikel-sink batareyasi](#) (1,65 V);
- Pb - [qo'rg'oshinli akkumulyator](#) (2 V);
- Pb-H - [qo'rg'oshin-vodorod batareyasi](#);
- Ag-Zn - [kumush-sink batareyasi](#) (1,85 V);
- Ag-Cd - [kumush-kadmiy batareyasi](#) (1,6 V);
- Zn-Br – [rux - brom batareyasi](#) (1,8 V);
- Zn-havo – [rux - havo batareyasi](#);



- Zn-Cl – [ruz xlorid batareyasi](#);
- RAM (qayta zaryadlanuvchi [ishqoriy](#) marganets);
- Vanadiy batareyasi (1,41 V) Alyuminiy-grafit batareyasi (2 V) Alyuminiy ion batareyasi (2V) ^[6]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Аккумулятор электрический//Силовая электроника: краткий энциклопедический словарь терминов и определений — М.:Издательский дом МЭИ, 2008
2. <https://12v.uz/2-cat.html>
3. Гальванический элемент//Девис С., Джеймс А. Электрохимический словарь —М.:Мир, 1979
4. [Ученые разработали «аккумулятор будущего»](#)
5. <https://www.prom.uz/section/akkumulyatory-avtomobilnye/>
6. [Ученые создали гибкие аккумуляторы, которые заряжаются за минуту](#) // vesti.ru, 7.04.2015



IOT YORDAMIDA TIBBOYOTDA TASHXIS QO‘YISHNI AVTOMATLASHTIRISH

Djurabayeva Go‘zal Sabirjanovna

“Toshkent International University of education” (TIUE) universitetida Axborot texnologiyalari kafedrasida assistent o‘qituvchisi.

E-mail: guzalsabirovna43@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada IoT (Narsalar Interneti) texnologiyalarining tibbiyotdagi tashxis qo‘yish jarayonini avtomatlashtirishdagi ahamiyati o‘rganilgan. IoT tizimlari orqali kasal shaxslarning ma‘lumotlarini real vaqt rejimida olish, tahlil qilish va tezkor saralash imkoniyatlari, shuningdek katta ma‘lumotlar tahlili asosida tashxisni yaxshilash va tezlashtirish jarayonlari tahlil qilingan. Maqolada IoT texnologiyalarining tibbiyot sohasidagi ushbu funksiyalari, afzalliklari va tadbiq etish masalalari yoritilgan.

Maqolada ko‘rsatilishicha, IoT tizimlari orqali olingan o‘lchov ma‘lumotlari, sensor ma‘lumotlari va boshqa diagnostika ma‘lumotlari real vaqt rejimida shifokorlarga uzatiladi. Bundan tashqari, katta ma‘lumotlar tahlili asosida kasalliklar to‘g‘risidagi bilimlar bazasi to‘ldiriladi va tashxis jarayoni optimallashtirilib, yanada aniqlashtirilib boriladi. Natijada shifokorlar o‘z diqqatlarini kasal shaxsning murakkab holati bilan ishlashga qarata oladilar.

Xulosada, IoT texnologiyalarining tibbiyotdagi ushbu funksiyalari tashxisni yaxshilash, tezlashtirish va aniqlashtirish imkonini beradi. Bu esa sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish va ahamiyatli tibbiy o‘zgarishlarni ta‘minlashi mumkin.

Kalit so‘zlar: Internet of Things (IoT), tibbiy diagnostika, tashxis qo‘yish, Avtomatlashtirish, katta ma‘lumotlar tahlili, sensorlar texnologiyasi, ovoz interfeyslari, fog computing.

Automation of diagnosis in medicine using IoT

Guzal Djurabaeva Sabirjanovna



An assistant teacher at the Department of Information Technologies at “Tashkent International University of Education” (TIUE).

E-mail: guzalsabirovna43@gmail.com

Abstract. This article examines the importance of IoT (Internet of Things) technologies in automating the process of diagnosis in medicine. The possibilities of real-time acquisition, analysis, and rapid sorting of patient information through IoT systems, as well as the processes of improving and accelerating diagnosis based on big data analysis, were analyzed. The article describes these functions, advantages and implementation issues of IoT technologies in the field of medicine.

The article shows that measurement data, sensor data and other diagnostic data obtained through IoT systems are transmitted to doctors in real time. In addition, on the basis of the analysis of big data, the knowledge base about diseases will be filled, and the diagnosis process will be optimized and clarified. As a result, doctors can focus on working with the complex condition of the sick person.

In conclusion, these functions of IoT technologies in medicine allow to improve, speed up and clarify the diagnosis. This can lead to quality health care and meaningful medical change.

Key words: Internet of Things (IoT), medical diagnostics, diagnosis, Automation, big data analysis, sensor technology, voice interfaces, fog computing.

Kirish. So‘nggi yillarda tibbiyot sohasi jahon miqyosida jadal rivojlanib kelmoqda. Kasalliklarni aniqlash, tashxis qo‘yish va davolash jarayonlari samaradorligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanilmoqda. Ushbu jarayonda Narsalar Interneti (IoT) texnologiyalarining ahamiyati yanada ortib bormoqda.



IoT tizimlari orqali kasal shaxslarning ma'lumotlarini real vaqt rejimida yig'ish, qayta ishlash va analitika qilish imkoniyatlari mavjud. Shuningdek, katta ma'lumotlar tahlili vositasida tashxis qo'yish jarayonini yaxshilash va tezlashtirish mumkin. Bu esa shifokorlar uchun o'z navbatida kasal shaxsning holati bilan chuqurroq shug'ullanishlariga imkon yaratadi.

Ushbu maqolada IoT texnologiyalarining tibbiyotdagi tashxis qo'yish jarayonini avtomatlashtirishdagi roli va ahamiyati batafsil o'rganiladi. Shuningdek, ushbu texnologiyalarni tibbiyot sohasida qo'llash imkoniyatlari va ularning afzalliklari tahlil qilinadi.

Asosiy qism

IoT texnologiyalarining tibbiyotdagi roli

Narsalar Interneti (IoT) tizimlari tibbiyot sohasida keng qo'llanilmoqda. Bu texnologiyalar quyidagi asosiy yo'nalishlarda o'z samaradorligini namoyon etmoqda:

1. **Real vaqt ma'lumotlarini yig'ish va uzatish:** IoT qurilmalari (sensor, kamera va boshqalar) orqali kasal shaxslarning holati to'g'risidagi ma'lumotlar real vaqt rejimida yig'iladi va shifokorlar, tibbiy markazlarga uzatiladi.
2. **Diagnostika ma'lumotlarini tahlil qilish:** Yig'ilgan ma'lumotlarni tibbiy ma'lumotlar bazasi va katta ma'lumotlar tahlili usullari yordamida tahlil qilib, tashxisni avtomatlashtirishga imkon yaratadi.
3. **Tashxis qo'yish jarayonini yaxshilash:** Katta ma'lumotlar tahlili vositasida kasalliklarning yangi belgilari, rivojlanish dinamikasi va boshqa ko'rsatkichlar aniqlangan holda tashxis qo'yish jarayoni takomillashtiriladi.
4. **Tezkor tashxis qo'yish:** IoT qurilmalari yordamida olingan ma'lumotlar asosida tashxis qo'yish jarayoni tezlashtiriladi. Bu esa kasal shaxslarni tezkor identifikatsiya qilish va tegishli davolash chora-tadbirlarini ko'rish imkonini beradi.



IoT texnologiyalari asosida tashxis qo'yish jarayoni

IoT texnologiyalari orqali tibbiyotda tashxis qo'yish quyidagi bosqichlarda yuz beradi:

1. **Ma'lumotlarni yig'ish:** IoT qurilmalari (sensor, kamera va boshqalar) orqali kasal shaxslarning holati to'g'risidagi ma'lumotlar real vaqt rejimida yig'iladi.
2. **Ma'lumotlarni uzatish:** Yig'ilgan ma'lumotlar shifokorlarga, tibbiy markazlarga va boshqa tegishli idoralarga uzatiladi.
3. **Ma'lumotlarni tahlil qilish:** Uzatilgan ma'lumotlar tibbiy ma'lumotlar bazasi va katta ma'lumotlar tahlili usullari yordamida chuqur tahlil qilinadi.
4. **Tashxisni optimallashtirish:** Tahlil natijasida kasalliklarning yangi belgilari, rivojlanish dinamikasi va boshqa ko'rsatkichlar aniqlangan holda tashxis qo'yish jarayoni optimallashtiriladi.
5. **Tezkor tashxis qo'yish:** IoT qurilmalari yordamida olingan ma'lumotlar asosida tashxis qo'yish jarayoni tezlashtiriladi va kasal shaxslar tezkor identifikatsiya qilinadi.

IoT texnologiyalarining afzalliklari

IoT texnologiyalarining tibbiyotda tashxis qo'yish jarayonini avtomatlashtirishdagi asosiy afzalliklari quyidagilar:

1. **Real vaqt ma'lumotlarini yig'ish va uzatish:** IoT qurilmalari orqali olingan ma'lumotlar real vaqt rejimida shifokorlarga uzatiladi. Bu esa tashxis qo'yish jarayonini tezlashtiradi.
2. **Katta ma'lumotlar tahlili:** Yig'ilgan ma'lumotlar katta ma'lumotlar tahlili usullari yordamida chuqur o'rganiladi. Bu esa kasalliklarning yangi belgilarini aniqlash va tashxis qo'yish jarayonini yaxshilash imkonini beradi.
3. **Avtomatlashtirilgan tashxis qo'yish:** IoT texnologiyalari asosida tashxis qo'yish jarayoni avtomatlashtiriladi. Bu esa sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish



hamda kasal shaxslarning holatini sifatli baholash va tashxis qo'yish imkonini beradi.

4. **Shifokorlar diqqatini kasal shaxsga qaratish:** IoT texnologiyalari tashxis qo'yish jarayonini avtomatlashtirgani uchun shifokorlar o'z diqqatlarini kasal shaxsning murakkab holatini chuqur o'rganishga qarata oladilar.

Xulosa

Ushbu maqolada IoT (Narsalar Interneti) texnologiyalarining tibbiyotda tashxis qo'yish jarayonini avtomatlashtirishdagi asosiy roli va ahamiyati ko'rib chiqildi.

IoT qurilmalari (sensorlar, kameralar va boshqalar) orqali real vaqt ma'lumotlarini yig'ish, uzatish va tahlil qilish imkoniyatlari tibbiyotda tashxis qo'yish jarayonini yanada samarali, tezkor va aniq amalga oshirishga imkon beradi. Jumladan, IoT texnologiyalari quyidagi asosiy yo'nalishlarda o'z samaradorligini namoyon etmoqda:

1. **Real vaqt ma'lumotlarini yig'ish va uzatish:** IoT qurilmalari orqali kasal shaxslarning holati to'g'risidagi ma'lumotlar real vaqt rejimida yig'iladi va shifokorlarga uzatiladi.
2. **Katta ma'lumotlar tahlili:** Yig'ilgan ma'lumotlar katta ma'lumotlar tahlili usullari yordamida chuqur o'rganiladi. Bu esa kasalliklarning yangi belgilarini aniqlash va tashxis qo'yish jarayonini yaxshilash imkonini beradi.
3. **Avtomatlashtirilgan tashxis qo'yish:** IoT texnologiyalari asosida tashxis qo'yish jarayoni avtomatlashtiriladi. Bu esa sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish hamda kasal shaxslarning holatini sifatli baholash va tashxis qo'yish imkonini beradi.
4. **Shifokorlar diqqatini kasal shaxsga qaratish:** IoT texnologiyalari tashxis qo'yish jarayonini avtomatlashtirgani uchun shifokorlar o'z diqqatlarini kasal shaxsning murakkab holatini chuqur o'rganishga qarata oladilar.



Xulosa qilib aytish mumkinki, IoT texnologiyalari tibbiyotda tashxis qo'yish jarayonini yanada samarali, tezkor va aniq amalga oshirish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish va ahamiyatli tibbiy o'zgarishlarni ta'minlashi mumkin.

Adabiyotlar

1. А. В. Росляков, С. В. Ваняшин, А. Ю. Гребешков. «ИНТЕРНЕТ ВЕЩЕЙ» Учебное пособие. Самара – 2015
2. Kamal, A. H., Noor, M. H. M., Ismail, M. M., & Aziz, A. A. (2021). Internet of Medical Things (IoMT): An Analysis of Healthcare Transformation During COVID-19 Pandemic. *Sensors*, 21(11), 3774. doi:10.3390/s21113774.
3. Gia, T. N., Jiang, M., Rahmani, A.-M., Westerlund, T., Liljeberg, P., & Tenhunen, H. (2015). Fog Computing in Healthcare Internet of Things: A Case Study on ECG Feature Extraction. 2015 IEEE International Conference on Computer and Information Technology; Ubiquitous Computing and Communications; Dependable, Autonomic and Secure Computing; Pervasive Intelligence and Computing. doi:10.1109/cit/iucc/dasc/picom.2015.168.



**SURXONDARYO VILOYATI JARQO'RG'ON TUMANI
TUPROQLARINING MELIORATIV HOLATI**

S.H. Oltinov – “TIQXMMI”MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti “Yer resurslaridan foydalanish va davlat kadastrlari” kafedراسي stajyor-o’qituvchisi.

E.M. Mamatmo’minov - “TIQXMMI”MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabasi.

J.S. Asatov - “TIQXMMI”MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati hamda viloyat tuproqlarining meliorativ holati haqida bir qancha faktlar keltiriladi — O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat. 1941 yilning 6 martida tashkil etilgan (1925 yilning 29 iyunidan Surxondaryo okrugi bo'lgan). 1960 yil 25 yanvarda Qashqadaryo viloyati bilan qo'shilgan. 1964 yil fevralda qaytadan tashkil qilindi. Respublikaning janubi-sharqida, Surxon-Sherobod vodiysida joylashgan. Janubdan Amudaryo bo'ylab Afg'oniston, shimol, shimoli-sharq va sharqdan Tojikiston, janubi-g'arbdan Turkmaniston, shimoli-g'arbdan Qashqadaryo viloyati bilan chegaradosh. Maydoni 20,1 ming km². Markazi — Termiz sh. Surxondaryo viloyati relyefi tog' va tekisliklardan iborat, shimoldan janubga qiyalanib va kengayib boradi. Tog'lardan oqib tushadigan ko'pdan-ko'p daryo va soylar dara hosil qilgan. Surxondaryo va Sheroboddaryo oqib o'tadigan tekislik shimol, g'arb va sharqdan baland Hisor tizmasi (eng baland joyi 4643 m) va uning tarmoqlari (Boysuntog', Ko'hitangtog', Bobotog') bilan o'ralgan. Tog'lar, asosan, yuqori paleozoy va mezozoy davrlari jinslaridan, tekislik qismi esa to'rtlamchi davr yotqiziqlardan tarkib topgan. Tog'lar bilan tekislik orasida adir va tog' oldi zonasi



joylashgan. Tog'lar shimol sovuq havo oqimlarini to'sib turishi natijasida subtropik o'simliklar o'stirish uchun qulay iqlim sharoiti vujudga kelgan.

Annotation: This article presents some facts about the reclamation condition of Surkhandarya region and the land reclamation of the region - a region within the Republic of Uzbekistan. It was established on March 6, 1941 (from June 29, 1925 it was Surkhandarya district). On January 25, 1960, it was joined with Kashkadarya region. It was reorganized in February 1964. It is located in the south-east of the republic, in the Surkhan-Sherabad valley. It borders Afghanistan along the Amudarya river in the south, Tajikistan in the north, northeast and east, Turkmenistan in the southwest, and Kashkadarya region in the northwest. The area is 20.1 thousand km². Center — Termiz sh. The relief of Surkhandarya region consists of mountains and plains, sloping and widening from north to south. Many rivers and streams flowing down from the mountains have formed gorges. The plain through which Surkhondarya and Sherobodarya flows is surrounded from the north, west and east by the high Hisar ridge (the highest point is 4643 m) and its branches (Boysuntog, Kohitangtog, Bobotog). The mountains are mainly composed of Upper Paleozoic and Mesozoic rocks, and the plain part is composed of Quaternary deposits. Between the mountains and the plain there are hills and foothills. As a result of the mountains blocking cold air currents from the north, favorable climatic conditions for growing subtropical plants have been created.

Аннотация: В данной статье представлены некоторые факты о мелиоративном состоянии Сурхандарьинской области и мелиорации земель области - региона в составе Республики Узбекистан. Образован 6 марта 1941 года (с 29 июня 1925 года — Сурхандарьинская область). 25 января 1960 года она была присоединена к Кашкадарьинской области. Реорганизован в феврале 1964 года. Он расположен на юго-востоке республики, в Сурхан-Шерабадской долине. Граничит с Афганистаном по реке Амударья на юге, с



Таджикистаном на севере, северо-востоке и востоке, с Туркменистаном на юго-западе и с Кашкадарьинской областью на северо-западе. Площадь составляет 20,1 тыс. км². Центр — Термез ш. Рельеф Сурхандарьинской области состоит из гор и равнин, наклоненных и расширяющихся с севера на юг. Многие реки и ручьи, стекающие с гор, образовали ущелья. Равнина, по которой протекают Сурхандарья и Шерободдарья, окружена с севера, запада и востока высоким Хисарским хребтом (высшая точка 4643 м) и его ответвлениями (Бойсунтог, Кохитангтог, Боботог). Горы сложены преимущественно верхнепалеозойскими и мезозойскими породами, а равнинная часть — четвертичными отложениями. Между горами и равниной расположены холмы и предгорья. В результате того, что горы перекрыли потоки холодного воздуха с севера, созданы благоприятные климатические условия для выращивания субтропических растений.

Kalit so'zlar: Surxondaryo viloyati, Jarqo'rg'on tumani, malumotlar, plan, loyiha, fazoviy ma'lumotlar, tuproq, Hisor tizmasi, tematik qatlam, ma'lumot, meliorativ holati, yer balansi.

Key words: Surkhondarya region, Zharkurgan district, data, plan, project, spatial data, soil, Hisar ridge, thematic layer, data, reclamation status, land balance.

Ключевые слова: Сурхандарьинская область, Жаркурганский район, данные, план, проект, пространственные данные, почва, Гиссарский хребет, тематический слой, данные, мелиоративное состояние, земельный баланс.

Kirish. Surxondaryo va Sheroboddaryo oqib o'tadigan tekislik shimol, g'arb va sharqdan baland Hisor tizmasi (eng baland joyi 4643 m) va uning tarmoqlari (Boysuntog', Ko'hitangtog', Bobotog') bilan o'ralgan. Tog'lar, asosan, yuqori paleozoy va mezozoy davrlari jinslaridan, tekislik qismi esa to'rtlamchi davr yotqiziqlardan tarkib topgan. Tog'lar bilan tekislik orasida adir va tog' oldi zonasi



joylashgan. Tog'lar shimol sovuq havo oqimlarini to'sib turishi natijasida subtropik o'simliklar o'stirish uchun qulay iqlim sharoiti vujudga kelgan. Tog' zonasi va adirlarda, asosan, g'alla yetishtiriladi, chorva uchun yozgi yaylov. Mutlaq balandligi. 300—500 m. bo'lgan Surxon-Sherobod tekisligida paxta ekiladi, bog' tokzorlar barpo qilingan. Janubiy qismi keng qumliklar bilan qoplangan. Foydali qazilmalardan neft va gaz (Xovdog', Kakaydi, Lalmikor, Amudaryo bo'yi tekisliklari), toshko'mir (Sharg'un, Hisor, Boysun, Ko'hitang tog'larining etaklari), polimetall (Sangardak), osh tuzi (Xo'jaikon) konlari bor. Gips, granit, argillit kabi qurilish materiallari, mineral suvli buloq ko'p. Tekislik qismining iqlimi quruq subtropik. Yozi jazirama issiq va uzoq, qishi iliq va qisqa. Yillik o'rtacha harorat 16° — 18° . Iyulning o'rtacha harorat 28° . — 32° , yanvar oylarida $2,8^{\circ}$ — $3,6^{\circ}$. O'zbekistonda eng issiq harorat ham shu viloyat hududida kuzatilgan (1914 y. 21 iyunda Termizda $49,5^{\circ}$ issiq bo'lgan). Ba'zi yillari qish ancha sovuq (-20° va hatto undan ham past). Yil davomida bulutsiz kunlarning ko'p bo'lishi va quyosh nurining tik tushishi effektiv tralar yig'indisi yuqori bo'lishiga olib keladi. 10° dan yuqori haroratli kunlar tekislik qismida 290 — 320 kun davom etadi. Bu esa viloyatda eng issiqsevar ekinlar (shakarqamish, ingichka tolali paxta) va mevalar yetishtirishga imkon beradi. Viloyat tog'lar orasidagi berk botikda joylashganidan bu yerda yog'in kam. Viloyatning janubiy tekisliklarida yiliga 130 — 140 mm, Hisor tog'lari yon bag'irlarida 445—625 mm yog'in yog'adi. Yog'inning asosiy qismi qish va bahorda tushadi. G'arbiy, janubi-g'arbiy va shimoli-sharqiy shamollar ko'p esadi. Viloyatning janubi sharqiy qismida esadigan Afg'on shamoli iqlimga salbiy ta'sir etadi. Viloyatning asosiy suv arteriyalari — Surxondaryo va Sherobodaryo hamda ularning Qoratog'daryo, To'polondaryo, Sangardakdaryo, Xo'jaipok kabi irmoqlari. Tog' qor va muzliklaridan, yog'indan to'yinadigan bu daryolar viloyat hududining shimoliy qismi, tog' va tog' oldi zonalarinigina suv bilan ta'minlay oladi, janubdagi keng tekisliklarda doimiy suv tanqisligi kuzatiladi. Yer osti (artezian) suvlaridan tobora keng foydalanilmoqda. 1957—58 yillarda



Uchqizil, 1959 — 62 yillarda Janubiy Surxon va Degrez suv omborlari, Jarqo'rg'on gidrotuguni qurildi.

Hazorbog', Dayto'lak, Qumqo'rg'on, Zang kanallari, Sherobod, AmuZang mashina sug'orish kanallari barpo etildi. Tuprog'i tekisliklarda taqirsimon va sho'rxok och bo'z tuproqlar, tog' yon bag'rida turli xil bo'z tuproqlar. O'simliklar dunyosi ham tabiiy sharoiti bilan bog'liq. Janubdagi ekin ekilmaydigan qumloq joylarda qandim, oq saksovul, cherkez, taroqbosh, yaltirbosh, yantoq, butasimonlar; daryo bo'ylarida yulg'un, jiyda, turang'il, terak, savag'ich, qiyoq, qamish; adir va tog'larning pastki yon bag'irlarida bir yillik efemerlar; 1200—2500 m balandliklarida efemerlar bilan birga archa, pista, qayin, tol, yongoq, olma, zarang o'rmonlari uchraydi. Bobotog' tizmasi yon bag'irlarida respublikaning eng yirik tabiiy pistazorlari joylashgan. Baland tog' zonasi o'tloqlari bilan band. Hayvonot dunyosi ancha boy: bo'ri, tulki, chiyabo'ri, ayiq, jayran, qobon, yovvoyi echki, arxar, to'qaylarda bug'u, to'qay mushugi, kalamush, qo'shoyoq, yumronqoziq, ko'rsichqon, gekkon kaltakesagi, ko'zoynakli ilon (kobra), o'q ilon, jayra, qushlardan ular (tog' kurkasi), qirg'ovul, mayna, qaldirg'och, g'oz, o'rdak, so'fito'rg'ay, chil, kaklik bor. Daryo va suv omborlarida har xil baliq ko'p. Viloyatda 2 million 681 ming nafar aholi istiqomat qiladi. Shahar aholisi 971,4 ming kishi, qishloq aholisi 1709,6 ming kishi. Aholisi, asosan, o'zbeklar, shuningdek, tojik, rus, turkman, qozoq va boshqa millat vakillaridan iborat.

Xulosa. O'zbekistonning janubiy o'lkasi hisoblanmish Surxondaryo viloyatining asrlar davomida Vatanimizning o'tmish tarixi va madaniyatida muhim o'rin egallab kelgan. Vatanimiz tarixida sug'orma dehqonchilik va ilk shaharchalar shakllangan joylardan biridir. Sug'orma dehqonchilikning takomillashuvi, shaharsozlik rivoji bilan bog'lik ijtimoiy taraqqiyoti Surxondaryo zaminida ham ilk davlatchilik ildizlarining paydo bo'lishiga olib kelgan. Miloddan avvalgi 1-ming yillik o'rtalarida Jarqo'rg'on tumani hududida hamda Tojikistonning janubiy qismi va



shimoliy Afgʻoniston hududlarini oʻz tasarrufiga olgan Baqtriya podsholigi davlati hukm surgan. Tumanning qadimgi tarixidagi eng yorqin sahifalari milodning I-IV asrlari oraligʻida hukmronlik qilgan Kushon podsholigi bilan bogʻlik. Surxondaryo viloyatining dehqonchilik bila shugʻullanib bizga doimo qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtirib berishi bilan yetakchi viloyat desak mubolagʻa boʻlmaydi. Surxon tuprogʻi juda unumdorlik darajasi boʻyicha noyob tuproqlarni koʻrishimiz mumkin boʻladi. Tuproqlarga agrotexnik tadbirlar olib borish jarayonida shularga guvoh boʻldik. Yer qancha unumdor boʻlsa dehqon shuncha boy boʻladi. Xalq boy boʻlsa – davlat ham boy boʻladi.

Adabiyotlar roʻyxati

- [1] Спутник Технологиялари Асосида Автомобил Транспорт Воситалари Ҳаракатини Бошқариш Ва Назорат Қилиш ШЯ Сатторов, ЖС Асатов, ФФ Жўрақулов - o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ..., 2023
- [2] Global Iqlim O'zgarishi O'zbekistonning Barqaror Rivojlanishiga Salbiy Ta'siri. SS Yarashovich, AJ Sayitkulovich, AI Hasan o'g'li... - O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ..., 2023
- [3] Sattorov Sh Y, Ahmadov S O, Akhtamov S A 2021 Mechanisms of rice growing and rice development in Uzbekistan *online-conferences* 5 183
- [4] Sattorov S Y 2020 Use of aerocomic methods and gis programs in construction of space data models of pastural land *Current scientific research in the modern world*
- [5] Abduloev A M 2020 The use of advanced technologies in geodetic and geoinformatics *Journal agro processing*
- [6] Sattorov S. Y., Muhammadov Q., Bobojonov S. QURILISH JARAYONIDA ELEKTRON TAXEOMETRLARLARNI O 'RNI //Euro-Asia Conferences. – 2021. – Т. 5. – №. 1. – С. 235-237.
- [7] Сатторов Ш.Я, Муҳаммадов Қ., Бобожонов С. ҚУРИЛИШ ЖАРАЁНИДА ЭЛЕКТРОН ТАХЕОМЕТРЛАРЛАРНИ О ЁРНИ //Эуро-Асиа Сонференсес. – 2021. – Т. 5. – №. 1. – С. 235-237.
- [8] Сатторов Ш. Я. и др. USE OF AEROCOSMIC METHODS AND GIS PROGRAMS IN CONSTRUCTION OF SPACE DATA MODELS OF PASTURAL LAND //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2020. – №. 5-4. – С. 16-22.
- [9] Сатторов Ш. Я. ЯЙЛОВ ЕРЛАРИНИНГ ДЕГРАДАЦИЯ ОМИЛЛАРИ //ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ. – 2020. – №. SPECIAL ISSUE.



- [10] Абдуллоев, А. М. (2020). ГЕОДЕЗИК ВА ГЕОИНФОРМАТИК ИШЛАРНИ БАЖАРИШДА ИЛФОР ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. *ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ*, (SPECIAL ISSUE).
- [11] Muzaffarovich, Abdulloyev Ashraf. "USE OF ADVANCED TECHNOLOGIES IN GEODESIC AND GEOFORMATIC WORK." *Агропроцессинг SPECIAL* (2020).
- [12] Ашраф, Мудасир, Ясс Худхейр Салал и С.М. Абдуллаев. «Интеллектуальный анализ образовательных данных с использованием базового (индивидуального) и ансамблевого подходов к обучению для прогнозирования успеваемости учащихся». *Наука о данных*. Спрингер, Сингапур, 2021. 15–24.
- [13] [Geoportal visualization of state cadastre objects:\(a case study from Uzbekistan\)](#) A Inamov, S Sattorov, A Dadabayev, A Narziyev - IOP Conference Series: Earth and Environmental , 2022
- [14] [Conventional and current approaches of urban mapping and geodetic base formulation for establishing demographic processes database: Tashkent, Uzbekistan](#) S Abdurakhmonov, M Khamidova, Y Romanyuk - E3S Web of Conferences, 2024



**JARQO'RG'ON TUMANINING QISHLOQ XO'JALIGI YERLARIDA
KADASTR ISHLARINI YURITISHDA GEOAXBOROT TIZIMLARINI
QO'LLASH**

**S.H. Oltinov – “TIQXMMI”MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish
instituti “Yer resurslaridan foydalanish va davlat kadastrlari” kafedrası
stajyor-o'qituvchisi.**

**E.M. Mamatmo'minov - “TIQXMMI”MTU Buxoro tabiiy resurslarni
boshqarish instituti talabasi.**

**J.S. Asatov - “TIQXMMI”MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti
talabasi.**

**F. Jo'raqulov - “TIQXMMI”MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish
instituti talabasi**

Annotatsiya: Insonni qadim zamonlardan qiziqtirib kelgan muammolardan biri, u o'zini yer planetasini qaysi joyida turganini aniqlashdan iborat bo'lgan. Kishi o'z atrofini o'rab olgan ob'ektlarga nisbatan turgan o'rnini osongina aniqlab olishi mumkin. Bordiyu atrofda bunday ob'ektlar bulmasa, hammayoq bo'm-bo'sh cho'l yoki bepoyon okean sathi bo'lsachi? Ko'p asrlar davomida bu muammoni Quyosh va yulduzlardan foydalanib yechib kelingan. Shu jumladan geodezistlar, geologlar va boshqalar geodezik tayanch punktlardan foydalanib kelishgan, ulardan boshlab o'lchashlar olib borilgan yoki yo'llar aniqlangan. Bu usullardan foydalanish imkoni har doim bo'lavermaydi. Masalan, Quyosh va yulduzlar bulutli ob-havoda ko'rinmaydi. Joyda bajariladigan aniq o'lchashlardan foydalanish ko'p vaqt va mehnat talab qiladi va har doim maqsadga to'la erishish imkoni bo'lmaydi. 1970 yillar boshida GPS yangi loyihasi taqdim etildi va unga ko'ra kishi o'z turgan o'rnini yer yuzasini xohlagan nuqtasida, xohlagan vaqtda, har qanday ob-havo sharoitida yuqori aniqlikda aniqlash imkoniga ega bo'ldi.



Annotation: One of the problems that has interested man since ancient times is to determine where he is on the planet earth. A person can determine his position in relation to the objects that surround him. What if there were no such objects around, but an empty desert or an endless ocean? The benefit of many centuries has been the experience of this problem from the Sun and the stars. Some surveyors, geologists and others came from geodetic points, from where measurements were made or roads were clear. These methods are not always possible. For example, the Sun and stars cannot be seen in cloudy weather. Accurate on-site measurements are time and labor intensive and may not always be fully compensable. During the 1970s, a new GPS project was introduced, and according to it, a person decided his position on the ground, any weather became possible with precision.

Аннотация: Одна из проблем, которая интересовала человека с древнейших времен, – определить, где он находится на планете Земля. Человек может определить свое положение по отношению к предметам, которые его окружают. Что, если бы вокруг не было таких объектов, а была бы пустынная пустыня или бескрайний океан? Благо на протяжении многих веков был опыт решения этой проблемы с Солнца и звезд. Некоторые геодезисты, геологи и другие приезжали из геодезических пунктов, откуда производились измерения или были свободны дороги. Эти методы не всегда возможны. Например, в пасмурную погоду невозможно увидеть Солнце и звезды. Точные измерения на месте требуют много времени и труда и не всегда могут быть полностью компенсированы. В 1970-е годы был представлен новый проект GPS, согласно которому человек определял свое положение на местности, любая погода стала возможна с точностью.

Kalit so'zlar: Surxondaryo viloyati, Jarqo'rg'on tumani, malumotlar, plan, tadqiqot, GPS, avtomobil, geodezik uslublar, tuproq, yer tuzish, tematik qatlam, ma'lumot, yerlarning holati, loyihalash.



Key words: Surkhandarya region, Zharkorgan district, information, plan, research, GPS, car, geodetic methods, soil, land structure, thematic layer, information, land condition, design.

Ключевые слова: Сурхандарьинская область, Жаркорганский район, информация, план, исследования, GPS, автомобиль, геодезические методы, почва, строение земель, тематический слой, информация, состояние земель, проектирование.

Kirish. Bu va boshqa masalalarni ilmiy, maqsadga muvofiq va qat'iy reja asosida bosqichma-bosqich amalga oshirish uchun, dastavval, Yer yuzasida ma'lum topografik-geodezik va kartografik tadqiqot ishlari bajariladi. Plan, karta va profillar geodezik ishlarning asosiy mahsuloti bo'lib, ulardan xalq xo'jaligining turli sohalarida keng foydalaniladi. Ular turli inshootlarni, qishloq va shaharlarning bosh planlarini tuzish, suv yig'iladigan maydonlar chegaralarini aniqlash, ular yuzasini hisoblash, suv ombor va to'g'onlarni loyihalash va o'rnini belgilash, gidrotexnik inshootlarini qidiruv, loyihalash va qurishda nihoyat zarurdir. Bino va inshootlarni qurish jarayonida geodezik uslublar yordamida devorlar tikligi, ustunlar vertikaligi va gorizontalligi, uskunularni loyihaviy holatiga o'rnatish, hamda injenerlik inshootlardan foydalanish jarayonida ular deformatsiyasi va cho'kishlarini kuzatish amalga oshiriladi. Transport infratuzilmasi bo'lmish, avtomobil va temir yo'llar, ko'priklar, tunnellar, aeroport va aerodromlarni loyihalash va qurishni geodezik ishlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Qishloq xo'jaligida planli-kartografik mahsulotlar juda katta ahamiyatga ega. Yer tuzish va yer kadastri tashkilotlari yerdan oqilona foydalanish masalalarini yechishda ulardan keng foydalanadi. Barcha yer toifalarining doimiy hisobini olib borish, yer tuzish loyihalarini ishlab chiqish, yerdan foydalanish hamda almashlab ekish dalalari chegaralarini belgilash, aholi turar joylari, yo'llar, 12 sug'orish tarmoqlari va boshqalarni joylashtirishda plan va kartalar asos bo'lib xizmat qiladi. Yerlarni



sugʻorish va zaxini qochirish, tuproq eroziyasiga (yemirilishiga) qarshi kurash tadbirlarini va boshqa shu kabi masalalarni planli-kartografik materiallar yordamida yechish mumkin. Agrotexnikaga oid juda koʻp masalalarni yechish uchun ham tuproq, relief, oʻsimlik qoplami, suv havzalari tasvirlangan planli-kartografik hujjatlar boʻlishi kerak. Planli-kartografik materiallar mamlakat mudofasi uchun ham juda zarur, shuning uchun ham azaldan “karta – armiyaning koʻzi” deb sanaladi. Hozirgi zamon geodezik asboblari va texnikalar (elektron teodolitlar, raqamli nivelirlar, elektron taxeometr, yer ustilazer skanerlar, lazer ruletkalar va boshqalar) dan foydalanib, turli murakkab geodezik ishlarni bajarish yoʻlga qoʻyilmoqda. Berilgan yer boʻlagining plan, karta va profillarini tuzishda Yerning sunʼiy yoʻldoshi yordamida yer nuqtalari koordinatalarini tez va kam mehnat sarflab aniqlash, topografik sʼyomka natijalarini maxsus yodlash kartasiga yozib olib, kompyuterda ishlab chiqish va joyning elektron kartasi yoki joyning raqamli modelini tuzish texnologiyasi qoʻllanilmoqda. Insonni qadim zamonlardan qiziqtirib kelgan muammolardan biri, u oʻzini yer planetasini qaysi joyida turganini aniqlashdan iborat boʻlgan. Kishi oʻz atrofini oʻrab olgan obʼektlarga nisbatan turgan oʻrnini osongina aniqlab olishi mumkin. Bordiyu atrofda bunday obʼektlar bulmasa, hammayoq boʻm-boʻsh choʻl yoki bepoyon okean sathi boʻlsachi? Koʻp asrlar davomida bu muammoni Quyosh va yulduzlardan foydalanib yechib kelingan. Shu jumladan geodezistlar, geologlar va boshqalar geodezik tayanch punktlardan foydalanib kelishgan, ulardan boshlab oʻlchashlar olib borilgan yoki yoʻllar aniqlangan. Bu usullardan foydalanish imkoni har doim boʻlavermaydi. Masalan, Quyosh va yulduzlar bulutli ob-havoda koʻrinmaydi. Joyda bajariladigan aniq oʻlchashlardan foydalanish koʻp vaqt va mehnat talab qiladi va har doim maqsadga toʻla erishish imkoni boʻlmaydi. 1970 yillar boshida GPS yangi loyihasi taqdim etildi va unga koʻra kishi oʻz turgan oʻrnini yer yuzasini xohlagan nuqtasida, xohlagan vaqtda, har qanday ob-havo sharoitida yuqori aniqlikda aniqlash imkoniga ega boʻldi. Hozirgi vaqtda geodezik oʻlchashlarda sunʼiy



yo‘ldosh navigatsiya sistemalari keng qo‘llanilmoqda. Bu sistemalar kosmik va yer usti mexanik vositalar kompleksidan, yer sferoidi sirtidagi ob‘ekt o‘rnini aniqlash uchun dastur ta‘minoti va texnologiyasidan iborat. Sun‘iy yo‘ldosh navigatsiya sistemalarini katta hududlarda 530 topografik s‘yomkalarni bajarish uchun planli-balandlik asosni rivojlantirishda qo‘llash maqsadga muvofiq. GPS to‘la tarkibi quyidagi uchta segmentlardan iborat: - kosmik segment - ma‘lum orbita bo‘yicha yerni aylanib uchadigan sun‘iy yo‘ldoshlar; - boshqarish segmenti - yo‘ldoshlar uchishini boshqarish uchun zarur ekvatorga yaqin joylashgan stansiyalar; - foydalanuvchilar segmenti - GPS signalini qabul qiluvchi har qanday foydalanuvchi kishi. GPS sistemasida (AQSh) kosmik segment 24 ta sun‘iy yo‘ldoshlardan tashkil topib, ular 6 ta orbitalar bo‘yicha har birida 4 tadan bo‘linib taqriban 20200 km balandlikda yerni har 12 soatda bir marta aylanib chiqadi. GLONASS sistemasida Rossiya 24 ta yo‘ldosh uchta eliptik orbitalarni har birida 8 tadan joylashtirilgan orbitalar balandligi 19100 km ga yaqin va ular ekvator tekisligidan 64,8 gradusga og‘adi. Orbitalar parametrlarini bunday tanlangani uzoq muddat davomida yo‘ldoshlar o‘zaro joylashishi holatini o‘zgarmas bo‘lishini ta‘minlaydi.

Shunday qilib, GPS va GLONASS yordamida koordinatalarni aniqlash geodeziyaning fundamental maqsadini amalga oshirishda, yer sirtini xohlagan nuqtasi mutloq o‘rnini bir xil aniqlikda topishni ta‘minlaydi. Kosmik segment shunday loyihalanganki yerni har qanday nuqtasida xohlagan daqiqada ufq tekisligidan 150 yuqorida kuzatuvchining ixtiyorida eng kamida 4 ta sun‘iy yo‘ldosh bo‘ladi bu esa har qanday amaliy vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan yo‘ldoshlarni minimal sonidir. Har bir sun‘iy yo‘ldosh bir nechta juda aniq bort atom soatlariga ega. Bu soatlar 10,23 MGs asosiy chastotada ishlaydi. Bu chastota yo‘ldosh uzatadigan signallarni generatsiyalash uchun foydalanadi. Yo‘ldosh doimiy eltuvchi ikkita to‘lqinni uzatib boradi. Bu eltuvchi to‘lqinlar L –polosada



joylashib yerga qarab yorug'lik tezligida harakat qiladi. Har bir yo'ldosh o'zining shaxsiy kodiga ega bo'lib, u bo'yicha priyomnik yo'ldoshni aniqlaydi. Bunday kodlar psevdo masofalarni o'lchash uchun asos qilib olinib, ular orqali koordinatalar hisoblanadi. Ko'rilayotgan yo'ldosh navigatsiya sistemalarini ishi negizida yo'ldoshlargacha bo'lgan masofalarni, ulardan chiqayotgan radiosignallar tarqalish vaqtini belgilash yo'li orqali o'lchab yerdagi ob'ekt o'rnini aniqlash yotadi. Radiosignalni yo'ldoshdan toki priyomnik antennisigacha yetib kelish vaqtini belgilash, signal tarqalish tezligini vaqtga ko'paytirib masofani aniqlash imkonini beradi. Buning uchun yo'ldoshdan va signalni chiqish daqiqasini bilish talab qilinadi. Shu maqsadda to'lqin uzatuvchi yo'ldoshda va yerdagi priyomnikda signal generatsiyasini sinxronlashtirish qabul qilingan, bu esa signalni priyomnikda qabul qilish vaqtida uni yo'ldoshdan uzatilgan vaqtini aniqlash imkonini beradi

Shunday qilib, hisoblashlar uchun qabul qilingan yer ellipsoidi sirtiga nisbatan nuqtaning uchta koordinatalari - kengligi, uzoqligi va balandligini aniqlashda xatoliklarga yo'l qo'ymaslik uchun to'rtta yo'ldoshlargacha masofalarni o'lchashga to'g'ri keladi. Yuqorida ko'rib o'tilgan ish prinsipida har bir yo'ldoshgacha masofani aniqlash uning koordinatalarini ma'lum bo'lishini taqozo etadi. Bu maqsadda yo'ldoshlar o'zini juda baland elliptik orbitalariga aniq chiqariladi. Orbita parametrlari priyomnikka tushiriladi va bu qiziqtirgan vaqt uchun har bir yo'ldosh o'rnini aniqlash imkononi beradi. 24 soat davomida yo'ldoshlar kuzatish nazorat punktlari ustidan ikki marotaba uchib o'tadi. Bu esa ularning o'rni va tezligini aniq nazorat qilish imkonini beradi. GPS o'lchashlar aniqligiga ionosfera va troposferani nurga ta'siri xatosidan tashqari priyomnik xatosi, yon-atrofdagi predmetlardan nurni qaytarilishi xatosi va boshqalar ta'sir etadi. Bundan tashqari, "geometrik omil", ya'ni yo'ldoshlarga qarab yo'nalishlar orasidagi burchaklar qiymati ham ta'sir etadi. Bu burchaklar



qanchalik kattaroq bo'lsa kestirmalar shuncha yaxshi, demak o'lchashlar ham aniq bo'ladi.

GPS va GLONASS grinvich fazoviy to'g'ri burchakli geotsentrik koordinatalar sistemasida ishlaydi. Koordinatalar bosh nuqtasi Yer massasining markazida joylashgan. Z o'qi Xalqaro shartli boshlang'ich deb qabul qilingan, 1900-1905 yillar uchun qutb o'rniga to'g'ri keluvchi yerning o'rtacha shartli qutbiga yo'naltirilgan. X o'qi ekvator tekisligini grinvich meridiani tekisligi bilan kesishish nuqtasiga qarab, U o'qi esa ekvator tekisligida koordinatalar sistemasini o'nggacha to'ldiradi. GPS va GLONASS koordinatalar sistemalari bir-biriga bog'lanmagan xolda aniqlangan va o'zaro quyidagicha farq qiladi: GPS sistemasi WGS-84(Jaxon geodezik sistemasi,1984,) koordinatalar sistemasida, GLONASS esa PZ-90(Yerning Parametrlari, 1990) koordinatalar sistemasida ishlaydi. Bu sistemalar har xil ellipsoidlarga asoslangan.

Hozirgi kundagi kosmik navigatsiya priyomniklarini juda ko'p xillari mavjud bo'lib, ularni funksional vazifalariga qarab quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

navigatsiya priyomniklari;

harbiy maqsadlardagi priyomniklar;

- kartografiya va geoaxborot tizimlari (GAT) uchun

mo'ljallangan priyomniklar;

- geodezik priyomniklar. O'zini texnik ko'rsatkichlari bo'yicha qabul qiladigan kodlariga qarab priyomniklar quyidagilarga bo'linadi:

- selektiv kod (C/A)ni qabul qiluvchi;

- selektiv kod va $L1$ chastotadagi signal fazasini qabul qiluvchi;

- selektiv kod va $L1$ va $L2$ chastotali signallar fazasini qabul qiluvchi;



P L1 L2 ta'minlaydi. Bunda ob'ekt koordinatalarini aniqlash xatosi 150 –200 metrni tashkil qiladi. Harbiy priyomniklar *P* - kodni qabul qilish imkoniga ega va hamma diapozonlarda ishlashni ta'minlay oladi. Ob'ekt koordinatalarini aniqlash xatosi 10-20 metrga teng. GAT priyomniklari signal fazasini, odatda, bitta chastotali o'lchashga mo'ljallangan va koordinatalarni 1 - 5 metr xatolik bilan aniqlashni ta'minlaydi. Geodezik priyomniklar signal fazasini, odatda, bittachastotali o'lchashga mo'ljallangan. Bunda ular birdaniga bitta chastotali va ikki chastotali signallar bilan ishlashi mumkin. Bu priyomniklar nuqtalar koordinatalarini 1 - 2 santimetr xatolik bilan aniqlash imkonini beradi. GPS priyomniklari konstruktiv xususiyatlariga qarab bitta kanalli, ikki va to'rt kanalli priyomniklarga bo'linadi. Bitta kanalli priyomniklarda oddiy o'lchashlarni bajarish uchun birin-ketin to'rtta sun'iy yo'ldoshlarni kuzatib, ulargacha bo'lgan masofalarni ketma-ket aniqlashga to'g'ri keladi, bunda 2 sekunddan 30 sekundgacha vaqt sarflanadi. Bu priyomniklarni kamchiligi, ular o'rnatilgan ob'ekt harakatda bo'lsa yo'ldoshni kuzatish imkoni bo'lmaydi, chunki bunda o'lchashlar aniqligi pasayib ketadi. Bundan tashqari priyomnik yo'ldoshdan ma'lumotni qabul qilish vaqtida ob'ekt o'rnini aniqlashga imkon bo'lmaydi, chunki bu vaqtda (30 sekund) yo'ldoshdan olingan signalni ishlab chiqish bilan priyomnik band bo'ladi. Yuqorida aytilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun ikki kanalli priyomniklar qo'llanadi. Bunda bitta kanal qabul qilgan signallarni ishlab chiqish bilan band bo'lsa, ikkinchisi navbatdagi yo'ldosh bilan radioaloqa bog'lab o'lchashni amalga oshiradi. Birinchi kanal ma'lumotlarni ishlab chiqishni tugatib navbatdagi yo'ldosh bilan aloqa bog'lab o'lchashga tushadi, ikkinchi esa qabul qilingan signallarni ishlab chiqishga o'tadi va h.k.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Ikki kanalli priyomniklarda, o'rnatilgan soatlarni yurish xatosini bartaraf etuvchi hisoblash algoritmlari foydalanadi. Bu priyomniklarning kamchiligi - bitta kanalli priyomniklardan



qiymat va ko'p elektr energiyasini sarflaydi. Parallel (to'xtovsiz) kuzatuvchi priyomniklar birdaniga 4 ta va undan ortiq sun'iy yo'ldoshlarni kuzatishga moslangan bo'lib ular bir onda ob'ekt koordinatalari va tezligini beradi. Bu esa yuqori dinamikali ob'ektlar o'rnini yuqori daraja aniqlikda topish imkonini beradi. GPS primnik to'rtta asosiy modullarni o'z ichiga oladi: energiya ta'minlash bloki, boshqarish moduli, antenna moduli va qabul qiluvchi modul. Energiya ta'minlash bloki priyomnik komplektiga kiruvchi akkumulator batareyalardan tashkil topadi. Boshqarish moduli priyomnik tartibini belgilash va boshlang'ich parametrlarni kiritish uchun xizmat qiladi. U o'z ichiga boshqarish pulti (ish rejimi va boshlang'ich ma'lumotlarni kiritishni ta'minlaydi) va displey (qiziqtiradigan ma'lumotlarni ko'z bilan kuzatish uchun) ni oladi. Boshqarish moduli antenna va qabul qilish modullari bilan bevosita bog'langan. Antenna moduli antennani qaratish diagrammasini boshqarish va signallarni kuchaytirish moslamalaridan tashkil topadi. U sun'iy yo'ldoshlar signallarini qidirib topish va qabul qilish, ularni kuchaytirish va qabul qilish moduliga uzatishni ta'minlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

- [15] Спутник Технологиялари Асосида Автомобил Транспорт Воситалари Ҳаракатини Бошқариш Ва Назорат Қилиш ШЯ Сатторов, ЖС Асатов, ФФ Жўракулов - o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ..., 2023
- [16] Global Iqlim O'zgarishi O'zbekistonning Barqaror Rivojlanishiga Salbiy Ta'siri. SS Yarashovich, AJ Sayitkulovich, AI Hasan o'g'li... - O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ..., 2023
- [17] Sattorov Sh Y, Ahmadov S O, Akhtamov S A 2021 Mechanisms of rice growing and rice development in Uzbekistan *online-conferences* 5 183
- [18] Sattorov S Y 2020 Use of aerocosmic methods and gis programs in construction of space data models of pastural land *Current scientific research in the modern world*
- [19] Abduloev A M 2020 The use of advanced technologies in geodetic and geoinformatics *Journal agro processing*
- [20] Sattorov S. Y., Muhammadov Q., Bobojonov S. QURILISH JARAYONIDA ELEKTRON TAXEOMETRLARLARNI O 'RNI //Euro-Asia Conferences. – 2021. – T. 5. – №. 1. – С. 235-237.



- [21] Сатторов Ш.Я, Муҳаммадов Қ., Бобожонов С. ҚУРИЛИШ ЖАРАЁНИДА ЭЛЕКТРОН ТАХЕОМЕТРЛАРЛАРНИ О ЁРНИ //Эуро-Асиа Сонференсес. – 2021. – Т. 5. – №. 1. – С. 235-237.
- [22] Сатторов Ш. Я. и др. USE OF AEROCOSMIC METHODS AND GIS PROGRAMS IN CONSTRUCTION OF SPACE DATA MODELS OF PASTURAL LAND //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2020. – №. 5-4. – С. 16-22.
- [23] Сатторов Ш. Я. ЯЙЛОВ ЕРЛАРИНИНГ ДЕГРАДАЦИЯ ОМИЛЛАРИ //ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ. – 2020. – №. SPECIAL ISSUE.
- [24] Абдуллоев, А. М. (2020). ГЕОДЕЗИК ВА ГЕОИНФОРМАТИК ИШЛАРНИ БАЖАРИШДА ИЛФОР ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. *ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ*, (SPECIAL ISSUE).
- [25] Muzaffarovich, Abdulloev Ashraf. "USE OF ADVANCED TECHNOLOGIES IN GEODESIC AND GEOFORMATIC WORK." *Агропроцессинг SPECIAL* (2020).
- [26] Ашраф, Мудасир, Ясс Худжейр Салал и С.М. Абдуллаев. «Интеллектуальный анализ образовательных данных с использованием базового (индивидуального) и ансамблевого подходов к обучению для прогнозирования успеваемости учащихся». *Наука о данных*. Спрингер, Сингапур, 2021. 15–24.
- [27] [Geoportal visualization of state cadastre objects:\(a case study from Uzbekistan\)](#) A Inamov, S Sattorov, A Dadabayev, A Narziyev - IOP Conference Series: Earth and Environmental , 2022
- [28] [Conventional and current approaches of urban mapping and geodetic base formulation for establishing demographic processes database: Tashkent, Uzbekistan](#) S Abdurakhmonov, M Khamidova, Y Romanyuk - E3S Web of Conferences, 2024



**JARQO'RG'ON TUMANI QISHLOQ XO'JALIGI YERLARIDA
KADASTR ISHLARINI YURITISHNING ZAMONAVIY GEODEZIK
USULLARINI QO'LLASH**

**S.H.Oltinov– “TIQXMMI”MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish
instituti “Yer resurslaridan foydalanish va davlat kadastrlari” kafedrası
stajyor-o'qituvchisi**

**E.M. Mamatmo'minov - “TIQXMMI”MTU Buxoro tabiiy resurslarni
boshqarish instituti talabasi**

**F. Jo'raqulov - “TIQXMMI”MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish
instituti talabasi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada yer sirtida o'lchashlarni bajarish usullarini o'rganish, joyda chiziq uzunligi, burchaklar va balandliklarni o'lchash, o'lchash natijalarini ishlab chiqish hamda plan, karta va profillarni tuzish, turli muhandislik-geodezik masalalarni yechishda ular natijalaridan foydalanish geodeziyaning asosiy vazifalari qatoriga kiradi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda turli xil geodezik asboblar, hisoblash va chizish texnika va texnologiyalari ishlatiladi. Shuni aytish kerakki, geodezik asboblar tuzilishini o'rganish, tadqiq qilish, ular bilan aniq va ilmiy amaliy jihatdan maqbul o'lchash usullarini izlash ham geodeziyaning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Annotation: In this article, the study of the methods of performing measurements on the surface of the earth, the measurement of line lengths, angles and heights in place, the development of measurement results and the creation of plans, maps and profiles, the use of their results in solving various engineering-geodesic problems is among the main tasks. Various geodetic instruments, calculation and drawing techniques and technologies are used in the implementation of these tasks. It should be said that studying and researching the



structure of geodetic instruments, searching for accurate and scientifically and practically acceptable measurement methods with them are also important tasks of geodesy.

Аннотация: В данной статье рассматриваются методы производства измерений на поверхности земли, измерения длин линий, углов и высот, оформления результатов измерений и создания планов, карт и профилей, использования их результатов при решении различных инженерно-геодезических задач. является одной из основных задач. При реализации этих задач используются различные геодезические инструменты, методы и технологии расчета и черчения. Следует сказать, что изучение и исследование устройства геодезических приборов, поиск с их помощью точных и научно и практически приемлемых методов измерений является одной из важных задач геодезии.

Kalit so'zlar: Jarqo'rg'on tumani, malumotlar, plan, geodezik o'lchash, fazoviy ma'lumotlar, integrasiya, infratuzilma, tematik qatlam, ma'lumot, masofadan zondlash, geoaxborot tizimi.

Key words: Zhargorgon district, data, plan, geodetic measurement, spatial data, integration, infrastructure, thematic layer, information, remote sensing, geoinformation system.

Ключевые слова: Жаргоргонский район, данные, план, геодезические измерения, пространственные данные, интеграция, инфраструктура, тематический слой, информация, дистанционное зондирование, геоинформационная система.

Kirish. Plan, karta va profillar geodezik ishlarning asosiy mahsuloti bo'lib, ulardan xalq xo'jaligining turli sohalarida keng foydalaniladi. Ular turli inshootlarni, qishloq va shaharlarning bosh planlarini tuzish, suv yig'iladigan



maydonlar chegaralrini aniqlash, ular yuzasini hisoblash, suv ombor va to'g'onlarni loyihalash va o'rnini belgilash, gidrotexnik inshootlarini qidiruv, loyihalash va qurishda nihoyat zarurdir. Bino va inshootlarni qurish jarayonida geodezik uslublar yordamida devorlar tikligi, ustunlar vertikalligi va gorizontalligi, uskunularni loyihaviy holatiga o'rnatish, hamda injenerlik inshootlardan foydalanish jarayonida ular deformatsiyasi va cho'kishlarini kuzatish amalga oshiriladi. Qishloq xo'jaligida planli-kartografik mahsulotlar juda kata ahamiyatga ega. Yer tuzish va yer kadastr tashkilotlari yerdan oqilona foydalanish masalalarini yechishda ulardan keng foydalanadi.

Geodezik o'lchashlar boshi uchun Grinvich meridiani qabul qilindi (1950 yil) va simsiz texnologiya va kvarsli soatlar asosida global vaqt sistemasi kiritildi.

- Geoidal va gravitatsion o'lchashlar orqali oliy geodeziya va amaliy geofizika masalalarini yechish yo'lga qo'yildi.
- Chiziqli o'lchashlar aniqligi bir necha marotaba oshirildi, masofani elektron o'lchash uslublari va texnologiyasi vujudga keldi.
- Burchakli o'lchashlar, shuningdek, teodolitlarni yanada takomillashtirish dastlab optik, keyinchalik elektron-optik asboblarning vujudga kelishiga va o'lchashlar aniqligi oshishiga sabab bo'ldi.

1960 yildan boshlab sun'iy yo'ldoshlarning keng ravishda qo'llanishi sun'iy yo'ldosh geodeziyasining rivojlanishiga, o'z navbatida, qit'alararo o'lchashlarni bajarishga imkon berdi. Sun'iy yo'ldosh geodeziyasi va kosmik geodeziyaning rivojlanishi global pozitsirlash sistemalari, chunonchi, GPS, GLONASS sistemalari va boshqalarning paydo bo'lishiga olib keldi. Yer tuzish va yer kadastr tashkilotlari yerdan oqilona foydalanish masalalarini yechishda ulardan keng foydalanadi. Barcha yer toifalarining doimiy hisobini olib borish, yer tuzish loyihalarini ishlab chiqish, yerdan foydalanish hamda almashlab ekish dalalari



chegaralarini belgilash, aholi turar joylari, yo'llar, sug'orish tarmoqlari va boshqalarni joylashtirishda plan va kartalar asos bo'lib xizmat qiladi. Agrotexnikaga oid juda ko'p masalalarni yechish uchun ham tuproq, relef, o'simlik qoplami, suv havzalari tasvirlangan planli-kartografik hujjatlar bo'lishi kerak. Hozirgi zamon geodezik asboblari va texnikalar (elektron teodolitlar, raqamli nivelirlar, elektron taxeometr, yer usti lazer skanerlar, lazer ruletkalar va boshqalar) dan foydalanib, turli murakkab geodezik ishlarni bajarish yo'lga qo'yilmoqda. Berilgan yer bo'lagining plan, karta va profillarini tuzishda Yerning sun'iy yo'ldoshi yordamida yer nuqtalari koordinatalarini tez va kam mehnat sarflab aniqlash, topografik s'yomka natijalarini maxsus yodlash kartasiga yozib olib, kompyuterda ishlab chiqish va joyning elektron kartasi yoki joyning raqamli modelini tuzish texnologiyasi qo'llanilmoqda. Yer kadastrini informatsion asosini tuzishni ta'minlovchi, joydagi yer-kadastr ishlarini asosiy xillari bo'lib, yer inventarizatsiyasi va kadastr kartografiyasi sanaladi. Bu ishlar bir-biridan ajralmaydi, ular uchun kiritiladigan ma'lumotlar umumiy, inventarizatsiya va kadastr kartografiyasi ishlari tarkibiga kiruvchi ayrim dala ishlari bir vaqtda olib borilishi mumkin. Joyning inventarizatsiyasi va kadastr kartografiyasi bo'yicha ishlarning natijalari kadastr kartalari va yozma inventarizatsion materiallar shaklida ko'rsatiladi. Zamonaviy GIS texnologiyasini qo'llash yordamida kadastr kartalari va planlarni tuzish bo'yicha qilinadigan ishlarning umumlashgan texnologik sxemasi ko'rsatilgan. Bu texnologik sxemada aerofotosyomka materiallari asosiy ma'lumot manbai hisoblanadi, GIS texnologiyani qo'llash esa fotogrammetrik va karta tuzish kabi kameral ishlar bilan chegaralangan.

Har ikkala variantning texnologik sxemasi uchun mos holda ob'ektlar konturini syomka qilishda dala tadqiqotlari va deshifrovka o'tkazishda stereoskopik yoki ortofotoplanlarni qo'llash xarakterlidir. Bunda barcha ob'ektlar konturlari amalda ikki martadan o'tkaziladi, takrorlanadi: birinchi deshifrovka jarayonida,



ikkinchi marta esa stereosyomka yoki ortofotoplanlarni vektorlash jarayonida, yoki boshqa holatda birinchisida – qog‘ozga tush bilan, ikkinchisida esa – monitorda raqamli shaklda ko‘rish mumkin. Bunday yondashish ortiqcha mehnat talab qiladi. Shu sababli, aholi punktlari uchun kartalar tuzish bo‘yicha boshqacha yondashishni taklif qilish mumkin.

Stereojuftlik yoki aerofotosurotlarni kameral deshifrovkasi raqamli texnologiyalarni va raqamli fotogrammetrik stansyalarni qo‘llash yordamida bajariladi. Deshifrovka natijasida masshtabga mos keluvchi, yuqori aniqlikka ega bo‘lgan kartalar, deshifrovka qilinayotgan ob‘ektlar konturining vektorli modeli tasvirlandi. So‘ngra bu vektorli model toza asosga (qog‘ozga) ish abrisiga plotterda chiziladi. Dala tadqiqotlariga chiqishdan oldin kameral deshifrovkaning aniqligi va to‘liqligi tekshiriladi, kerak bo‘ladigan to‘g‘rilashlar va dala syomkalari natijalari kiritiladi. Dala tadqiqotlari natijalari raqamli karta (plan) tuzish maqsadida raqamli kartografik ma‘lumotlarni kameral qayta ishlash uchun qo‘llaniladi. Bunday yondashish ortiqcha mehnatni kamaytiribgina qolmasdan, balki mahsulotni sifatini ham oshiradi. Bu asosan stereoskopik syomka qo‘llanilayotganda seziladi.

Shuni aytish kerakki, yuqoridagi barcha uchta variantning texnologik sxemasini dala tadqiqotlari jarayonida portativ kompyuter yordamida ro‘yobga chiqarilishi mumkin.

Bugungi kunda barcha GISlarda tasvirga ishlov berish bo‘yicha dasturiy vositalar bilan jihozlangan mashina grafikasi, texnik vositalar yordamida ma‘lumotlarni yig‘ish, ularga ishlov berish, saqlash, yangilash, tahlil qilish va o‘zgartirish qurollari ishlab turibdi. Ma‘lumotlar muolajalari mos bloklarda bajariladigan bo‘lib, ularning har biri o‘z maqsad va vazifalariga ega.

GISdagi har bir tizim ma‘lum vazifani bajaradi, ya‘ni:

- ma‘lumotlarni kiritish bloklari - grafikli ma‘lumotni raqamli shaklga keltirish va uni kompyuter xotirasiga kiritish uchun xizmat qiladi;



- saqlash bloki - ma'lumotlar bazasi yordamida axborotni saqlash va yangilashni tashkil etish uchun xizmat qiladi;

- nashr bloki - monitor ekraniga yoki qattiq nus'ha olish uchun bosma qurilmasiga tasvirni nashr qilish (chiqarish) uchun xizmat qiladi.

Agar biror bir bo'lim yetishmasa, unda GIS tizimi to'liq ishlamaydi.

Grafikli tasvirlar bilan ishlovchi kompyuter oddiy ofis va uy kompyuterlaridan quvvatliroq bo'lishi kerak, ya'ni eng avval uning xotirasi keng, tezligi yuqori va qattiq disk hajmi ancha katta bo'lishi kerak. Bunday kompyuterlarda minimal operativ xotira hajmi 128 Gb, 256 Gb va undan katta bo'lishi kerak. Qattiq diskning hajmi 20 Gb atrofida bo'lishi kerak. 5 gb disk bilan ham ishlasa bo'ladi, bunday vaqtda diskni doimo bo'shatib turish kerak bo'ladi. Shu sababli kompyuterda kompakt disklarga yozish moslamasi bo'lishi va unda kartalar fragmentini boshqa kompyuterga ko'chirish imkoniyati yaratilgan bo'lishi zarur.

Vaqt o'tishi bilan joyda turli xil o'zgarishlar sodir bo'ladi: yangi aholi punktlari, yangi yo'llar paydo bo'ladi, relef va gidrografiya o'zgaradi. Joydagi o'zgarishlar hisobiga kartalar eskirib boradi va ushbu kartalardan foydalanish qiyinchilik tug'diradi, ayrim hollarda esa foydalanishning imkoni bo'lmaydi.

Yig'ilgan materiallar ichida eng asosiysi aerofotos'yomka materiallari, qolganlari esa yordamchi materiallar hisoblanadi. Transformatsiya qilingan aerofotosuratlarda stereofotogrammetrik usul yordamida joydagi o'zgarishlar aniqlanadi va kartaga ko'chiriladi yoki aerofotosuratlardan tuzilgan fotoplanlarda barcha obyektlar deshifrovka qilinadi.

Suratlarni deshifrovka qilish joyning fotosuratidagi obyektlarni topish, ularning tavsiflarini aniqlash va mohiyatini ochib berishdan iborat. Suratlarni deshifrovka qilish kartalar tuzish va yangilashdagi eng muhim va eng murakkab jarayonlardan biridir. Deshifrovka qilish aniqligi tuzilgan kartaning sifatiga qarab baholanadi. Suratlarni deshifrovka qilish bir necha bosqichdan iborat: dala ishlariga



tayyorgarlik, dala ishlari, deshifrovka qilish, suratlardagi obyektlarni chizish, xatolarni to'g'rilash va tayyor mahsulotni topshirish.

Xulosa. Umumgeografik deshifrovka qilish yer yuzasi to'g'risida umumlashtirilgan axborot olish, ya'ni yer yuzasini regional va tipologik rayonlashtirish, aloqa yo'llari, aholi punktlari, o'simliklar va ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlash hamda topografik kartalarni tuzish va yangilash uchun amalga oshiriladi. U, o'z navbatida, 2 xil deshifrovka-topografik va landshaftli deshifrovka qilishga bo'linadi. Suratlarni topografik deshifrovka qilish topografik kartada tasvirlanishi lozim bo'lgan obyektlarni anglash, ular orasidagi bog'liqlik va tavsiflarni aniqlash maqsadida olib boriladi. Topografik deshifrovka qilish kartalarni yaratish va yangilashda asosiy jarayonlardan biridir. Xususan, bu deshifrovka qilishning barcha turlarida qo'llaniladigan usullarning va ishni bajarish yo'llarining bir xilligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati

- [29] Спутник Технологиялари Асосида Автомобил Транспорт Воситалари Ҳаракатини Бошқариш Ва Назорат Қилиш ШЯ Сатторов, ЖС Асатов, ФФ Жўракулов - o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ..., 2023
- [30] Global Iqlim O'zgarishi O'zbekistonning Barqaror Rivojlanishiga Salbiy Ta'siri. SS Yarashovich, AJ Sayitkulovich, AI Hasan o'g'li... - O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ..., 2023
- [31] Sattorov Sh Y, Ahmadov S O, Akhtamov S A 2021 Mechanisms of rice growing and rice development in Uzbekistan online-conferences 5 183
- [32] Sattorov S Y 2020 Use of aerocomic methods and gis programs in construction of space data models of pastural land *Current scientific research in the modern world*
- [33] Abduloev A M 2020 The use of advanced technologies in geodetic and geoinformatics *Journal agro processing*
- [34] Sattorov S. Y., Muhammadov Q., Bobojonov S. QURILISH JARAYONIDA ELEKTRON TAXEOMETRLARLARNI O 'RNI //Euro-Asia Conferences. – 2021. – Т. 5. – №. 1. – С. 235-237.
- [35] Сатторов Ш.Я, Муҳаммадов Қ., Бобожонов С. ҚУРИЛИШ ЖАРАЁНИДА ЭЛЕКТРОН ТАХЕОМЕТРЛАРЛАРНИ О ЁРНИ //Эуро-Асиа Сонференсес. – 2021. – Т. 5. – №. 1. – С. 235-237.



- [36] Сатторов Ш. Я. и др. USE OF AEROCOSMIC METHODS AND GIS PROGRAMS IN CONSTRUCTION OF SPACE DATA MODELS OF PASTURAL LAND //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2020. – №. 5-4. – С. 16-22.
- [37] Сатторов Ш. Я. ЯЙЛОВ ЕРЛАРИНИНГ ДЕГРАДАЦИЯ ОМИЛЛАРИ //ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ. – 2020. – №. SPECIAL ISSUE.
- [38] Абдуллоев, А. М. (2020). ГЕОДЕЗИК ВА ГЕОИНФОРМАТИК ИШЛАРНИ БАЖАРИШДА ИЛФОР ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. *ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ*, (SPECIAL ISSUE).
- [39] Muzaffarovich, Abdulloyev Ashraf. "USE OF ADVANCED TECHNOLOGIES IN GEODESIC AND GEOFORMATIC WORK." *Агропроцессинг SPECIAL* (2020).
- [40] Ашраф, Мудасир, Ясс Худхейр Салал и С.М. Абдуллаев. «Интеллектуальный анализ образовательных данных с использованием базового (индивидуального) и ансамблевого подходов к обучению для прогнозирования успеваемости учащихся». *Наука о данных*. Спрингер, Сингапур, 2021. 15–24.
- [41] [Geoportal visualization of state cadastre objects:\(a case study from Uzbekistan\)](#) A Inamov, S Sattorov, A Dadabayev, A Narziyev - IOP Conference Series: Earth and Environmental , 2022
- [42] [Conventional and current approaches of urban mapping and geodetic base formulation for establishing demographic processes database: Tashkent, Uzbekistan](#) S Abdurakhmonov, M Khamidova, Y Romanyuk - E3S Web of Conferences, 2024



KORPUS LINGVISTIKASINI TILSHUNOSLIK BO‘LIMLARIGA MUNOSABATI

Raimnazarova Nasiba

TerDPI dotsenti

Xoliyorova To‘lg‘anoy Ravshan qizi

TerDPI 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada korpus lingvistikasi va tilshunoslik bo‘limlari orasidagi munosabatlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Korpus, lingvistika, emperik yondashuv, kompyuterlashtirilgan tekstlar, nutqni sintezlash, orfografik yondashuv.

Kirish.

Korpus –bu matnlar yoki matnlardan maxsus tanlangan qismlaridan ma’lum bir tarzda tashkil etilgan og‘zaki birlik. Korpus –bu lingvistik tahlil uchun muayyan tildan olingan matnlar yoki yozma matnlar to‘plami. Korpus –bu elektron shaklda saqlanadigan va kompyuterlashtirilgan qidiruvni tashkil etishga imkon beradigan har qanday tildagi og‘zaki yoki yozma matnlardan iborat bo‘lgan tabiiy matnlar to‘plami. Korpus –tilni yoki tilning o‘zgarishini to‘liq aks ettirish uchun tashqi mezonlar asosida tanlangan elektron shakldagi matnlarning qismlari to‘plami. Lingvistik tadqiqotlar uchun ma’lumotlar manbayi sifatida ishlaydi. Korpus tabiiy ravishda mavjud bo‘lgan matnlarning tizimli to‘plami sifatida belgilanishi mumkin (*ham yozma, ham og‘zaki nutq*). Korpus har qanday sistematik matn to‘plamiga murojaat qilishi mumkin bo‘lsa-da, u bugungi kunda ham tor ma’noda ishlatiladi va odatda kompyuterlashtirilgan muntazam matn to‘plamlariga murojaat qilish uchun ishlatiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonidan keltirilgan iqtibos til korpusini jamiyat hayotida, xususan tilshunoslik bo‘limlarida muhimligini ko‘rsatadi



Tabiiy tillarni qayta ishlash bo'yicha zarur bo'lgan birinchi vazifalardan biri korpusdir. Tilshunoslikda va tabiiy tillarni qayta ishlashda korpus matnlar to'plamiga aloqador bo'ladi. Bunday to'plamlar bir tilning yoki bir necha tillarning matnlaridan shakllantirilishi mumkin.

Asosiy qism

Korpus matnlarning katta to'plami bo'lishi bilan birga, bu lingvistik tahlilga asoslanadigan yozma yoki og'zaki materiallar asosi hamdir. Korpusda turli xildagi matnlar kiritilishi mumkin. Masalan:

- aniq bir yozuvchining yoki yozuvchilarning matnlari;
- zamonaviy matnlar;
- tarixiy matnlar.

Yuqoridagi matnlar shakllantirilgandan keyin, quyidagilarni qidirishimiz mumkin.

- eng ko'p tanlangan so'z;
- lug'atdagi o'zgarish;
- muayyan yozuvchining so'z va iboralar qo'llashdagi o'ziga xoslik;
- so'z birliklaridan foydalanadigan yashirin modellar;
- to'g'ridan-to'g'ri kontekstdagi so'zlarning barcha shakllari.

Korpus lingvistikasi - tilshunoslik bo'limlarida tez rivojlanib borayotgan soha. Ushbu soha tildagi lug'aviy birliklar, ularning ishlatilishi haqidagi ma'lumotlarni yig'ish, saralash va tahlil qilish bilan shug'ullanadi. Bunda til materiallari katta miqdordagi elektron korpuslar shaklida o'rganiladi. Korpus lingvistikasining so'nggi yillardagi o'sishi, kompyuter texnologiyalarini rivoji bilan bog'liq. Korpusda turli xildagi matnlar, tarjima matnlarini ko'rishimiz mumkin.

Korpus lingvistikasi tilshunoslikning boshqa sohalaridan farqli o'laroq, emperik yondashuvni qo'llaydi, real til foydalanish holatlariga suyanadi. Bu sohaga



oid ilk ishlar 20-asrning o'rtalarida paydo bo'lib, to'liq ravishda kompyuterlashtirilgan tekstlar bazasidan foydalanishni o'z ichiga olgan.

Korpus katta hajmli lug'atlarni tuzish uchun manba vazifasini o'taydi. Vaqt o'tishi bilan korpus turli lingvistik yo'nalishlar uchun ahamiyatli bo'lishi bilan, kuchli informatsion resursga aylandi. Korpus asosida kompyuter yordamida lug'atlar avvalgiga nisbatan tez tuziladi va qayta ishlanadi. Shu yo'l bilan ish boshlanishidan tugash jarayonigacha (*nashrgacha*) tilni aks ettirib turadi. Tilning zamonaviy holatini aks ettiruvchi korpus turli davrlarda yashab ijod etgan ijodkorlarning mualliflik korpuslari uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

So'zning qo'llanish davri va chastotasini aniqlashda hech qanday vosita korpusga tenglasha olmaydi. Korpus lingvistikasining keyingi taraqqiyot bosqichida statistik tadqiq metodi kompyuter tarjimasi, nutqni sintezlash va tanish, aniqlash, orfografik tekshiruv kabi lingvistik amallarni ajarishda qo'l kela boshladi. Rus va Yevropa tilshunosligida til bo'yicha o'tkaziladigan barcha tadqiqotlarning korpusga asoslanishi odatiy holga aylangan va hatto ba'zi tadqiqotlarda majburiy ham sanaladi. Gap tuzilishini o'rganishdagi ahamiyati tilning jonli qurilishini, so'zlarning o'zaro birikish imkoniyatini tahlil qilishda ko'rinadi. An'anaviy tilshunoslikdagi misolni olishda badiiy asar tiliga tayanish tajribasidan ko'ra korpusga tayanish misolning bugungi kun uchun ham ishonarliligini ta'minlaydi.

Xulosa

Turli tipdagi ma'lumot til korpusida qo'llanish shakliga ko'ra joylashadi. Bu esa uni har tomonlama va xolis o'rganish uchun asos bo'ladi. Bir marta tuzilgan va tayyorlangan axborotlar massivi bir necha tadqiqotchi tomonidan ko'p marta, turli maqsadda ishlatilishi mumkin. Korpus — tilni tadqiq etish (*til birligining o'zgarishi, eskirishi, yangilarining paydo bo'lishi, ma'nosining kengayishi va torayishi; yangi iboralarning paydo bo'lishini kuzatish*), o'rganish, an'anaviy va zamonaviy lug'atlar tuzishda keng imkoniyatli dasturlashtirilgan tizim. Korpusiz bugungi kun nazariy va amaliy filologiyasini tasavvur etib bo'lmaydi.



Tilshunoslikka oid tadqiqotda fakt bilan ish ko‘riladigan hollarda material yig‘ilishi, sistemaga solinishi lozim. Bunday katta hajmli ishni bajarishda korpus vaqt va mehnatni tejaydigan ish quroli vazifasini bajaradi. U texnik jarayonni tezlashtiruvchi vositagina emas, muayyan til zamonaviy shaklining axborot tizimi bo‘lib, kutilmagan savolga ham javob bera oladigan, til hodisasi bilan shug‘ullanadigan, soha oldiga avval qo‘yilmagan dolzarb muammolarni qo‘ya oladigan tizim. Korpus asosida ish ko‘radigan eng birinchi soha leksikografiya bo‘lib, katta hajmli lug‘atlarni tuzish uchun asosiy va takrorlanmas manba sanaladi. Vaqt o‘tishi bilan korpuslar turli lingvistik yo‘nalishlar uchun ahamiyatli bo‘lishi bilan kuchli informatsion resursga ayandi. Chunki korpus leksikografiya sohasi uchun boy manba hisoblanib, ular asosida kompyuter yordamida lug‘atlar avvalgiga nisbatan tezlik bilan tuziladi va qayta ishlanadi. Shu yo‘l bilan ish boshlanish va tugash jarayonigacha (*nashrgacha*) tilni aks ettirib turadi, eskirishga ulgurmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 11-dekabrda - Axborotlashtirish to‘g‘risidagi qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 1-fevraldagi - Joylarda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish uchun shart-sharoitlar chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori.
3. Беляева Л.Н. Лексикографический потенциал параллельного корпуса текстов Труды международной конференции “Корпусная лингвистика – 2004”. – СПб., 2004.
4. Богданова С.Ю. Исследование слова и предложения компьютерными методами Слово в предложении: кол. монография Под ред. Л.М. Ковалевой (отв. ред), С.Ю. Богдановой, Т.И. Семеновой. – Иркутск: ИГЛУ, 2010.



5. Борисова Е.Г. Слово в тексте. Словарь коллокаций (устойчивых словосочетаний) русского языка с англо-русским словарем ключевых слов. – Москва, 1995.

6. Гарабик Р., Захаров В.П. Параллельный русско-словацкий корпус Труды международной конференции “Корпусная лингвистика– 2006”. – СПб., 2006.

7. Гвишиани Н.Б. Практикум по корпусной лингвистике: Учеб. пособие по английскому языку. – М.: Высшая школа, 2008.

8. Герд А.С. РНК и академическая лексикография Труды международной конференции “Корпусная лингвистика – 2006”. –СПб.: Изд-во С.-Петербур. ун-та; Изд-во РХГА, 2006.

9. Герд А.С. Несколько слов о Специальном корпусе текстов (СКТ) Труды международной конференции “Корпусная лингвистика –2006”. – СПб.: Изд-во С.-Петербур. ун-та; Изд-во РХГА, 2006.

10. Гришина Е.А., Савчук С.О. Национальный корпус русского языка как инструмент для изучения вариативности грамматических норм Труды международной конференции “Корпусная лингвистика – 2008” 6-10 октября 2008 г. – СПб., 2008.

11. Засорина Л.Н. (ред.). Частотный словарь русского языка. – М., 1977.

12. Захаров В.П. Корпусная лингвистика: Учебно-метод. пособие. –СПб., 2005.

13. Захаров В.П. Веб-пространство как языковой корпус Компьютерная лингвистика и интеллектуальные технологии: Труды международной конференции “Диалог-2005” (Звенигород, 1-6 июня 2005 г.) – М., 2005.

14. Раимназарова, Н. (2023). Формоструктурное описание диалектизмов в толковых словарях. Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков, 1(1), 316–319.



15. Sayfullayev Najibullo, Boboniyozova Manzura. (2024). IMPORTANCE OF DIALECTS IN PLACE NAMES. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 11(02).

16. Недовшина Е.В. Программа для работы с корпусами текстов: обзор основных корпусных менеджеров. Работа с системой DDC Языковая инженерия: в поиске смыслов. (электронный ресурс).

17. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – T., 2011.

Internet saytlari.

1. Wikipedia.uz

2. www.natlib.uz

3. www.kutubxona.com

4. www.ziyouz.com

5. www.ziyonet.uz

6. www.kh-davron.uz

7. www.ziyouz.com kutubxonasi



JADIDLAR TARIXI VA YANGI JADID MAKTABLARI

Chust shahri, Karkidon dahasi 57-maktab o'quvchisi
Turg'unboyeva Oynura To'lqinboy qizi

***Izoh.** Ushbu maqola Oynura, Namangan viloyatining Chust shahridan bo'lgan 9-sinf o'quvchisi tomonidan yozilgan. Maqolada jadidlar tarixi, yangi jadid maktablari va Is'hoqxon Ibrat nomidagi ijod maktabida o'qish istagi haqida so'z yuritilgan.*

***Kalit So'zlar.** Jadid harakati, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Is'hoqxon Ibrat, yangi jadid maktablari, ijod maktablari.*

HISTORY OF THE JADIDS AND THE NEW JADID SCHOOLS

Student of school 57, Karkidon district, Chust city
Turgunbayeva Aynura Tolqinboy qizi

***Abstract.** This article was written by a 9th grader from Chust, Oynura, Namangan region. The article talks about the history of Jadids, new Jadid schools and the desire to study at the school of creativity named after Iskhakhan Ibrat.*

***Keywords.** Jadid movement, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cholpon, Abdulla Kadiri, Munavvargari Abdurashidkhanov, Iskhakhan Ibrat, new Jadid schools, creative schools.*

Kirish.

Mening ismim Oynura, men Namangan viloyatining Chust shahrida yashovchi 9-sinf o'quvchisiman. Bugun sizlarga jadidlarning boy tarixi va yangi Jadid maktablari haqida so'zlab bermoqchiman. Shuningdek, menga alohida qiziqish uyg'otgan ijod maktablari, xususan, XX asrning mashhur jadid olimi Is'hoqxon Ibrat nomidagi ijod maktabida o'qish istagim haqida ham so'z yuritmoqchiman.

Jadid harakati va uning buyuk namoyandalari



Jadid harakati XX asr boshlarida Turkiston hududida vujudga kelgan madaniy va ma'rifiy harakatdir. Bu harakatning asosiy maqsadi xalqni savodxon qilish, milliy o'zlikni anglash va zamonaviy dunyo bilan hamnafas bo'lish edi. Jadidlarning sa'y-harakatlari natijasida o'sha davrda ko'plab maktablar, madaniy va ilmiy muassasalar tashkil etildi.

Abdurauf Fitrat

Abdurauf Fitrat, jadid harakatining yetakchi arboblardan biri bo'lib, adabiyot va ma'rifat sohasida katta hissa qo'shgan. U "Sayha" nomli mashhur asari bilan tanilgan bo'lib, unda milliy uyg'onish va ma'rifatparvarlik g'oyalari ilgari surilgan.

Abdulhamid Cho'lpon

Abdulhamid Cho'lpon o'zbek adabiyoti va madaniyatining yorqin yulduzlaridan biridir. Uning "Kecha va Kunduz" romani jadidlarning ilg'or g'oyalarini aks ettirgan. Cho'lponning asarlari o'zbek adabiyotining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Abdulla Qodiriy

Abdulla Qodiriy "O'tgan kunlar" romani bilan tanilgan. Bu asar o'zbek adabiyotida realistik yo'nalishning asosini qo'ygan. Qodiriy o'z asarlari orqali milliy o'zlikni anglash va xalqni savodxon qilish masalalariga katta e'tibor qaratgan.

Munavvarqori Abdurashidxonov

Munavvarqori Abdurashidxonov ham jadid harakatining yetakchi vakillaridan biri bo'lib, o'z faoliyati davomida ko'plab maktablar ochgan va o'qituvchilarni tayyorlashda faol ishtirok etgan. U o'zining ilmiy va pedagogik faoliyati bilan milliy ma'rifatning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

Is'hoqxon Ibrat

Is'hoqxon Ibrat esa jadid harakatining eng faol vakillaridan biri bo'lib, tilshunos, tarjimon, xattot va shoir sifatida tanilgan. U To'raqo'rg'on shahrida jadid maktabiga asos solgan va ko'plab ilmiy va adabiy asarlar yozgan. Uning ma'rifatparvarlik faoliyati hozirgi kunda ham katta e'tibor va hurmatga sazovor.



Yangi Jadid maktablari

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda jadidlarning boy merosini qayta tiklash va rivojlantirish maqsadida ko'plab yangi maktablar va ta'lim muassasalari tashkil etildi. Bu maktablar jadidlarning ilg'or g'oyalari davom ettirib, zamonaviy ta'lim metodlarini joriy qilmoqda.

Yangi Ijod maktablari

O'zbekistonda ochilgan yangi ijod maktablari talabalarga zamonaviy ta'lim bilan birga milliy ma'naviyatni ham singdirishga qaratilgan. Bu maktablarda o'quvchilar nafaqat an'anaviy fanlarni o'rganadi, balki ijodkorlik, tadbirkorlik va innovatsion fikrlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Is'hoqxon Ibrat nomidagi ijod maktabi esa ushbu maktablar orasida alohida o'rin tutadi.

Is'hoqxon Ibrat nomidagi ijod maktabi

Is'hoqxon Ibrat nomidagi ijod maktabi milliy ma'rifatparvarlik ruhini saqlagan holda, zamonaviy ta'lim usullarini joriy qilishga intilmoqda. Bu maktabda o'quvchilar jadidlarning ilg'or g'oyalari asosida ta'lim oladi. Shuningdek, o'quvchilar ijodiy fikrlash, texnologiyalarni qo'llash va ilmiy tadqiqotlar o'tkazish ko'nikmalarini o'rganadi.

Mening qiziqishlarim va orzularim

Men Is'hoqxon Ibrat nomidagi ijod maktabida o'qishni juda istayman. Bu maktabda o'qish menga jadidlarning boy merosini chuqurroq o'rganish, zamonaviy ta'lim usullari bilan tanishish va o'z ijodiy qobiliyatimni rivojlantirish imkonini beradi.

Ijodiy fikrlash

Men har doim ijodiy fikrlash va yangiliklar yaratishga qiziqqanman. Is'hoqxon Ibrat nomidagi ijod maktabida o'qish orqali men bu qobiliyatlarimni yanada rivojlantiraman. Bu maktabda o'quvchilar uchun ko'plab ijodiy loyihalar va tadbirlar tashkil etiladi, bu esa o'z fikrlaringni erkin ifodalash va amalga oshirish imkonini beradi.



Texnologiyalarni o'rganish

Zamonaviy dunyoda texnologiyalarni bilish va ulardan foydalana olish juda muhim. Is'hoqxon Ibrat nomidagi ijod maktabida o'quvchilar zamonaviy texnologiyalarni o'rganadi va ularni amalda qo'llashni o'rganadi. Bu menga kelajakda professional sohada muvaffaqiyat qozonishim uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni beradi.

Ilmiy tadqiqotlar

Ilmiy tadqiqotlar o'tkazish ko'nikmalari har qanday sohada muvaffaqiyat qozonish uchun juda muhim. Is'hoqxon Ibrat nomidagi ijod maktabida o'quvchilar ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, loyihalar yaratish va ularni himoya qilishni o'rganadi. Bu menga kelajakda ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish va yangi kashfiyotlar qilish imkonini beradi.

Xulosa

Jadid harakati va uning buyuk namoyandalari, xususan, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Munavvarqori Abdurashidxonov va Is'hoqxon Ibrat, xalqimizning madaniy va ma'rifiy rivojlanishida katta hissa qo'shgan. Ularning ilg'or g'oyalari hozirgi kunda ham dolzarb bo'lib, yangi jadid maktablari orqali davom ettirilmoqda. Men Is'hoqxon Ibrat nomidagi ijod maktabida o'qishni orzu qilaman, chunki bu maktabda ta'lim olish menga jadidlarning boy merosini chuqurroq o'rganish, zamonaviy ta'lim usullari bilan tanishish va o'z ijodiy qobiliyatlarimni rivojlantirish imkonini beradi.

Jadidlar va yangi jadid maktablari orqali o'z xalqimizning madaniy va ma'rifiy merosini saqlab qolish va rivojlantirish, kelajak avlodlarga yetkazish bizning burchimizdir. Men esa bu yo'lda o'z hissamni qo'shishga tayyorman va Is'hoqxon Ibrat nomidagi ijod maktabida o'qish orqali bu maqsadimga erishishni niyat qilganman.



Adabiyotlar roʻyhati:

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/01/23/jadidlar-uz/>
2. <https://president.uz/oz/lists/view/6919>
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ijod_maktablari



MY JOURNEY TO BECOMING A POLYGLOT AND SYNCHRONIC INTERPRETER

9th grade student of school № 57, Karkidon, Chust,

Turg'unboeva Oynura To'lqinboy qizi

***Annotation.** This article, written by Oynura, a 9th-grade student from Chust, Namangan, explores her passion for learning multiple foreign languages and her dream of becoming a polyglot and synchronic interpreter. It discusses the reasons behind her aspirations, the steps she is taking to achieve her goals, and the challenges she anticipates.*

***Keywords:** polyglot, synchronic interpreter, language learning, cultural enrichment, career opportunities, personal growth, language immersion, advanced studies, professional development, networking, overcoming challenges, global communication, cultural understanding, multilingual, Oynura, Namangan*

МОЙ ПУТЬ К СТАНОВЛЕНИЮ ПОЛИГЛОТА И СИНХРОННОГО ПЕРЕВОДЧИКА

Учащийся 9 класса школы № 57, Каркидон, Чуст,

Тургунбоева Ойнура Толкинбой кызы

***Аннотация.** В этой статье, написанной Ойнурой, ученицей 9-го класса из Чуста Наманганской области, рассказывается о ее страсти к изучению нескольких иностранных языков и ее мечте стать полиглотом и синхронным переводчиком. В нем обсуждаются причины ее стремлений, шаги, которые она предпринимает для достижения своих целей, и проблемы, которые она ожидает.*

***Ключевые слова:** полиглот, синхронный переводчик, изучение языка, культурное обогащение, возможности карьерного роста, личностный рост, языковое погружение, углубленное обучение, профессиональное развитие,*



нетворкинг, преодоление трудностей, глобальное общение, культурное понимание, многоязычие, Ойнура, Наманган

Introduction.

My name is Oynura, a 9th-grade student from Chust, Namangan. I have always been fascinated by languages and the world of communication they open up. My dream is to learn many foreign languages and become a polyglot, ultimately working as a synchronic interpreter. This article is about my passion for languages, the reasons behind my aspirations, and the steps I am taking to achieve my goals.

The fascination with languages. From a young age, I have been captivated by the sounds and rhythms of different languages. I remember listening to foreign songs and being intrigued by their beauty and uniqueness. My curiosity led me to learn basic phrases in various languages, which fueled my desire to explore more.

Languages are more than just a means of communication; they are gateways to understanding different cultures, histories, and perspectives. Each language has its own unique way of expressing ideas, emotions, and traditions. By learning multiple languages, I hope to connect with people from diverse backgrounds and gain a deeper appreciation of the world's rich cultural tapestry.

Why I want to become a POLYGLOT. Becoming a polyglot is not just about the number of languages I can speak; it is about mastering them to a level where I can comfortably and fluently communicate in different contexts. Here are some reasons why I am passionate about becoming a polyglot:

1. ****Cultural Enrichment****: Learning languages allows me to immerse myself in different cultures. It helps me understand the values, customs, and traditions of various communities. This cultural enrichment is invaluable in broadening my worldview and fostering empathy and respect for others.
2. ****Career Opportunities****: In today's globalized world, knowing multiple languages is a significant asset. It opens up numerous career opportunities in fields



such as international business, diplomacy, tourism, and translation services. Being a polyglot can give me a competitive edge in the job market.

3. **Personal Growth**: Mastering languages is a challenging and rewarding endeavor. It requires dedication, discipline, and perseverance. Through this process, I am developing essential skills such as problem-solving, memory retention, and cognitive flexibility. These skills are not only beneficial for language learning but also for personal growth and development.

The role of a synchronic interpreter. A synchronic interpreter is someone who translates spoken language in real-time during conferences, meetings, or events. This role is incredibly challenging and requires a high level of proficiency in multiple languages. Here are some reasons why I aspire to become a synchronic interpreter:

1. **Real-Time Communication**: Synchronic interpretation allows for immediate and effective communication between individuals who speak different languages. It bridges language barriers and ensures that everyone can participate and understand the conversation.
2. **Dynamic and Exciting**: The role of a synchronic interpreter is dynamic and fast-paced. It involves quick thinking, mental agility, and the ability to remain calm under pressure. I find this environment exhilarating and stimulating.
3. **Global Impact**: As a synchronic interpreter, I can contribute to meaningful international dialogues and collaborations. Whether it's interpreting for diplomats, business leaders, or humanitarian organizations, my work can have a positive impact on global communication and understanding.

Steps to achieving my goals. Becoming a polyglot and a synchronic interpreter is a long and challenging journey, but I am committed to achieving my goals. Here are some steps I am taking to make my dreams a reality:

1. **Language Learning**: I am currently learning English, Russian, and Arabic, and I plan to add more languages to my repertoire. I dedicate time each day to



studying vocabulary, grammar, and pronunciation. I also practice speaking with native speakers whenever possible.

2. **Language Immersion**: To enhance my language skills, I participate in language exchange programs and cultural immersion activities. These experiences allow me to practice speaking in real-life situations and gain a deeper understanding of the cultures associated with the languages I am learning.

3. **Advanced Studies**: After completing high school, I plan to pursue advanced studies in linguistics and interpretation. I aim to enroll in a university that offers specialized programs in language studies and interpretation techniques.

4. **Professional Development**: To become a successful synchronic interpreter, I need to develop specific skills such as active listening, note-taking, and simultaneous translation. I am taking online courses and workshops to hone these skills and gain practical experience.

5. **Networking**: Building connections with professionals in the field of interpretation and translation is crucial. I am actively seeking mentorship and advice from experienced interpreters who can guide me on my journey.

Overcoming challenges. Learning multiple languages and becoming a synchronic interpreter is not without its challenges. Here are some obstacles I anticipate and how I plan to overcome them:

1. **Time Management**: Balancing language learning with schoolwork and other responsibilities can be challenging. I am developing a structured schedule that allows me to allocate time effectively for each activity.

2. **Resource Availability**: Access to language learning resources can be limited, especially for less commonly taught languages. I am utilizing online resources, language learning apps, and community libraries to supplement my studies.



3. ****Practice Opportunities****: Finding opportunities to practice speaking with native speakers can be difficult. I am joining language exchange groups and participating in virtual language meetups to create more practice opportunities.

Conclusion

My passion for languages and my aspiration to become a polyglot and synchronic interpreter drive me to work hard and stay committed to my goals. I believe that learning multiple languages will not only enrich my life but also enable me to make a meaningful contribution to global communication and understanding.

By mastering different languages, I hope to bridge cultural gaps and promote mutual respect and collaboration among people from diverse backgrounds. Becoming a synchronic interpreter is a challenging yet rewarding career path that allows me to combine my love for languages with my desire to facilitate meaningful conversations on a global scale.

As I continue on this journey, I am excited about the opportunities and experiences that lie ahead. I am determined to overcome any challenges and achieve my dream of becoming a polyglot and synchronic interpreter, making a positive impact on the world through the power of language.

References:

1. <https://www.wikihow.com/Become-a-Polyglot#:~:text=Being%20a%20polyglot%20means%20learning%20at%20least%204,speak%20with%20other%20people%20who%20know%20the%20language.>
2. <https://www.polyglottistlanguageacademy.com/language-culture-travelling-blog/2023/3/24/becoming-a-polyglot-who-can-do-it-how-to-do-it-and-why-its-worth-it>



G'AFUR G'ULOMNING "SHUM BOLA" ASARIDAGI TARIXIY VA ARXAIK SO'ZLAR

Sayfullayev Najibullo Hayriddin o'g'li

TerDPI o'qituvchisi

Ro'ziyeva Umida Azamat qizi

TerDPI talabasi

Anotatsiya. Ushbu maqola G'afur G'ulomning "Shum bola" asarida uchraydigan eskirgan, tarixiy va arxaik so'zlar tahlili va eskirgan, tarixiy arxaik so'zlar o'zi nima degan savolga javob beradi.

Kalit so'zlar: *Shum bola, arxaik so'zlar, tarixiy so'zlar, eskirgan so'zlar, istorizmlar, qalandar, qalandarbachcha, jazava, dondon sopli pichoq, leksik lug'at, qo'ndog, yaktak, lipa, guppi, kuchala, irvit.*

Barcha xalqlarda o'z anana va qadriyatlarini, tarixini, ijtimoiy-siyosiy hayotini, qayg'uli va quvonchli kunlarini aks ettiruvchi asarlar mavjud. O'zbek xalqining mana shunday asarlaridan biri bu G'afur G'ulom qalamiga mansub "Shum bola" qissasidir. Bu asar o'zbek xalqining XX asr boshidagi hayoti tasvirlangan. Ushbu asarda o'sha davrga xos so'zlar va iboralar ishlatilgan quyida ularning tahlilini o'rganamiz. G'afur G'ulomning antroponimlardan badiiy va uslubiy maqsadlarda foydalanish mahoratini ochish, uning asarlarida qo'llangan kishi nomlari, laqablarining etimologik va ma'noviy xususiyatlarini tavsiflash, laqablarning nominativlik va ekspressivlik xususiyati kabi masalalar ana shunday vazifalar sirasidan.

G'afur G'ulomning "Shum bola" nasriy asarida hamda pyesa, hikoya va feletonlaridagi obrazlilik, real tasvirlar xalqning jonli so'zlashuv tili asosida badiiy ifodalangan. Shuningdek, voqea-hodisalarning haqqoniy manzarasini chizishda qadimgi turkiy, arabiy, forsiy tillardagi lug'aviy birliklarni aslidagidek qo'llagan. Jumladan, hozirgi o'zbek tilida kam uchraydigan ko'tarmachi, paxtafurush, gaz (uzunlik o'lchovi), xo'qa (yog' idish), qo'ndog, yaktak, lipa, guppi, mursak,



savag'ich, chirmandachi, kuchala, irvit kabi leksemalar o'z ma'nosida joy-joyida ishlatilgan.

So'z bu millat yuzidir. Zamon o'zgarishi, millatlar almashinuvi, turli texnologik va boshqa mahsulotlarning kirib kelishi bilan birgalikda o'sha davlatning lug'ati ham o'zgarib, ortib va ayrim so'zlar eskirishiga ham olib keladi.

Eskirgan so'z – ma'lum bir davrda keng foydalanilgan ayni paytda faol muloqotda emas ammo til lug'atida saqlanib qolgan so'zlar.

Eskirgan so'zlar eskirish darajasiga va foydalanish xususiyatiga qarab o'z leksik sistemasini tashkil qiladi va ularni *tarixiy va arxaik* so'zlarga bo'lib o'rganiladi.

Tarixiy so'zlar. Bunda so'z o'zi ifodalagan so'z bilan birga eskiradi. Ya'ni ma'lum bir predmet, rasmiy unvonlarning yo'qolishi, ijtimoiy hodisalar va harbiy qurol asboblarning foydalanishdan chiqib ketishi, eskirishi bilan birga unlarni ifodalovchi so'z ham birga eskirib tarixiy so'zga aylanadi. Tarixiy so'zlar o'zi atagan narsa yoki tushuncha iste'moldan chiqib ketganligi bois qo'llanmayotgan leksik qatlamdir. Bu qatlam har bir davrda jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda yuzaga keladi, kamayib boradi. Istorizmlar leksik, semantik, frazeologik xarakterga ega bo'ladi. Eskirib iste'moldan chiqqan, o'z sinonimiga ega bo'lmagan so'zlarga leksik istorizmlar deyiladi: omoch, cho'ri, yuzboshi kabi.

Istorizmlar tilning leksik tarkibidan tamoman chiqib ketmaydi, zarur payt-da nutqda qo'llanib turadi, lekin eskirganligi, unutilganligi sababli ma'nosi ko'pincha izoh talab qiladi. Hozirgi o'zbek tili leksikasi tarkibidagi batrak, amin, vasiqa, vaqarnoma, mudarris, charx, kansava, tanob, choriq, quloq kabi so'zlar tarixiy so'zlar – leksik istorizmlardir

“Qalandarboshi meni ta'rif-tavsiflab ketdi. Jazavalarimning zo'rligidan gapirdi. Bir choynak choy ichguncha olami fanodan olami baqoga o'tib ketgan, behud Mashrabi devona, dili jazavai ilohi bilan to'la qalandarbachcha, o'rta qo'ldak ekanligimni tushuntirdi”. Shum bola asarida Shum bola tilidan olingan



ushbu parchada *qalandarboshi* va *qalandarbachcha* soʻzlarini tahlil qiladigan boʻlsak, qalandar bu islomiy sheʼrlar, gʻazallar aytib dinni targʻib qiluvchi, tarkidunyo qilib darbadar kezuvchi insonlarga nisbatan qoʻllanilgan soʻz.

Qalandarboshi barcha qalandarlarga yetakchilik qiluvchi ularga yoʻlboshchilik vazifasini oʻtagan inson.

Qalandarbachcha deb qalandarlarning farzandlari yoki endi qalandarlik yoʻlini tanlagan yosh qalandarlar nazarda tutiladi. Hozirgi kunda bu ikki soʻz ham eskirgan hisoblanim soʻzlashuvda deyarli qoʻllanilmaydi. Sheʼr va gʻazal yoki tarixiy asarlarda uchrashi mumkin bu soʻzlar.

Jazava - kuchli asab qoʻzgʻalishi, oʻz xatti-harakatlarini nazorat qilolmay qolish, xayolot va voqelik oʻrtasidagi muvozanatning yoʻqolishi natijasida yuzaga keladigan holat. Bu oʻrinda jazava tasavvuf istilohida tariqat axlining ilohiy ishq taʼsirida shavqu zavqqa toʻlishi, zikr va samo asnosida oʻzidan ketish holatlari sifatida qoʻllanilgan. Bu soʻz ushbu maʼnoda hozirda juda kam qoʻllaniladi.

Fano soʻzi arab tilidan olingan boʻlib oʻlmoq, vafot etmoq, yoʻq boʻlmoq kabi maʼnolarni anglatadi, baqosoʻzi ham arabcha boʻlib “abadiy”, “oʻlmas”, “oʻchmas”, “mangu” degan maʼnoni anglatadi. Gʻ.Gʻulom “Shum bola” qissasida fano va baqo soʻzlarini uygʻunlashtirgan holda iboraning hajmini kengaytirgan. Yaʼni “fano olamidan baqo olamiga ketmoq” “yoʻqlik olamidan mavjudlik, mangulik olamiga ketish” maʼnosida kelmoqda. Mazkur gapda tinib tinchimas Qoravoyning taʼrifi Qalandorboshi tomonidan toʻrt sifatdoshli birikma bilan asoslanib berilmoqda: olami fanodan olami baqoga oʻtib ketgan, behud Mashrabi devona, dili jazavai ilohi bilan toʻla qalandarbachcha, oʻrta qoʻldek.

Arxaik soʻzlar. Bunda soʻz eskiradi ammo soʻz ifodalangan tushuncha boshqa yangi bir soʻz bilan saqlanib qoladi. Eskirgan soʻzlar tarixan oʻzgaruvchan leksik-senmantik hodisa hisoblanadi

Eskirish drajasi boʻyicha 2 guruhga ajratish mumkin

1. Maʼnosi tushunarli boʻlmagan soʻzlar.



2. Ma'nosi aniq lekin kam qo'llaniladigan so'zlarga bo'linadi.

Eskirib iste'moldan chiqqan, o'z ekvivalentiga ega bo'lmagan iboralarga frazeologik istorizmlar deyiladi. Masalan, madrasa tuprog'ini yalamoq, tarki dunyo qilmoq holatlari hayotda mavjud bo'lmasa ham, ularning ifodasi tarixiylik sifatida saqlanib qolgan.

G'afur G'ulomning "Shum bola" asarida Shum bolaning Sriboyni yig'latgan ayanchli hikoyasining dastalbki yolg'oni "dondon sopli pichoq" bilan boshlanadi bu ham ayni eskirgan so'z hisoblanadi.

Dondon so'zi asli forschadan olingan bo'lib tish degan ma'noni anglatadi. Bu o'rinda fil suyagidan yasalgan pichoq ma'nosida qo'llanilgan. Hozirgi kunda bu so'z ham juda kam deyarli qo'llanilamaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mardiyeva M.Sh. FRAZEOLOGIZMLARNING LINGVOMADANIY TAHLILI(G'AFUR G'ULOM. Educational research in universal sciences.
2. Karimov N. G'afur G'ulom. –T: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot -matbaa ijodiy uyi, 2003.
3. Najibullo Sayfullayev. (2023). TERMS ARE AN INDIVIDUABLE WEALTH OF OUR LANGUAGE. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(10), 168–170.
4. Sayfullayev Najibullo Hayriddin o'g'li, & Jo'rayeva Marjona Baxtiyor qizi. (2024). O'ZBEK TILINING JAMIYAT TARIXI BILAN BOG'LIQLIGI. *TADQIQOTLAR.UZ*, 39(8), 155–157.
5. Matyoqubova T. G'afur G'ulom badiiyati. –T: Fan va texnologiya, 2006. O'zbek filologiyasining dolzarb muammolari. –Andijon, 2003



ВОЗДЕЙСТВИЕ СОЦИАЛЬНЫХ ПЛАТФОРМ НА ФОРМИРОВАНИЕ КОГНИТИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ У ПОДРОСТКОВ

Магистрант Совместной образовательной
программы магистратуры МГУ и НУУ

Ошакаева Айша Алпысовна

aisha.oshakaeva@yandex.ru

Аннотация: В статье рассматривается влияние социальных сетей на когнитивные способности подростков. Анализируется как положительное, так и отрицательное влияние, а также даются рекомендации по оптимизации использования социальных сетей для когнитивного развития.

Социальные сети стали неотъемлемой частью жизни подростков, однако их влияние на развитие когнитивных способностей остается предметом дебатов.

Ключевые слова: Социальные сети, подростки, когнитивные способности, положительное воздействие, отрицательное воздействие, критическое мышление, фильтрация информации.

Abstract: The article examines the influence of social networks on the cognitive abilities of adolescents. Both positive and negative effects are analyzed, and recommendations are given on optimizing the use of social networks for cognitive development.

Social media has become an integral part of teenagers' lives, but their impact on cognitive development remains a matter of debate.

Keywords: Social networks, teenagers, cognitive abilities, positive impact, negative impact, critical thinking, information filtering.



Введение:

Социальные сети стали неотъемлемой частью жизни современных подростков. Они используют их для общения, самовыражения, получения информации и развлечения.

С появлением социальных сетей подростки получили новый способ общения, обмена информацией и создания контента. Однако, важно понимать, как это влияет на развитие их когнитивных способностей.

Положительное влияние социальных сетей:

Исследования показывают, что использование социальных сетей может стимулировать развитие критического мышления у подростков. Они учатся анализировать информацию, оценивать ее достоверность и развивать свою креативность через создание контента.

Доступ к информации: Социальные сети предоставляют подросткам доступ к огромному количеству информации по различным темам. Это может стимулировать их любознательность и стремление к знаниям.

Развитие критического мышления: В социальных сетях подростки сталкиваются с разными точками зрения и мнениями. Это учит их критически мыслить, анализировать информацию и формировать собственные суждения.

Многозадачность: Социальные сети часто требуют от пользователей одновременного выполнения нескольких задач, например, общения, поиска информации и потребления контента. Это может способствовать развитию навыков многозадачности.

Творчество: Социальные сети предоставляют подросткам платформы для самовыражения и творчества. Это может стимулировать их креативность и нестандартное мышление.



Отрицательное влияние социальных сетей:

С другой стороны, постоянное пребывание в социальных сетях может привести к уменьшению внимания, снижению концентрации и ухудшению памяти у подростков. Бесконечный поток информации и отвлечение могут негативно сказаться на когнитивных функциях мозга.

Снижение концентрации внимания: Социальные сети часто отвлекают подростков от учебы и других важных дел. Это может привести к снижению концентрации внимания и ухудшению памяти.

Клиповое мышление: Из-за фрагментарного характера информации в социальных сетях у подростков может развиваться клиповое мышление, когда они неспособны концентрироваться на чем-то одном в течение длительного времени.

Снижение эмпатии: Чрезмерное использование социальных сетей может привести к снижению эмпатии, так как подростки привыкают к виртуальному общению и меньше контактируют с людьми в реальном мире.

Кибербуллинг: Социальные сети могут стать платформой для кибербуллинга, который может негативно сказаться на психическом здоровье и самооценке подростков.

Рекомендации для подростков и их родителей:

Для минимизации отрицательного влияния социальных сетей на развитие когнитивных способностей подростков, важно контролировать время, проведенное в социальных сетях, и обучать подростков правильно фильтровать информацию. Также важно поощрять занятия физической активностью и другими видами умственной деятельности.

Ограничение времени: Родителям и педагогам рекомендуется ограничивать время, которое подростки проводят в социальных сетях.



Развитие критического мышления: Важно учить подростков критически мыслить, анализировать информацию и не доверять всему, что они видят в социальных сетях.

Развитие социальных навыков: Социальные сети не должны заменять реальное общение. Важно поощрять подростков развивать свои социальные навыки, взаимодействуя с людьми в реальном мире.

Использование социальных сетей для обучения: Можно использовать социальные сети для обучения, например, для поиска информации по учебным предметам или для участия в образовательных проектах.

Заключение:

Влияние социальных сетей на когнитивные способности подростков является многогранным. С одной стороны, они могут стимулировать любознательность, критическое мышление и креативность. С другой стороны, они могут привести к снижению концентрации внимания, развитию клипового мышления и кибербуллинг. Важно находить баланс между использованием социальных сетей и другими видами деятельности для обеспечения здорового развития мозга подростков.

Важно, чтобы подростки использовали социальные сети осознанно и с пользой для своего развития. Родителям и педагогам необходимо играть активную роль в этом процессе, помогая подросткам развить необходимые навыки и оградить их от потенциальных негативных последствий.



Список использованной литературы

1. Андерсон М., Цзян Дж., 2018. Подростки, социальные сети и технологии. Исследовательский центр Пью.
2. Розен Л.Д., Лим А.Ф., Фелт Дж., Кэрриер Л.М., Чивер Н.А., 2014. Обзор влияния цифровых медиа на когнитивное развитие. Обзор исследований подростков, 1 (4), стр. 263–276.
3. Твенге Дж.М., Кэмпбелл В.К., 2018. Связь между временем, проведенным перед экраном, и низким психологическим благополучием среди детей и подростков: данные популяционного исследования. Отчеты о профилактической медицине, 12, стр. 271–283.



CHET TILINI O'RGANISH DUNYOQARASHNI CHINDAN XAM BOYITADI

**Namangan viloyati Namangan shahri Namangan muhandislik
qurilish instituti Akademik litseyi nemis tili fani o'qituvchisi
Mamadjanova Nozima Abduraxmanovna**

***Annotatsiya:** Maqolada hozirgi kunda chet tilini o'qish va o'rganish naqadar ahamiyatli ekanligi, chet tilini bilish orqali yangi imkoniyatlar paydo bo'lishi va bunga erishish yo'llari haqida fikr yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** zamonaviy dunyo, til o'rganish, ijtimoiy soha, taraqqiyot tajribasi, til elementlari.*

Qo'shimcha til o'rganish nafaqat shu soha vakillari uchun balki, boshqa kasb egalari uchun ham zarur. Masalan biznesmen insonlarni misol qilib olaylik, ular uchun global iqtisodiyotda mustahkam o'rinni rivojlantirish va uni saqlab qolish juda ham muhim. Agar biznesmen chet ellik mijozlarni psixologiyasi va tilini yaxshi tushuna olsa bunga erishish juda oson kechadi. Shu sababli ko'p kompaniyalar chet tilini biladigan nomzodlarni qidiradilar. Moliyaviy daromaddan tashqari tilni o'rganish sayohatchilarga noyob tajriba taqdim etadi. Chet tilini bilsak sayohatimiz ham arzonlashadi. Turli davlatlarga borganimizda chet tilini bilish bizga juda katta foyda beradi. Dunyoning turli burchaklariga sayohat qilishni yoqtiradigan, boshqa xalqlarning madaniyatiga, urf odatlariga, turmush tarziga qiziqadigan insonlar uchun chet tilini o'rganish juda asqotadi. Siz joylarni mahalliy kishilardan so'rab oson topishingiz, o'zingizning hohish, istaklaringizni bemalol tushuntira olishingiz, istagan narsangizni buyurtma qilishingiz mumkin.

Xorijiy tillar(ingliz, rus, nemis, ispan til)larini o'rganish hozirgi davr talabi ekan, o'sib kelayotgan yosh avlodga til o'rganishning yangi uslublarini, «Kadrlar



tayyorlash milliy dasturi»ga asoslangan holda ishlab chiqib, o'qish jarayoniga tavsiya etish olimlar, mutaxassislar oldida turgan dolzarb masalalardan hisoblanadi. Iste'dodli yoshlarimizning o'z qiziqqan sohalarida yetuk mutaxassislar bo'lishlari uchun, avvalambor chet tilini jumladan, ingliz tilini mukammal bilishlari zarur. Yosh avlodda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish hamma davrlarda millatning ilg'or kishilari diqqat markazida bo'lib kelgan. Insoniyat boshidan kechirgan barcha tuzumlarda davrning o'qimishli, ziyoli, bilimdon kishilari dunyo ilm faniga umu- minsoniy madaniyatiga salmoqli hissalarini qo'shganlar.

Tilshunos olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki qo'shimcha til o'rganish miyani rivojlantiradi. Ikki va undan ortiq til o'rganish natijasida inson xotirasi faollashadi. Radio eshtish, televizor tamosha qilishdan ko'ra til o'rganish miya uchun foydali funktsiya hisoblanadi. Necha yoshda bo'lishimizdan qat'i nazar chet tilini o'rganish aqliy faoliyatimizga ijobiy tasir o'tkazadi. Chet tillarini o'rganishni kutilmagan afzalliklaridan biri shuki, til o'rganish bizni hayotimizda har bir jabhada g'alabaga erishishimiz uchun bizni moslashtirish qobiliyatiga ega. Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, chet tilini o'rgangan insonlarni dunyo qarashi keng bo'ladi. Shu shababli ularda har qanday muammoli vaziyatlarni oson hal qila olish qobiliyati shakllanadi. Chet tilini o'rgangan kishilar boshqalardan farqli o'laroq erkin va ravon fikrlaydi. Chet tilini o'rganishning yana bir foydali tomoni shundaki, chet tillarini o'rganish insonlarni tahliliy qobiliyatini yuqori darajada oshishiga sabab bo'ladi. Ko'p til o'rgangan kishilarning suhbatlari juda ham qiziqarli va maroqli bo'lishi tajribalar orqali isbotlangan. shu jumladan tanqidiy ham. Xo'sh biz chet tillarini qaysi metodlar orqali o'rganamiz. "Bolalikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir". Ushbu ibora xalqimizda bejiz paydo bo'lmagan. Shu sabab bolalarga kichik yoshdalik payitlaridan til o'rgatishni boshlash lozim. Barchamizga malumki til o'rganish uzoq vaqt davom etadigan jarayon hisoblanadi. Shu sabab eski qoida va uslublariga bog'lanib qolmasdan oson va qiziqarli metodlardan



foydalanish samarali bo'ladi. Til o'rganish uchun eng avvalo mustahkam iroda va qat'iy tartibga asoslangan reja bo'lishi yetarli.

Bilim ilmiy dunyoqarashning asosi bo'lib hisoblanadi. Bilim olish albatta yoshlikdan boshlanadi. «Yoshlikda olingan ilm toshga o'yilgan naqshdir»,- deydi dono xalqimiz. Bilimli kishi hech qachon tarix sahifalaridan, xalqimizning qalbidan o'chmaydi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishilgandan so'ng o'quvchilarda xorijiy tillarni o'rganish ko'nikmasini shakllantirishda juda katta ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, yoshlarni xorijiy mamlakatlarda ta'lim olishi hamda fan va texnika sirlarini o'rganishi uchun keng yo'l ochilgan.

Malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqichi o'zida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, uni yuqori bosqichlarga ko'tarish, shu bilan birga jahon ta'limi darajasiga yetkazish borasida muayyan vazifalarni amalga oshirishi lozim. Ilg'or g'oyalarni, fan sirlarini o'rganish uchun zaruriy chet tillari bo'yicha bilimlar bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab o'rganish masalasi davlatimiz diqqat markazida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda yoshlar fan va texnika sirlarini egallashlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. chet tillarning eng muhim tomonidan yana biri shundaki, xalq xo'jaligini yangi texnikalarsiz tasavvur qilish qiyin. Yangi texnikalarni taraqqiy ettirish ham fan singari yangiliklar ilmiy izlanishlarning ijobiy natijalariga asoslanadi.

Ijtimoiy sohada chet el rivojlangan mamlakatlar taraqqiyoti tajribasi asosida o'zimizning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini belgilab berishdan iborat bo'ladi. To'g'ri keljagimizning shakl-shamoyilini taraqqiyotimiz natijalarini, albatta, fan belgilab beradi. Unda rivojlangan mamlakatlar tajribasi umumlashganligi, ularning progressiv metodlarida foydalanishimiz zarur. Lekin ularning taraqqiyot tajribasi hech qachon bizga etalon bo'la olmaydi. Ertangi



kunimizning yo‘nalishlari ham, fan va texnika taraqqiyoti natijalari asosida belgilanadi.

Bizning kelajakdagi orzu-umidlarimiz, faravon hayotimiz, albatta, fan va texnika taraqqiyoti natijalari asosida bo‘lishi, jamiyatimiz taraqqiyoti yo‘nalishlari, ularning ijtimoiy, iqtisodiy ildizlari ham o‘zlarining taraqqiyot bosqichlarida chet tillarida yaratilgan.

Xo‘sh, ilm-fanning, xususan, chet tilining texnikani rivojlantirishdagi o‘rni nimalardan iborat: xorijiy tillar texnikaga doir o‘quv darsliklari va qo‘llanmalari tayyorlashda, ilmiy metodik ta‘minotni amalga oshirishda bevosita va bilvosita ishtirok etadi. Qolaversa, fan kadrlar tayyorlashda buyurtmachi sifatida ilmiy izlanishlarni bevosita o‘quv jarayoni bilan mutanosiblashtirishga erishdi. Shu bois, ilmiy, ilmiypedagogik salohiyat va moddiy-texnik bazadan kadrlar tayyorlashda samarali foydalanish asosiy vazifalarga kiradi.

Har qanday taraqqiyot uchun ham bilim, ilm-fan, tarbiya kerak bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda ilm-fan taraqqiyot negizidir. Demak, moddiy taraqqiyotga erishish uchun ham, iqtisodiy taraqqiyotga erishish uchun ham ulkan madaniy zamin zarur.

Shunday ekan, chet tili darslarida ilmiy-ma‘rifiy matnlarni o‘qish va o‘rganish jarayonida ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning omillarini ko‘rsatuvchi matnlarga alohida e‘tibor qaratish zarur. Chet tili darslarida faqat o‘quvchilarga til elementlari, leksik birliklar hamda tili o‘rganilayotgan mamlakat haqida xabar bermasdan, balki mazkur mamlakatning buyuk ilmiy kashfiyotchilari, ilmiy texnikaviy taraqqiyot natijalarini matnlar asosida tanishtirishdan iborat. Agar o‘quvchi maktab partasidayoq ilmiy kashfiyotlar va ilmiy texnikaviy taraqqiyot natijalari bilan tanishsalar, bu an‘ana oliy o‘quv yurtida ham ilmiy tadqiqot faoliyatida ham davom etadi.



Demak, chet tilini o'rganish faqat tilshunos va tarjimonlar emas, balki ilmiy texnikaviy sohalar tadqiqoti bilan shug'ullanuvchilarga ham zarur bo'lar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Maxmudov, Q. S. O. G. L., Shayxislamov, N. Z. O. G. L., & Jo, B. B. O. G. L. (2020). O 'zbek va xorijiy tillarda antonimlar tavsifi, o 'mi va ularnig turli jihatdan tasniflanishi. Science and Education, 1(Special Issue 3).*

2. *Juraboyev, B. B. (2020). Nemis tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv. Science and Education, 7(7), 215-220.*

3. *Рахманова, М. (2020). Таълим жараёнида укув мунозараларини ташкил этишда укутувчининг педагогик махррати, ижодкорлиги ва фаоллиги. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal, 4(4), 68-73.*

4. *Rajabova, I. T. (2020). Лингводидактические аспекты глаголов, выражающие перемещения, на уроках русского языка с учащимися с узбекским языком обучения. Academic research in educational sciences, (4).*

5. *Абдуллаевна, Ш. К., & Фагимовна, Ш. Н. (2020). Нетрадиционные методы обучения русского языка и литературы. Суз санъати,(3).*

6. *Shokarimova, K. A. (2020). Pedagogik qobiliyat va pedagogik mahoratning talimtarbiya berishdagi ahamiyati. Science and Education, ^ (Special Issue 2).*



PROFILAKTIKA INSPEKTORINING IJTIMOIIY REABILITATSIYA VA IJTIMOIIY MOSLASHTIRISH SOHASIDAGI FAOLIYATI

320-guruh kursanti G'ofuraliyev Shermuhammad Sherali o'g'li

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola profilaktika inspektorlarining ommaviy tadbirlar xavfsizligini ta'minlash, ijtimoiy reabilitatsiya va ijtimoiy moslashtirish sohasidagi faoliyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: , profilaktika inspektori, xavfsizlik, ijtimoiy reabilitatsiya, ijtimoiy moslashuv, markaz, , qoidalar, hamkorlik, jamoat xavfsizligi.

Funksional vazifasiga ko'ra aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri ishlovchi faoliyat - bu huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatidir. Huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlari, aholi bilan ishlash jarayonida ularni har qanday vaziyatda huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini muhofaza etishlari lozim. Profilaktika inspektori o'z xizmat faoliyatini bir qator normativ hujjatlarga amal qilgan holda amalga oshiradi. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qononi, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2833-sonli Qarori, Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-son Farmoni va boshqa shu kabi ichki idoraviy hujjatlar orqali o'z faoliyatlarini amalga oshirishadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29-noyabr kunidagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini ta'minlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 27-son farmoni qabul qilinishi orqali profilaktika inspektorlarining xizmat faoliyatlariga kiruvchi aniq vazifalar belgilab berildi. Mazkur vazifalar 22 tani tashkil qilib profilaktika inspektorlarining o'z



ma'muriy hududlarida huquq tartibot, aholi tinch totuvligi va farovonligini ta'minlashga qaratilgan vazifalardir.

Farmonda ko'rsatilmagan vazifalardan biri bu favqulodda vaziyatlardagi profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlashga qaratilgan faoliyatidir. Profilaktika inspektorlari o'zlariga biriktirilgan ma'muriy hududda aholini favqulodda holatlar vaqtida himoya qilish ularning salbiy oqibatlarga olib kelish xavfini oldini olish yoki ta'sir darajasini maksimal kamaytirishga qaratilgan kompleks tadbirlar amalga oshirishi va bu borada favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimlari bilan chuqur hamkorlik qilishi kerak. Profilaktika inspektorining ijtimoiy reabilitatsiya va ijtimoiy moslashtirish sohasidagi faoliyati keng ko'lamli bo'lib, bir qator muhim vazifalarni o'z ichiga oladi. Ularning asosiy maqsadi - jinoyatchilikka moyil shaxslarni jamiyatga qaytarish va ularning qayta jinoyat sodir etishining oldini olishdir.

Reabilitatsiya dasturlarini tashkil etish va amalga oshirish bunda jinoyat qilgan shaxslarni jamiyatga qayta moslashtirish uchun reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish kabi psixologik, ta'limiy va kasbiy yordamni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy moslashtirish masalalarida esa shaxslarni ijtimoiy hayotga qaytarish uchun qo'llab-quvvatlash, jumladan, ularni ish bilan ta'minlash, uylantirish yoki o'qitish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish. Ta'qib va monitoringda esa jinoyatchilikka moyil shaxslarni kuzatish va ularning xatti-harakatlarini nazorat qilish orqali ularning yana jinoyat sodir etishining oldini olishga yordam beradi. Xavf guruhlarini aniqlash va ular bilan ishlash jarayonida jinoyat sodir etishi mumkin bo'lgan xavf guruhlariga kiruvchi shaxslarni aniqlash va ularning jinoyat sodir etishining oldini olish uchun maxsus dasturlarni ishlab chiqish masalasi bo'lib bu guruhlar odatda iqtisodiy jihatdan zaif, past ijtimoiy statusga ega yoki oldin jinoyat sodir etgan shaxslar bo'lishi mumkin.



Reabilitatsiya muassasalari bilan hamkorlik, bunda reabilitatsiya markazlari, ijtimoiy xizmatlar va boshqa tegishli muassasalar bilan yaqin hamkorlikda ishlashni o'z ichiga oladi va bu hamkorlik reabilitatsiya jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Maslahat va psixologik yordam sohasida shaxslarni psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash va ularga kerakli maslahatlar berish orqali ularning ruhiy holatini yaxshilash va ijtimoiy hayotga moslashishiga yordam beradi. Jamoatchilik bilan hamkorlikda jamoatchilik bilan yaqin hamkorlikda ishlash, shu jumladan, jamoat tashkilotlari va notijorat tashkilotlar bilan birgalikda ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish. Oilaviy qo'llab-quvvatlash masalasida esa muammoli oilalar bilan ishlash, ularga yordam berish va ularni jamiyatga qayta integratsiya qilish, bu ayniqsa yoshlar va bolalar uchun muhimdir. Huquqiy ma'lumot berishda shaxslar va oilalarga huquqiy ma'lumot berish, ularga o'z huquqlarini bilish va himoya qilishda yordam ko'rsatish masalalari olib boriladi.

Bu faoliyatlar orqali profilaktika inspektorlari shaxslarning ijtimoiy hayotga qaytishi va ularga moslashishiga katta hissa qo'shadilar. Ularning vazifalari shaxslarni nafaqat qonuniy, balki ijtimoiy jihatdan ham qo'llab-quvvatlash va jamiyatda o'z o'rnini topishga yordam berishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil 10-dekabr)/ Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi// <http://constitution.uz/uz/pages/humanrights>.
2. Криминальное насилие: общие проблемы и опыт борьбы в Республике Саха (Якутия) [Текст] / отв. ред. А. И. Долгова. – М., 2004.
3. Gender zo'ra vonlik bo'yicha ichki ishlar organlari tomonidan huquqni muhofaza qilish xizmatlarini taqdim etishning standart operatsion ish tartiblari [Matn]:



йўриқнома / адаптация бўйича мутахассис В. О. Самадович. — Тошкент: Baktria press, 2021. — 48 б.

4. Жалилов, Н. 2022. Профилактика инспектори маъмурий иш юритиш фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари. Жамият ва инновациялар . 2, 12/S (Feb. 2022), 348–352. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss12/S-pp348-352>.

5. Жалилов, Н. 2022. Ҳуқуқбузарликларнинг яқка тартибдаги профилактикаси институтининг назарий асослари. Жамият ва инновациялар . 3,4/S (May 2022), 397– 403. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss4/Spp397-403>

6. Таштемиров А. А. Техник криминалистик экспертиза - ахборот технологиялари орқали содир этиладиган жиноятларни фoш этишнинг асосий омили сифатида //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – Т. 2. – №. 21. – С. 12-19.



TRITIKALE O'SIMLIGINING KUNAK VA TIT NAVLARIDA EKISH MUDDATLARINING KO'CHAT QALINLIGIGA TA'SIRI

Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti "Ozuqa va noan`anaviy ekinlar seleksiyasi, urug'chiligi va agrotexnikasi laboratoriyasi" kichik ilmiy

xodimi- Masardinov Xushnudbek Bozorboy o'g'li

xushnudbekmasardinov@gmail.com tel: +998943853625

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tritikale o'simligi ustida olib borilayotgan tajriba natijasi bayon qilinadi. Hamda tritikale o'simligining Kunak va Tit navlarining ekish muddatlarining ko'chat qalinligiga ta'siri natijalari o'rganilib taqqoslangan.

Kalit so'zlar: tritikale, Kunak navi, Tit navi, nav, ko'chat qalinligi, soni, natijalar, tajriba.

Xozirgi kunda xoh insonlar bo'lsin, xoh chorva xayvonlari bo'lsin ularning oziq-ovqatga bo'lgan talabi ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida qishloq xo'jaligida to'yimli, sifatli ozuqa ekinlarini ekishni taqazo qiladi. Xozirda xukumatimiz tomonidan ham qishloq xo'jaligiga katta e'tibor berilib, qator ishlar samarali olib borilmoqda. Xususan, qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida ham gaplarimizni isbotini topishimiz mumkin. Bu qonun xujjati doirasida yaylovlar, yem-xashak ekiladigan maydonlar ko'lamini kengayishi va bor mavjud yerlardan samarali foydanish kabi masalalar atroflicha o'rganilib, hozirda bu borada qator ishlar samarali olib borilmoqda.

Tritikale (*Triticum* [bug'doy](#), *Secale* — [javdar](#)) — bug'doy javdar duragayi — ikki xil o'simlik xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan o'simlik; g'alla ekini. Tritikalening kuzgi va bahorgi shakllari mavjud.

Bugungi kunda Tritikale o'simligini yetishtiruvchi asosiy davlatlar – Germaniya, Belorussiya, Frantsiya, Rossiya, Xitoy, Vengriya, Ispaniya, Avstraliya mamlakatlari hisoblanadi.



Bug‘doy va javdarning dastlabki duragayini 1875-yilda Shotlandiya olimi Vilson yaratgan. 1881-yil Germaniyada Rimpau uning doimiy duragayini ajratib olgan. Keyingi yillarda oktaploid (56 xromosomal), geksaploid va oktaploid (42, 56 xromosomal) duragaylari yaratilgan.

Tritikale morfologik belgilari bilan bug‘doy va javdardan farq qiladi. Ildizi yaxshi rivojlangan, tuproqqa 1,5—2,0 m gacha kirib boradi, murtak ildizlari 6 ta, poyasi nisbatan baland (90—150 sm), boshog‘i uzun (10—15 sm), doni yirik. Boshog‘ining tashqi gul qobig‘ida qiltanoq o‘sadi. Tritikale 5° va undan yuqori haroratda una boshlaydi, 20° muqobil hisoblanadi. Kuzda ekiladi. Ekilgandan keyin 5—7 kunda unib chiqadi. Tuplanish davri kuzda boshlanib, bahorda davom etadi, qishda 18—20° sovuqqa chidashi mumkin. O‘zbekistonda ekiladigan navlarining amal davri 165—200 kun, o‘zidan va chetdan changlanadi. Tritikale yorug‘sevar, uzun kun, namsevar o‘simlik. Unish paytida, nay o‘rash, donlanish va to‘lishish davrlarida suvni ko‘p talab etadi.

Tritikale tuproq unumdorligiga talabchan emas, yer tanlamaydi, lekin sho‘rlangan, botqoqlangan tuproqlarni yoqtirmaydi. Qora tuprokli yerlarda yuqori hosil beradi. Tritikale doni to‘yimlilik bo‘yicha bug‘doy va javdarga nisbatan yuqori. Donida 11 — 12%, pichanida 10—11% oqsil bor. Tritikaedan don, ko‘kat, pichan, pichan uni, silos, senaj tayyorlanadi. Non pishirish uchun sifati bug‘doydan past hisoblanadi.

O‘zbekistonda tritikalening Prag, Serebristiy, Uzor navlari rayonlashtirilgan. Hosildorligi: ko‘kat hosili 400— 500 s/ga, don hosili 50—80 s/ga (ko‘kati boshog‘lanish davrida o‘riladi). Zamburug‘li va virusli kasalliklarga bardoshli.

Tit navining umumiy xususiyatlari. Tit navi triticalesphaerococcum kenja turiga mansub va sharsimon don geni bilan aniqlangan o‘ziga xos arxitektonikaga ega: keng, kalta, erektoid barg, qattiq somon, zich shpalsiz boshog‘ va yarim dumaloq don shakli. Sarlavhadan keyin kuchli mumsimon qoplama bilan. O‘rta bo‘yli,



o'simlik balandligi 110-120 sm, joylashish va to'kilishga chidamli. Kechpishar, boshlari Valentin 90 naviga qaraganda 1-2 kun kech.

Tajriba maydonida olib borilgan ishlar. Tritikale o'simligining **Kunak** va **Tit** navlarining urug'lari kuzda saralanib, kuzning uchinchi dekadasida yerga ekildi. Ular unib chiqqach o'simliklar ustida kuzatuv ishlari olib borilishi boshlandi. Bu navlarning tuplanish fazasida o'simlik qalinligi bo'yicha kuzatuv ishlari amalga oshirildi. Ko'chat qalinligi bo'yicha ishlar 1-mart sanasida amalga oshirilib, tegishli xulosalar berildi. Bu ko'chat qalinligini aniqlashda 1m² dagi o'simliklar soni xisoblab chiqilib, ikki nav o'rtasida o'zaro solishtirildi. Ko'chat qalinligini aniqlashda xar bir navning uch joyidan na'munalar olinib, ularning soni qo'shib, o'rtacha ko'chatlar soni aniqlandi. Kunak navida birinchi olingan na'munada 88 ta o'simlik, ikkinchi na'munada 168 ta o'simlik, uchinchi na'munada 128 ta o'simlik tuplari aniqlanib, ularning barchasi bir-biriga qo'shib, uchga bo'linganda o'rtacha 128 ta o'simlik tupi aniqlandi. Tit navida esa birinchi na'munada 116 ta o'simlik, ikkinchi na'munada 196 ta o'simlik, uchinchi na'munada esa 144 ta o'simlik tuplari aniqlanib, bularning ham barchasi bir biriga qo'shib uchga bo'linganda o'rtacha 152 ta tup o'simlik aniqlandi. Olingan ma'lumotlar asosida kerakli xulosalar olindi.



1-rasm. Tritikale o'simligi.

Xulosalar. Olingan natijalar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, Tritikale o'simligining ikkala navi ham bir xil vaqtda ekilib, bir xil parvarish qilinganiga



qaramay Tit navi bizning tuproq sharoitimizga ko'proq moslashganligi uchun ham bu navimizda tuplar soni Kunak naviga qaraganda 1m² da 24 donaga ko'p chiqdi. Endi olinadigan xosildorligini ham tajriba yakunida ko'ramiz. Xozirda fenologik kuzatuvlar xar oyning boshida olib borilmoqda. Tajriba tugagandan so'ng yakuniy xulosalar beriladi.

Izoh: Tritikalening bu ikkala navi ham Rossiyaning Krasnadar o'lkasidan olib kelingan bo'lib, xozirda iqlimlashtirish bo'yicha tajribalar olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.lex.uz
- 2.Dala tajribasi xulosalari
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tritikale>
- 4."O'simlikshunoslik" X. Atabayeva Tosh-2018 yil 117-bet
5. P.O.Oripov N.X.Xalilov "O'simlikshunoslik" Samarqand-2005



ЯЗВЕННОЙ БОЛЕЗНИ ЖЕЛУДКА И ДВЕНАДЦАТИПЕРСТНОЙ КИШКИ

Фатаев Аминжон Акмалович
ассистент кафедры «Хирургические болезни»
Бухарского государственного медицинского
института имени Абу Али ибн Сино

Рассматриваются современные данные по этиологии и патофизиологическим механизмам развития этой патологии. Проведен краткий обзор литературы по данному вопросу и описан клинический случай развития осложнения язвенной болезни желудка.

Ключевые слова: язвенная болезнь, осложнения язвенной болезни, перфоративная язва желудка.

В последние годы отмечается тенденция к росту заболеваемости населения, среди которых широкое распространение получила язвенная болезнь желудка и двенадцатиперстной кишки.

По статистике, гастродуоденальными язвами страдает 10-12% (до 15%) взрослого населения, преобладающий возраст - 20-50 лет. Соотношение мужчин и женщин составляет 4 к 1. Актуальность этой проблемы определяется тем, что она является основной причиной инвалидности 68% мужчин и 30% женщин. Язвенная болезнь - хроническое рецидивирующее заболевание, характеризующееся формированием язвенного дефекта в желудке или двенадцатиперстной кишке [1].

Этиология:

- 1) Генетическая предрасположенность к развитию язвы (высокий уровень секреции соляной кислоты; гастродуоденальная дисмоторика; повышение образования пепсиногена; врожденный дефицит антитрипсина);
- 2) Нервно-эмоциональное напряжение приводит к повышенной выработке соляной кислоты;



3) Злоупотребление алкоголем, курение (стимулируют секрецию соляной кислоты и нарушают образование желудочной слизи, снижают резистентность слизистой оболочки желудка);

4) Наличие хронических заболеваний желудка (гастрит может быть фоном для образования язв на слизистой при наличии агрессивных факторов);

5) Чрезмерное увлечение острой, кислой пищей;

6) Неправильный режим питания – длительные перерывы между приемами пищи, еда всухомятку;

7) Длительный прием некоторых лекарственных препаратов (нестероидные противовоспалительные средства способны оказывать разрушающее влияние на слизистую) [2].

Классификация: язвенные болезни классифицируют по локализации, стадии заболевания, наличию осложнения.

I. По локализации разделяется болезнь на: язву желудка, язву двенадцатиперстной кишки, язвы неуточненной локализации.

II. По морфологической картине бывают маленькие язвы (менее 0,5 см), средних размеров (0,5-1 см), большие (1-3 см), гигантские (более 3 см).

III. По клинической форме различают острую и хроническую.

IV. В зависимости от фазы выделяются периоды ремиссии, рецидива, затухающего обострения.

V. По форме язвенная болезнь бывает без осложнений или с осложнениями [1].

Клинические проявления:

В период обострения в первую очередь появляется боль в верхней части живота, которая отдает в зависимости от локализации язвенного дефекта в левую половину грудной клетки, лопатку, грудной и поясничный отделы позвоночника, левое и правое подреберье, различные отделы живота. 1/3



пациентов испытывает интенсивные боли, а 2/3 – боли незначительной интенсивности. Боль часто связана с приемом пищи, а время возникновения боли зависит от локализации дефекта. При локализации язвы в верхнем (кардиальном) отделе желудка боль возникает через 1-1,5 часа после еды. При язве в нижнем отделе (пилорическом) и язве луковицы двенадцатиперстной кишки боль возникает через 2 – 3 часа после еды, а также пациента могут беспокоить «голодные» боли, которые возникают «натощак» и проходят после приема пищи, и ночные боли. Кроме болей пациента беспокоят изжога, отрыжка кислым, тошнота, рвота на высоте болей, приносящая облегчение, склонность к запорам. Для болезни характерны осенне-весенние обострения [4].

Осложнения:

Наиболее частыми осложнениями язв желудка и двенадцатиперстной кишки являются:

- 1) язвенное кровотечение (5—10%),
- 2) перфорация (у 10%),
- 3) стеноз привратника и двенадцатиперстной кишки (10—40%),
- 4) пенетрация язвы (5%).

1. Язвенное кровотечение сопровождается рвотой «кофейной гущей», черным дегтеобразным стулом (мелена), снижением артериального давления, резкой слабостью, головокружением, при этом пульс частый, малый. В периферической

крови - анемия. Боли после кровотечения обычно исчезают и при пальпации живота болезненности также не отмечается.

2. Для перфорации (прободения) характерно возникновение очень сильной боли в верхней половине живота, затем развивается симптом «мышечной защиты» - доскообразный живот. Состояние больного прогрессивно ухудшается: кинжальная боль в подложечной области, лицо



бледное, язык сухой, пульс нитевидный. Больного беспокоят сильная жажда, икота, рвота, газы не отходят. Это клиническая картина развивающегося перитонита.

3. Рубцовое сужение привратника - следствие рубцевания язвы в пилорическом отделе желудка. У больных появляются отрыжка тухлым, рвота пищей, съеденной накануне. При пальпации живота определяется «шум плеска». Живот вздут, в подложечной области сильная перистальтика.

4. Стеноз привратника характеризуется ощущением тяжести, переполнения желудка после еды; рвотой съеденной накануне пищей, тухлым содержимом; похудание; шум «плеска» в желудке.

5. Раковое перерождение язвы чаще всего отмечается при локализации ее в кардиальном и пилорическом отделах желудка (язва двенадцатиперстной кишки никогда не подвергается перерождению). При раковом перерождении боли теряют периодичность, становятся постоянными. Снижается кислотность желудочного сока, реакция кала на скрытую кровь постоянно положительная. У больных снижаются аппетит, масса тела, повышается СОЭ.

6. Пенетрация - проникновение язвы за пределы желудка или двенадцатиперстной кишки в соседние органы. Характерно появление симптомов поражения других органов, вовлеченных в процесс (симптомы панкреатита, холецистохолангита и. т.д.).

Пенетрируют обычно язвы задней стенки желудка или двенадцатиперстной кишки в малый сальник или поджелудочную железу (тело, головку). Реже встречается пенетрация язвы в печень, желчный пузырь, поперечную ободочную кишку. В анализе крови при пенетрации отмечается ускорение СОЭ; лейкоцитоз [3].

Вашему вниманию представляем собственное наблюдение перфоративной язвы желудка.

Больной В., 57 лет, доставлен 23 сентября 2017 года бригадой «скорой



медицинской помощи» в приемное отделение 1 РКБ города Ижевска с жалобами на интенсивную боль в эпигастральной области.

Из анамнеза: считает себя больным с 2011 года, когда впервые появились периодические интенсивные боли в эпигастрии. После обследования был поставлен диагноз: язвенная болезнь желудка.

Ухудшение состояния возникло неделю назад, когда возобновились боли в области желудка, появилась общая слабость, частая тошнота приблизительно через 30 мин после приема пищи. Со слов пациента несколько раз был темный стул. После приема пищи боли утихали, возобновлялись через 1-1,5 часа. За день до настоящей госпитализации была принята жирная пища и алкогольные напитки. На следующий день у пациента возникла сильная тошнота, закончившаяся рвотой. Утром 23.09.17 г. появились жалобы на кинжальную боль, тошноту, повышенное потоотделение, озноб.

Состояние средней степени тяжести, положение вынужденное. Сознание ясное. Кожные покровы бледные. Дыхание везикулярное, проводится во все отделы, хрипов нет. ЧДД 16 в мин. Пульс – 79 в мин. АД 130/90 мм рт.ст. Язык сухой, обложен белым налетом. Живот не вздут, резко болезненный в эпигастрии при поверхностной пальпации, глубокая пальпация невозможна из-за мышечного напряжения. Симптом Щеткина – Блюмберга положительный.

Проведено следующее обследование: общий анализ крови: СОЭ – 17 мм/ч;

лейкоциты – $5,5 \times 10^9$

/л; эритроциты $4,86 \times 10^{12}$ /л; гемоглобин – 131 г/л; тромбоциты – 180×10^9

/л; в лейкоформуле — без изменений.



Биохимический анализ крови: белок 80 г/л, билирубин общий – 15.7мкмоль/л,

холестерин – 4.65 ммоль/л, мочевины – 4,3 ммоль/л, остаточный азот – 16.1 ммоль/л,

креатинин – 75 мкмоль/л, амилаза – 22 ед.

Общий анализ мочи: светло-желтого цвета; прозрачная; удельный вес – 1010;

белок, сахар отрицательные; лейкоциты, эпителий единичные.

ЭКГ: ЧСС 79 уд/мин, синусовый ритм, нормальное положение ЭОС.

Обзорная рентгеноскопия органов брюшной полости: признаки свободного газа в брюшной полости. На основании данных анамнеза, объективного осмотра, проведенных

диагностических процедур установлен диагноз: Перфоративная язва желудка.

Прогноз при перфорации желудка очень серьезный, так как несвоевременная диагностика этого состояния может приводить к смерти пациента. Профилактика перфорации желудка вторична – необходимо вовремя диагностировать и лечить заболевания, которые могли привести к этому состоянию.

Список литературы

1. Хирургические болезни. Учебник для студентов высших медицинских учебных заведений // Под ред. М.И. Кузина. М. Медицина, 2002. 281 с.

2. Хирургические болезни. Учебник для вузов // Под ред. В.С. Савельева и А.И. Кириенко. М. ГЭОТАР-Медиа, 2008. 202 с.

3. Хирургические болезни. Учебник для вузов // Под ред. А.Ф. Черноусова. М. ГЭОТАР-Медиа, 2010. 254 с.



4. Методическая разработка к практическому занятию «Язвенная болезнь желудка и двенадцатиперстной кишки, осложнённая перфорацией». Изд. УГМА. Екатеринбург, 2011. 6 с.



СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ДЛЯ ИЗУЧЕНИЯ СИНТАКСИСА

Азиза Бозорова Темуровна

*Студентка факультета русского языка,
Университет информационных технологий
и менеджмента, г. Карши*

Ключевые слова: *Грамматика зависимостей, Минималистская программа, Семантико-синтаксическая типология, Корпусный анализ, Лингвистические теории, Синтаксис, Языковая грамматика, Структура предложения, Лингвистические методик, Компьютерные модели языка*

